ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	The importance of proteins in medicine *Kholboev Yu. Kh.* *Abduraxmanov U.K.*	9
2	Gum metodologiyasi asosida analitik tarozilarda yuzaga keluvchi noaniqlik manbalarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlari. *Axmedov B.M* *Karjaubaeva.A.I*	13
3	Furfurol asosida organik-noorganik gibrid ionitlar sintezi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarining tadqiqi *Axmedov Vohid Nizomovich* *Jamilova Niginabonu Qobil qizi* *Bobomurodova Nafisa Bobomurod qizi*	21
4	Dizel bazasidagi gaz dvigatellari uchun tavsiya etiladigan motor moylarining asosiy sifat ko‘rsatkichlari *Ismailov Ergash Ulug‘bekovich*	29
5	Physicochemical characterization and thermal stability of sulfur cellulose composites obtained by inverse vulcanization *Saydullo Khamidovich Azimov* *Suvonkul Erkhonovich Nurmonov* *Umida Ruzimbayevna Baltayeva* *Orif Sharipovich Kodirov*	37
6	Metallarga mexanik ishlov berishda adaptiv boshqaruv tizimlarini qo‘llash *R.S. Ulug‘xojayev* *M.S.Maxammadziyoyev*	50
7	Elektr dvigateli tizimlarining energiya samaradorligini oshirishda tebranishga asoslangan texnik holat monitoring. *Ramazonov Bahodir G‘olib o‘g‘li*	56
8	Thermo-mechanical reliability enhancement of tube–header joints in air-cooled heat exchangers via controlled deformation management *Rakhimov Ganisher Bakhtiyorovich* *Ulug‘bek Shomurodov* *Abdulla Nasriddinov*	63
9	The effect of grain sprouts on fermentation processes and food quality *Askarova Khurshida Ekram kizi*	72
10	Production of fortified food products for children based on cereal bran *Askarova Khurshida Ekram kizi*	76
11	Problems in the architectural design of private student dormitories: local and foreign experience *A.M Umarov* *Nusratbek Kuchkorbekov*	80
12	Psixotrop moddalar aylanmasi sohasida tibbiy va farmatsevtika tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish *Musurmonov Rabbim Ilhom o‘g‘li* *Tosheva Lola Sunnatovna* *Pasitova Zamira Oblaqulovna* *Eshkobilova Mavjuda Ergashboyevna*	90
13	Разработка и анализ передвижной механической лестницы для ухода за виноградниками и выполнения ремонтных работ *Собиров Холхужа Аббозович* *Худойбердиев Махмуджон*	101
14	Особенности течения и профилактика саркопении у пожилых людей *Шамсутдинова Гузель Баходировна*	108
15	Интеграция принципов проектирования туберкулёзных и пульмонологических больниц в архитектуру многофункциональных высотных жилых комплексов. *Ирина Вагифовна Габибова* *Хусанова Эзоза Мухтор кизи*	117
16	Взаимосвязь между полиморфизмом генов цитокинов и клиническими проявлениями рецидивирующих бронхитов у детей с тимомегалией *Маматкулова Дилрабо Хамидовна* *Шарипова Олия Аскаровна*	147

ISSN 3030-3907

	Бобомуродов Бобуржон Бобомурод ўғли	
17	O‘simlik antibiotiklari: tuzilishi va xususiyatlari *Eshmamatova Shaxrizoda* *Mamaderov Behruz* *Mansurova Dilafruz*	160
18	Лечение и профилактика ранней анемии недоношенных *Мардонова Севинч Холмирзоевна* *Тураева Исмигул Мухиддин кизи* *Облакулова Насиба Тохировна* *Рустамова Хабиба Хасановна*	166
19	Коррекция железодефицита как значимый фактор в профилактике осложнений беременности *Юлдашева Феруза Отабек кизи* *Шоназарова Доногул Абдували кизи* *Рустамова Хабиба Хасановна*	176
20	Моделирование трехмерных реагирующих струй на основе двухпараметрической модели турбулентности и численные реультаты исследования влияния исходного значения диссипации кинетической энергии турбулентности на параметры факела *Ходжиев С.* *Пиримов А.*	188
21	Arundo donax o‘simligi alkaloidlari asosida yangi hosilalar sintezi, tuzilishi va biologik faolligini o‘rganish *Xolmatov M.X.* *Beknazarov H.S.* *Turayev E.R.* *Allaberdiyev F.X.*	196
22	Kanakunjutning shifobaxsh xususiyatlari *To‘rayev Dilshodbek Jo‘rabek o‘g‘li* *Bozorov Sardor Zafar o‘g‘li* *Berkinov Diyorbek Asliddin o‘g‘li* *Xudoyqulov Jamoliddin Inomovich*	202
23	Yengil sanoatda muhandislik va texnologik jarayonlarning innovatsion usullari *Sirojova Muxabbat Sodiq qizi*	209
24	Синтез и исследование четвертичных аммонийных солей на основе реакции n,n-диметиланилина с бензилхлорацетатом *Бекмуродов Зеҳниддин Озод ўғли* *Бурихонов Бахтиёр Холмирзаевич*	215
25	Совершенствование тактико-технических подходов в лечении пищеводных кровотечений на фоне портальной гипертензии *Азимова Гулноза Равшановна*	222
26	Tabiiy gazni quritish va tozalash jarayonining gidrodinamikasi *Q.K. Jumayev* *G‘.B. Zaripov* *G‘. G‘ Habibullayev*	232
27	Tabiiy gazni quritish va tozalash jarayonini markazdan qochma kuch maydonida jadallashtirush *Q.K. Jumayev* *G‘.B. Zaripov* *G‘. G‘ Habibullayev*	238
28	Разработка композиционных полимерных материалов и оптимизация технологии ротационного формования резервуаров для сельскохозяйственных машин защиты растений. *Юлдашев Нодирбек Бахрамович* *Юлдашев Бекзод Бахрамович* *Негматов Сойибжон Садикович*	244
29	Ўзбекистонда машинавий ўқитиш усулларини ахборот-таҳлилий фаолиятда қўллашдаги муаммолар хусусида *Ахмедов Фирдавс Камол ўғли*	250
30	Исследование иммунной и гормональной системы у детей с осложненной пневмонией *Шарипова Олия Аскаровна* *Маматкулова Дилрабо Хамидовна*	260
31	Modeling hydrogeological data based on the splayn method *Bakhramov Sayfiddin* *Khushvaktov Jaloliddin*	274

ISSN 3030-3907

	Gulboyev Abror	
32	Lingvistik lug‘atlar yordamida o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari *Xusanova Gulruxsor To‘lqin qizi* *Aliyeva Muhlisa Baxodir qizi*	287
33	“Nutrelon xorazm” mobil ilovasining algoritmi *Atajanova Zulfiya Nasrulla qizi*	293
34	Fungicidal and bactericidal properties of n9-substituted derivatives of 6-benzylaminopurine *Baymuratova Gulbaxar Orinbayevna*	300
35	Comparative density functional theory study of cis and trans isomers of biuret monometaphosphate (bmmf): electronic structure, reactivity descriptors, and coordination properties *Gulyayra Kholikova* *Maftuna Narzullayeva* *Fariza Gaybulloyeva* *Uktam Mardonov* *Baxtiyor Ganiev*	309
36	Oleanol kislotaning biologik faol aminobirikmalar bilan komplekslarini olish *Shahnoza Boboyorova* *Ozoda Salohiddinova* *Rahmat Esanov* *Maxmudjon Gafurov*	329
37	“Boburnoma - buyuk shoh va shoir xotiralari” *Davlatmurodova Farangiz Shavkat qizi*	338
38	Refining of cottonseed oil using an alkaline extract solution derived from cotton stalk ash and evaluation of the physicochemical properties of the refined oil *Boltaev Mirjalol* *Serkaev Kamar*	343
39	Герундий *Юсупов Джангир Олтинбекович* *Ибрагимова Севда Джахангировна* *Бекназарова Мохия Кенжаевна*	356
40	Application and development prospects of dynamic pumps in modern industry *Norboyev Abduahat Tohir o‘g‘li* *Tolibov Behruz Turg‘unboy o‘g‘li* *Pardaliyev Baxodir Marat o‘g‘li* *Yusupov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li*	361
41	$MapbI_3$ perovskit kvant nuqtalarning xona haroratida sintezi hamda tozalash usuli *Norboyev Qodirbek Mardonqul o‘g‘li* *Tashpulatov Xurshid Shukorovich* *Toshpulatov Doston Tolmas o‘g‘li* *Normurodov Otajon Uktamovich* *Xursandov Jasurbek Muhammad o‘g‘li*	368
42	Tarkibida vismut-kobalt saqlagan ftalosianin qo‘shmetalli birikmasining iq-spektroskopik tahlili *N. Qosimova* *J. Fayziyev* *O. J. Axmedov*	375
43	Квантово-химическое и экспериментальное исследование реакций пиридина с эфирами монохлоруксусной кислоты *Ражабова Гулноза Рустам кизи* *Бурихонов Бахтиёр Холмирзаевич* *Бердимуродов Элёр Тухлиевич*	382
44	Artificial intelligence algorithms in adaptive control systems: development and application *Tuychiyev Olimjon Alimjonovich* *Riskulova Sitora Uktam qizi*	390
45	Синтез и исследование четвертичных аммониевых солей на основе реакции этиленхлоргидрина с трибутиламином *Ахмадова Рушана Сирожиддин кизи* *Бурихонов Бахтиёр Холмирзаевич* *Журакулова Нигора Холматовна*	396
46	Paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni ajratish usullari tahlili *Ikromov Shaxobiddin Shamsutdin o‘g‘li*	404

ISSN 3030-3907

	Xashimov Sabitxan *Muradov Rustam Muradovich* *Toshpo'latov Mansurbek Bekpo'latovich*	
47	Zamonaviy ta'lim muhitida blended learning modelini learning analytics vositalari orqali monitoring qilish va sifatini oshirish *Shamuratov Alimbay Kamiljanovich*	410
48	Shtm-1300/300 shnekli-tishli maydalagichining ishchi organlari yeyilishini kamaytirish orqali samaradorligini oshirish *Kamolov Nuriddin Bomurotovich* *Suleymanova Mukaddas Baxtiyarovna* *Raxmonov Izzat Ilxomovich* *Kaxxarov Orif Odilovich*	419
49	Farg'ona viloyatida jamoat yo'lovchi transporti yo'nalishlari tarmog'ining shakllanishi va uning hududiy rivojlanishdagi o'rni tahlili *Nazarov Anvar Aripovich* *Siddiqov Beknazar Jumanazar o'g'li*	430
50	Para-aramid tolali trikotaj materiallari *Turaxujayeva Nilufar Nazirjanovna*	437
51	Tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirlarda yuqori garmonikalar tahlili *Amirov Sulton Fayzullayevich* *Sattorov Toshpo'lot Ahmad o'g'li* *Murodov Behruzjon Barot o'g'li*	446
52	Poliefir hamda epoksi emulsiya qoplamasi asosida ishlab chiqarilgan uzluksiz bazalt tolalarining fizik-mexanik ko'rsatkichlarini o'rganish *Tojidinov Mashhurbek Baxodirovich* *Vafayev Oybek Shukurlayevich* *O'rolov Sanjar Bahrom O'G'Li*	458
53	Tarixiy poetika va uning hozirgi davrdagi ahamiyati *Ibragimova Azada Gulumbayevna*	465
54	Multinational enterprises' fdi ownership strategy *Imomova Mokhizoda Azim kizi*	473
55	Tarkibida qalay saqlovchi ftalotsianin birikmalari sintezida boshlangich moddalar nisbati va olingan moddaning iq spektri taxlili *Ch.A. Musayev* *J. B. Fayziyev* *O. J. Axmedov*	477

ISSN 3030-3907

THE IMPORTANCE OF PROTEINS IN MEDICINE

Kholboev Yu. Kh.
Andijan State Medical Institute Doctor of Chemical Sciences
Abduraxmanov U.K.
Andijan State Medical Institute Professor PhD in Chemistry Associate Professor

Abstract. Proteins are one of the most important biomolecules in living organisms. They perform many essential biological functions and play a critical role in medical science. Proteins are involved in the structure of cells, regulation of metabolic processes, immune defense, and transportation of substances in the body. In modern medicine, proteins are used for diagnosis, treatment, and prevention of many diseases. This article discusses the structure and classification of proteins, their biological functions, and their significance in medicine.

Keywords: proteins, amino acids, enzymes, antibodies, hormones, medical biochemistry, therapeutic proteins.

Annotatsiya. Oqsillar tirik organizmlardagi eng muhim biomolekulalardan biridir. Ular ko‘plab hayotiy zarur biologik funksiyalarni bajaradi va tibbiyot fanida muhim o‘rin tutadi. Oqsillar hujayra tuzilmasida, modda almashinuvi jarayonlarini tartibga solishda, immun himoyada hamda organizmda moddalarni tashishda ishtirok etadi. Zamonaviy tibbiyotda oqsillar turli kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada oqsillarning tuzilishi va tasnifi, ularning biologik funksiyalari hamda tibbiyotdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: oqsillar, aminokislotalar, fermentlar, antitanachalar, gormonlar, tibbiy biokimyo, terapevtik oqsillar.

Аннотация. Белки являются одними из наиболее важных биомолекул в живых организмах. Они выполняют множество жизненно необходимых биологических функций и играют ключевую роль в медицинской науке. Белки участвуют в формировании клеточных структур, регуляции метаболических процессов, иммунной защите и транспорте веществ в организме. В современной медицине белки широко используются для диагностики, лечения и профилактики различных заболеваний. В данной статье рассматриваются структура и классификация белков, их биологические функции, а также их значение в медицине.

Ключевые слова: белки, аминокислоты, ферменты, антитела, гормоны, медицинская биохимия, терапевтические белки.

1. INTRODUCTION.

Proteins are complex organic macromolecules composed of amino acids linked by peptide bonds. They are essential components of all living cells and

ISSN 3030-3907

tissues. The word "protein" originates from the Greek word *proteios*, meaning "primary" or "most important." In the human body, proteins are responsible for many biological processes including enzyme catalysis, cell signaling, immune protection, and structural support [1]. Due to these functions, proteins have significant importance in medicine, biotechnology, and pharmacology. Proteins are formed from **20 standard amino acids**, and their specific sequence determines their biological activity [2]. In medicine, the study of proteins helps scientists understand disease mechanisms and develop new therapeutic drugs.

2. STRUCTURE OF PROTEINS.

Proteins have four levels of structural organization. Each level contributes to the final biological activity of the protein molecule [3].

Table 1.

Levels of Protein Structure

Structure Level	Description	Example
Primary structure	Linear sequence of amino acids connected by peptide bonds	Insulin
Secondary structure	Local folding such as α-helix or β-sheet	Keratin
Tertiary structure	Three-dimensional folding of the entire polypeptide chain	Myoglobin
Quaternary structure	Combination of multiple protein subunits	Hemoglobin

The correct folding of proteins is very important. Misfolded proteins can cause serious diseases such as **Alzheimer's disease, Parkinson's disease, and prion diseases**.

3. BIOLOGICAL FUNCTIONS OF PROTEINS.

Proteins perform a wide variety of biological functions necessary for life.

Table 2.

Major Functions of Proteins in the Human Body

Function	Example Protein	Medical Importance
Enzymatic function	Amylase, pepsin	Catalyze biochemical reactions
Structural function	Collagen, keratin	Maintain tissue structure
Transport function	Hemoglobin	Transport oxygen in blood
Hormonal function	Insulin	Regulate metabolism
Immune protection	Antibodies	Protect against infections
Storage	Ferritin	Store essential elements

These functions demonstrate why proteins are fundamental for normal physiological processes [4].

ISSN 3030-3907

4. PROTEINS IN MEDICAL DIAGNOSIS.

Proteins are widely used as **biomarkers** in medical diagnostics. Changes in protein concentration in blood or tissues can indicate the presence of disease.

Table 3.

Diagnostic Protein Biomarkers

Protein Biomarker	Disease Indication
Troponin	Heart attack
C-reactive protein (CRP)	Inflammation
Hemoglobin A1c	Diabetes monitoring
Prostate-specific antigen (PSA)	Prostate cancer
Albumin	Liver or kidney disease

Modern diagnostic methods such as **ELISA, immunoassays, and electrophoresis** rely heavily on protein detection.

5. THERAPEUTIC PROTEINS IN MEDICINE.

Therapeutic proteins are widely used to treat many diseases. Biotechnology allows the production of recombinant proteins that act as medicines [5].

Table 4.

Examples of Therapeutic Proteins

Protein Drug	Disease Treated
Insulin	Diabetes mellitus
Interferons	Viral infections, cancer
Monoclonal antibodies	Cancer, autoimmune diseases
Erythropoietin	Anemia
Growth hormone	Growth disorders

These protein-based drugs are safer and more targeted compared with many traditional chemical drugs.

6. PROTEINS AND THE IMMUNE SYSTEM.

Proteins play a central role in immune defense. Antibodies (immunoglobulins) are specialized proteins produced by B-lymphocytes that recognize and neutralize pathogens. Vaccines also work by stimulating the body to produce protective antibodies [6]. Many modern vaccines use **protein antigens** or **recombinant proteins**.

7. NUTRITIONAL AND CLINICAL IMPORTANCE OF PROTEINS.

Adequate protein intake is essential for human health. Protein deficiency can lead to severe health problems such as:

- **Kwashiorkor**
- **Muscle wasting**
- **Immune system weakness**

ISSN 3030-3907

- **Delayed growth in children**

Table 5.

Protein Requirements for Different Age Groups

Age Group	Recommended Daily Protein Intake
Children	1.0–1.2 g/kg body weight
Adults	0.8 g/kg body weight
Pregnant women	1.1 g/kg body weight
Elderly	1.0–1.2 g/kg body weight

Proper nutrition ensures the body has enough amino acids to synthesize necessary proteins.

8. Modern Research on Proteins Advances in **proteomics**, **biotechnology**, and **genetic engineering** have significantly expanded the role of proteins in medicine. Scientists now study protein structures and interactions to develop:

- new drugs
- personalized medicine
- targeted cancer therapies
- diagnostic biosensors

Protein engineering also allows scientists to design proteins with improved therapeutic properties.

9. CONCLUSION. Proteins are fundamental molecules that perform numerous essential functions in the human body. Their importance in medicine is evident in diagnostics, therapeutic drug development, immune protection, and nutritional health. Modern biomedical research continues to explore the potential of proteins for improving disease treatment and prevention. Understanding protein structure and function remains one of the most important areas of medical and biochemical research.

REFERENCES

1. Nelson, D., Cox, M. (2017). *Lehninger Principles of Biochemistry*. W.H. Freeman.
2. Berg, J., Tymoczko, J., Gatto, G. (2019). *Biochemistry*. W.H. Freeman.
3. Voet, D., Voet, J. (2016). *Biochemistry*. Wiley.
4. Lodish, H. et al. (2021). *Molecular Cell Biology*. W.H. Freeman.
5. Alberts, B. et al. (2022). *Molecular Biology of the Cell*. Garland Science.
6. Walsh, G. (2018). *Biopharmaceuticals: Biochemistry and Biotechnology*. Wiley.

ISSN 3030-3907

GUM METODOLOGIYASI ASOSIDA ANALITIK TAROZILARDA YUZAGA KELUVCHI NOANIQLIK MANBALARINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.

Axmedov B.M
O‘zbekiston Respublikasi Kadastr palatasi boshqarma boshlig‘i, professor, texnika fanlari doktori
Karjaubaeva.A.I
Toshkent davlat texnika universiteti, “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida o‘lchash natijalarining ishonchliligini ta’minlash metrologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki yuqori aniqlikdagi o‘lchashlarda noaniqlikni to‘g‘ri baholash natijaning sifatini belgilab beradi. Zamonaviy metrologiyada noaniqlikni baholashning xalqaro tan olingan yondashuvi sifatida GUM (Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement) standarti qabul qilingan bo‘lib, u o‘lchash natijasini bir nechta kirish kattaliklarining funksiyasi sifatida qarashni talab etadi [1]. Tadqiqot jarayonida Mettler-Toledo firmasining MA204/A rusumli analitik tarozisi tanlandi. Analitik tarozining diskretligi d=0,001g bo‘lib, yuqori aniqlikga tarozi hisoblanadi.Modellashtirish jaroyoning amaliy bosqichi shuni ko‘rsattiki, agar dominant manbalar 30–50% ga kamaytirilsa, umumiy noaniqlik 25–40% gacha pasayishi mumkin, bu esa amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega natija hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: analitik tarozi, dreyf, diskretlik, sezgirlik va korrelyatsiya koeffitsiyenti, eksentriklik nuqtalari va boshqalar.

Аннотация. Обеспечение достоверности результатов измерений при калибровке аналитических весов является одной из основных задач метрологии, поскольку при высокоточных измерениях корректная оценка неопределённости определяет качество получаемого результата. В современной метрологии в качестве международно признанного подхода к оценке неопределённости принят стандарт GUM (Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement), согласно которому результат измерения рассматривается как функция нескольких входных величин [1]. В ходе исследования в качестве объекта была выбрана аналитическая весы модели MA204/A фирмы Mettler-Toledo. Дискретность аналитических весов составляет d = 0,001 г, что характеризует их как высокоточное измерительное средство. Практическая реализация процесса математического моделирования показала, что при снижении доминирующих источников неопределённости на 30–50% суммарная

ISSN 3030-3907

неопределённость может уменьшиться на 25–40%, что представляет значительный практический интерес.

Ключевые слова: аналитические весы, дрейф, дискретность, коэффициент чувствительности и корреляции, эксцентриситет и др.

Abstract. Ensuring the reliability of measurement results during the calibration of analytical scales is one of the main tasks of the field of metrology, since in high-precision measurements, the correct assessment of uncertainty determines the quality of the result. The GUM (Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement) standard is the internationally recognized approach to uncertainty assessment in modern metrology, which requires the measurement result to be viewed as a function of several input quantities [1]. In the course of the research, the analytical scale MA204/A of the firm Mettler-Toledo was selected. The discretization of the analytic scales is d = 0.001 G, which is a scale to high accuracy.The practical stage of the modeling process showed that if the dominant sources are reduced by 30–50%, the overall uncertainty can be reduced by 25–40%, which is a practically significant result.

Keywords: analytical balance, drift, discreteness, sensitivity and correlation coefficient, eccentricity points, etc.

KIRISH.

Analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida o‘lchash natijalarining ishonchliligini ta’minlash metrologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki yuqori aniqlikdagi o‘lchashlarda noaniqlikni to‘g‘ri baholash natijaning sifatini belgilab beradi. Zamonaviy metrologiyada noaniqlikni baholashning xalqaro tan olingan yondashuvi sifatida GUM (Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement) standarti qabul qilingan bo‘lib, u o‘lchash natijasini bir nechta kirish kattaliklarining funksiyasi sifatida qarashni talab etadi [1]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir ta’sir etuvchi omil alohida baholanadi va ularning umumiy ta’siri yig‘indi noaniqlik orqali aniqlanadi. Analitik tarozilar uchun bu masala ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki ular mikrogramm darajasidagi o‘zgarishlarga sezgir bo‘lib, tashqi muhit va texnik omillar ularning ko‘rsatkichiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2]. Shu sababli, analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida noaniqlik manbalarini aniqlash, ularni matematik modellashtirish va umumiy noaniqlikka qo‘shadigan ta’sirini baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kalibrlash jarayonida xatolik quyidagi funksional bog‘liqlik orqali ifodalanadi:

$$E = I - m_{ref}, \qquad (1)$$

ISSN 3030-3907

bu yerda E — o‘lchash xatoligi, I — tarozi ko‘rsatkichi, m_ref — etalon massa hisoblanadi. Ammo amaliyotda o‘lchash jarayoniga bir nechta qo‘shimcha omillar ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun to‘liq matematik model quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$E = I - m_{ref} + \sum_{i=1}^{n} \Delta_i \quad (2)$$

Analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida noaniqlik manbalarini to‘g‘ri identifikatsiya qilish matematik modellashtirishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki noaniqlikni baholash aniqligi bevosita kirish kattaliklarining to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinishi bilan bog‘liq bo‘ladi. GUM talablariga ko‘ra, har bir ta’sir etuvchi omil alohida kirish kattaligi sifatida qaralib, uning standart noaniqligi baholanishi lozim [1]. Mazkur tadqiqotda noaniqlik manbalari ikki asosiy guruhga ajratildi, ya’ni tarozi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq omillar va etalon tosh bilan bog‘liq omillar. Birinchi guruhga tarozining nol nuqtasidagi xatoligi, diskretlik (raqamlashtirish xatoligi), takrorlanuvchanlik va yukning nomarkaziy joylashishi kabi omillar kiritildi, ikkinchi guruhga esa havo muhiti ta’siri, tarozi toshining dreyfi va uning nominal massa noaniqligi kiritildi [2].

Tarozi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq noaniqlik manbalari ichida takrorlanuvchanlik muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘lchash natijalarining tasodifiy tarqalishini ifodalaydi. Takrorlanuvchanlikni baholash uchun bir xil yuklamada bir nechta o‘lchashlar amalga oshirilib, ularning o‘rta arifmetik qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\bar{I} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} I_i \quad (3)$$

bu yerda $\bar{I}$ — o‘rta arifmetik qiymat, I_i — alohida o‘lchash natijalari, n — o‘lchashlar soni hisoblanadi. Keyingi bosqichda o‘lchash natijalarining tarqalishini baholash uchun standart og‘ish quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$s = \sqrt{\frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}(I_i - \bar{I})^2} \quad (4)$$

ushbu qiymat tasodifiy noaniqlikning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, u o‘lchash jarayonining barqarorligini tavsiflaydi [3]. Takrorlanuvchanlikdan kelib chiqadigan standart noaniqlik esa quyidagicha aniqlanadi:

$$u_{rep} = \frac{s}{\sqrt{n}} \quad (5)$$

bu yerda u_{rep} — takrorlanuvchanlikdan kelib chiqadigan standart noaniqlik hisoblanadi. Ushbu formula GUM talablariga muvofiq ravishda Tip A baholash usuliga tegishli bo‘lib, eksperimental ma’lumotlar asosida hisoblanadi [1].

Analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida yukning nomarkaziy joylashishi (eksentriklik) muhim noaniqlik manbasi hisoblanadi, chunki yuk platforma markazidan chetga siljiganda tarozi ko‘rsatkichida qo‘shimcha og‘ishlar yuzaga keladi va bu holat o‘lchash natijasiga sistematik ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2].

ISSN 3030-3907

Ushbu omilni baholash uchun yuk turli nuqtalarda joylashtirilib, markaziy holat bilan solishtiriladi va absolyut xatolik quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta I_i = I_i - I_0 \quad (6)$$

bu yerda ΔI_i — i-nuqtadagi xatolik, I_i — i-nuqtadagi ko‘rsatkich, I_0 — markazdagi ko‘rsatkich hisoblanadi. Eksentriklikdan kelib chiqadigan standart noaniqlik to‘g‘ri burchakli taqsimot qonuniga asoslanib quyidagicha baholanadi:

$$u_{ecc} = \frac{\Delta I_{max}}{\sqrt{3}} \quad (7)$$

bu yerda ΔI_{max} — maksimal aniqlangan farq bo‘lib, u platformaning turli nuqtalaridagi o‘lchash natijalarining eng katta og‘ishini ifodalaydi. Ushbu baholash usuli Tip B toifasiga kiradi va normativ hujjatlarda tavsiya etilgan yondashuv hisoblanadi [3].

Tarozi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq yana bir muhim omil — diskretlik (raqamlashtirish xatoligi) bo‘lib, u o‘lchash natijalarining cheklangan aniqlikda qayd etilishi bilan bog‘liq. Diskretlikdan kelib chiqadigan standart noaniqlik ham to‘g‘ri burchakli taqsimot asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$u_d = \frac{d}{\sqrt{3}} \quad (8)$$

bu yerda **d** — tarozi bo‘linma qiymati hisoblanadi. Ushbu omil ayniqsa kichik massalarni o‘lchashda sezilarli ahamiyatga ega.

Etalon tosh bilan bog‘liq noaniqlik manbalari ichida havo muhiti ta’siri alohida o‘rin tutadi, chunki havo zichligi tufayli yuk va etalon tosh o‘rtasida Arximed kuchi farqi yuzaga keladi. Ushbu ta’sirdan kelib chiqadigan noaniqlik quyidagi munosabat asosida baholanadi:

$$u_{air} = \frac{mpe}{\sqrt{3}} \quad (9)$$

bu yerda **mpe** — ruxsat etilgan maksimal xatolik hisoblanadi. Shu bilan birga, tarozi toshining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi (dreyf) ham hisobga olinadi va u quyidagi ifoda orqali baholanadi:

$$u_{drift} = \frac{D}{\sqrt{3}} \quad (10)$$

bu yerda **D** — dreyf diapazoni bo‘lib, odatda mpe ga teng deb qabul qilinadi [2].Shu tariqa, barcha asosiy noaniqlik manbalari matematik model tarkibiga kiritilib, ularning standart noaniqliklari aniqlanadi.

Aniqlangan barcha noaniqlik manbalarini yagona matematik model doirasida birlashtirish uchun ularning yig‘indi standart noaniqligini hisoblash talab etiladi. Bu esa GUM standartiga muvofiq ravishda kvadratlar yig‘indisi qonuniga asoslanadi [1]. Ushbu qonunga ko‘ra, agar kirish kattaliklari o‘zaro korrelyatsiyalanmagan deb qabul qilinsa, yig‘indi standart noaniqlik quyidagi formula orqali aniqlanadi:

ISSN 3030-3907

$$u_c(E) = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} (c_i \cdot u_i)^2} \quad (11)$$

Mazkur tadqiqotda qabul qilingan matematik model chiziqli bo‘lganligi sababli sezgirlik koeffitsiyentlari quyidagicha aniqlanadi:

$$c_i = \frac{\partial E}{\partial x_i} \quad (12)$$

bu yerda $\mathbf{x_i}$ — kirish kattaliklari hisoblanadi. Agar (2)-formulaga muvofiq model $E = I - m_{ref} + \sum \Delta_i$ ko‘rinishda bo‘lsa, u holda barcha parametrlar uchun sezgirlik koeffitsiyentlari absolyut qiymatda 1 ga teng bo‘ladi. Bu esa hisob-kitoblarni sezilarli darajada soddalashtiradi. Shu sababli (11)-formula quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$u_c(E) = \sqrt{u_{rep}^2 + u_{ecc}^2 + u_d^2 + u_{air}^2 + u_{drift}^2}, \quad (13)$$

ushbu ifoda analitik tarozilarni kalibrlash jarayonida noaniqlikni baholash uchun asosiy hisoblanadi.Keyingi bosqichda kengaytirilgan noaniqlik aniqlanadi, u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$U = k \cdot u_c \quad (14)$$

Odatda **k = 2** deb qabul qilinadi, bu taxminan 95% ishonchlilik darajasiga mos keladi [1]. Ushbu yondashuv metrologiya amaliyotida keng qo‘llanilib, o‘lchash natijalarining ishonchli intervalini aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa, barcha noaniqlik manbalari yagona matematik model doirasida birlashtirilib, ularning umumiy ta’siri baholanadi.

Matematik modelni amaliy jihatdan qo‘llash uchun har bir noaniqlik manbasi bo‘yicha aniq hisob-kitoblar amalga oshirildi va ularning qiymatlari eksperimental ma’lumotlar asosida baholandi. Tadqiqotda 200 g etalon tosh bilan o‘tkazilgan 10 ta o‘lchash natijalari asosida takrorlanuvchanlik aniqlandi va standart og‘ish **s = 0.000042 g** ekanligi qayd etildi. Ushbu qiymatdan kelib chiqib, (5)-formulaga muvofiq standart noaniqlik quyidagicha hisoblandi:

$$u_{rep} = 0.000042 / \sqrt{10} = 0.000013 \text{ g} \quad (15)$$

ushbu natija tasodifiy noaniqlikning juda kichik ekanligini ko‘rsatadi va tarozining yuqori barqarorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Yukning nomarkaziy joylashishi ta’siri eksperimental ravishda baholanib, maksimal farq $\mathbf{\Delta I_{max}}$ = **0,0005 g** ekanligi aniqlandi va (7)-formulaga muvofiq standart noaniqlik quyidagicha topildi:

$$u_{ecc} = 0.0005 / \sqrt{3} = 0.000289 \text{ g} \quad (16)$$

bu qiymat umumiy noaniqlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Diskretlik uchun **d = 0,0001 g** deb qabul qilinib, (8)-formulaga asosan:

$$u_d = 0.0001 / \sqrt{3} = 0.000058 \text{ g} \quad (17)$$

ISSN 3030-3907

qiymati olindi. Etalon tosh bilan bog‘liq noaniqlik manbalari uchun **mpe = 0,0003 g** deb qabul qilinib, (9) va (10)-formulalarga muvofiq:

$$u_{air} = 0.000173 \text{ g}, u_{drift} = 0.000173 \text{ g} \quad (18)$$

qiymatlar aniqlandi. Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, takrorlanuvchanlikdan kelib chiqadigan noaniqlik eng kichik ulushga ega bo‘lib, asosiy ta’sir eksentriklik va dreyf hissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa keyingi tahlil bosqichida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Aniqlangan barcha standart noaniqliklarni yagona model doirasida birlashtirish uchun yig‘indi standart noaniqlik (13)-formulaga muvofiq hisoblandi. Bu jarayonda har bir manbaning kvadratik ulushi hisobga olindi, chunki aynan ushbu yondashuv GUM standartida tavsiya etilgan va u noaniqliklarni mustaqil manbalar sifatida qarashni nazarda tutadi [1]. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda oldingi bosqichda aniqlangan qiymatlar qo‘llanildi, ya’ni:

u_{rep} = 0,000013 g,u_{ecc} = 0,000289 g, u_d = 0,000058 g, u_{air} = 0,000173 g,u_{drift} = 0,000173 g.

Ushbu qiymatlar (13)-formulaga qo‘yilib, yig‘indi standart noaniqlik quyidagicha aniqlandi:

$$u_c = \sqrt{[(0.000013)^2 + (0.000289)^2 + (0.000058)^2 + (0.000173)^2 + (0.000173)^2]} \quad (19)$$

hisoblash natijasida: u_c = 0.00034 g qiymati olindi. Ushbu natija analitik tarozining umumiy standart noaniqligini ifodalaydi va u barcha manbalarning yig‘indi ta’sirini qamrab oladi.

Keyingi bosqichda kengaytirilgan noaniqlik (14)-formulaga muvofiq hisoblandi:

$$U = 2*0.00034 = 0.00068 \text{ g} \quad (20)$$

bu yerda **k = 2** deb qabul qilingan bo‘lib, bu taxminan 95% ishonchlilik darajasiga mos keladi [1]. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, umumiy noaniqlikning asosiy qismi eksentriklik va dreyf hissasiga to‘g‘ri keladi, chunki ularning kvadratik ulushi boshqa manbalarga nisbatan ancha katta hisoblanadi. Takrorlanuvchanlik esa juda kichik qiymatga ega bo‘lib, uning ta’siri deyarli sezilmaydi. Bu esa analitik tarozilarda asosiy muammo tasodifiy emas, balki sistematik omillar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, hisob-kitob natijalari matematik modelning to‘g‘ri tuzilganligini va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi.

Yig‘indi standart noaniqlik aniqlanganidan so‘ng, har bir manbaning umumiy noaniqlikka qo‘shadigan ulushini baholash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon **noaniqlik budjeti tahlili** deb ataladi va u o‘lchash jarayonida

ISSN 3030-3907

qaysi omillar ustun ta’sirga ega ekanligini aniqlash imkonini beradi [1]. Ushbu maqsadda har bir manbaning nisbiy ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\delta_i = (u_i^2 / u_c^2)\ 100\% \qquad (21)$$

bu yerda $\boldsymbol{\delta_i}$ — i-manbaning ulushi,$\boldsymbol{u_i}$ — alohida noaniqlik,$\boldsymbol{u_c}$ — yig‘indi standart noaniqlik hisoblanadi.Hisob-kitob natijasida eksentriklik uchun: $\delta_{ecc} = (0.000289)^2 / (0.00034)^2 * 100\% \approx 72\%$ (22), dreyf uchun:$\delta_{drift} \approx 26\%$ (23)

Diskretlik uchun taxminan 3% va takrorlanuvchanlik uchun 0,05% atrofida qiymatlar olindi. Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, umumiy noaniqlikning asosiy qismi eksentriklik va dreyf hissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa ularni dominant manbalar sifatida qarash mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, takrorlanuvchanlik va diskretlik kabi omillar juda kichik ulushga ega bo‘lib, ularning ta’siri amalda deyarli sezilmaydi. Bu holat GUM talablariga mos keladi, chunki noaniqlikni kamaytirishda asosiy e’tibor katta ulushga ega manbalarga qaratilishi lozim [1]. Shu tariqa, noaniqlik budjeti tahlili natijasida o‘lchash jarayonidagi asosiy muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, noaniqlikni kamaytirish samaradorligini baholash uchun dominant manbalar 30–50% ga kamaytirilsa, umumiy noaniqlik 25–40% gacha pasayishi mumkin, bu esa amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega natija hisoblanadi. Bu holat modellashtirish natijalarining amaliy qo‘llanilishini yanada asoslaydi va ularning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari asosida laboratoriyalarda noaniqlikni baholash va nazorat qilish bo‘yicha standartlashtirilgan usullarni joriy etish mumkin bo‘lib, bu o‘lchash natijalarining xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlaydi [3]. Shu tariqa, ishlab chiqilgan yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori ahamiyatga ega bo‘lib, uni metrologiya amaliyotida keng qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. JCGM 100:2008. O‘lchash ma’lumotlarini baholash — o‘lchash noaniqligini ifodalash bo‘yicha qo‘llanma (GUM). Xalqaro metrologiya qo‘mitalari, 2008.
2. EURAMET cg-18 (2015). Avtomatik bo‘lmagan tarozilarni kalibrlash bo‘yicha qo‘llanma. Yevropa milliy metrologiya institutlari uyushmasi.
3. OIML R 111-1:2004. E1, E2, F1, F2, M1, M2, M3 sinf tarozi toshlari — metrologik va texnik talablar. Xalqaro qonuniy metrologiya tashkiloti.
4. ISO/IEC 17025:2017. Sinov va kalibrlash laboratoriyalarining vakolatliligiga qo‘yiladigan umumiy talablar. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti.
5. BIPM. Xalqaro birliklar tizimi (SI). 9-nashr. Xalqaro o‘lchovlar va tarozilar byurosi, 2019.

ISSN 3030-3907

6. Koks M.G., Harris P.M. Metrologiyada eng yaxshi amaliyot bo‘yicha qo‘llanma №6: Noaniqlikni baholash. Milliy fizika laboratoriyasi, Buyuk Britaniya, 2006.
7. Willink R. O‘lchash noaniqligi va ehtimollik nazariyasi. Cambridge University Press, 2013.
8. Bell S. O‘lchash noaniqligi bo‘yicha boshlang‘ich qo‘llanma. Milliy fizika laboratoriyasi, 1999.
9. Taylor J.R. Xatoliklar tahliliga kirish: fizik o‘lchashlarda noaniqliklar. University Science Books, 1997.
10. Rabinovich S.G. O‘lchash xatoliklari va noaniqliklari: nazariya va amaliyot. Springer, 2005.
11. Ku H.H. Xatoliklarni tarqatish formulalaridan foydalanish bo‘yicha izohlar. Milliy standartlar byurosi jurnali, 1966.
12. EURAMET cg-13 (2015). Temperatura sensorlarini kalibrlash bo‘yicha qo‘llanma.
13. Bich W., Cox M., Harris P. “O‘lchash noaniqligini ifodalash bo‘yicha qo‘llanma” rivojlanishi. *Metrologia* jurnali, 2006.
14. ISO 9001:2015. Sifat menejmenti tizimlari — talablar. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti.
15. OIML D 28:2004. Havoda tortish natijasining shartli qiymati. Xalqaro qonuniy metrologiya tashkiloti.

ISSN 3030-3907

FURFUROL ASOSIDA ORGANIK-NOORGANIK GIBRID IONITLAR SINTEZI, TUZILISHI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINING TADQIQI

Axmedov Vohid Nizomovich
Professor, Buxoro davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Jamilova Niginabonu Qobil qizi
Doktorant(DSc), Buxoro davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Bobomurodova Nafisa Bobomurod qizi
Talaba, Buxoro davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
E-mail: Jamilova0807@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada organik sintezda yuqori asosli sistemalarning qo‘llanilishi va ularning reaksion faollikka ta’siri o‘rganildi. Yuqori asosli muhitlarda anionlarning kam sorbsiyalanishi hisobiga ularning asoslik xossasi ortishi va kompleks hosil bo‘lish mexanizmi yoritildi.Tadqiqotda vinil efirlar va ularning polimer kimyosidagi ahamiyati ko‘rib chiqildi. Molekulyar massa kreoskopik usul bilan aniqlanib, ionitlarning mexanik mustahkamligi baholandi.Shuningdek, 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 ning akril kislota bilan sopolimerlanishi o‘rganilib, reaksiya unumining harorat va monomer nisbatiga bog‘liqligi aniqlangan. Regressiya tahlili natijalarining ishonchliligi tasdiqlangan.Umuman olganda, tadqiqot polimer sintezi jarayonlarini optimallashtirish va ularning kinetik qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yuqori asosli sistemalar, organik sintez, vinil efirlar, polimerlanish, sopolimerlanish, kreoskopik usul, molekulyar massa, ionitlar, mexanik mustahkamlik, akril kislota, radikal initsiatsiya, reaksiya kinetikasi, polimer materiallar, yuqori asoslik muhit.

Аннотация. В статье изучено применение высокоосновных систем в органическом синтезе и их влияние на реакционную активность. Показано, что в высокоосновных средах вследствие слабой сорбции анионов усиливаются их основные свойства и раскрывается механизм комплексообразования. Рассмотрены виниловые эфиры и их значение в химии полимеров. Молекулярная масса определялась криоскопическим методом, а также оценивалась механическая прочность ионитов. Кроме того, исследована сополимеризация 1-(фуранил-2)пентен-4-ин-2-ол-1 с акриловой кислотой, установлена зависимость выхода реакции от температуры и соотношения мономеров. Подтверждена достоверность результатов регрессионного анализа. В целом исследование направлено на

ISSN 3030-3907

оптимизацию процессов синтеза полимеров и выявление их кинетических закономерностей.

Ключевые слова: высокоосновные системы, органический синтез, виниловые эфиры, полимеризация, сополимеризация, криоскопический метод, молекулярная масса, иониты, механическая прочность, акриловая кислота, радикальная инициация, кинетика реакции, полимерные материалы, высокоосновная среда.

Abstract. The article investigates the application of highly basic systems in organic synthesis and their effect on reaction activity. It is shown that in highly basic media, due to the weak sorption of anions, their basic properties are enhanced and the mechanism of complex formation is revealed. Vinyl ethers and their significance in polymer chemistry are also considered. Molecular mass was determined by the cryoscopic method, and the mechanical strength of ion-exchange resins was evaluated. In addition, the copolymerization of 1-(furanyl-2)penten-4-in-2-ol-1 with acrylic acid was studied, and the dependence of reaction yield on temperature and monomer ratio was established. The reliability of the regression analysis results was confirmed. Overall, the study is aimed at optimizing polymer synthesis processes and identifying their kinetic regularities.

Keywords: highly basic systems, organic synthesis, vinyl ethers, polymerization, copolymerization, cryoscopic method, molecular mass, ion-exchange resins, mechanical strength, acrylic acid, radical initiation, reaction kinetics, polymer materials, highly basic medium.

KIRISH.

Keyingi yillarda organik sintezda yuqori asosli sistemalar qo‘llanilishiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Yuqori asosli sistema, kompleks asos bo‘lib, kuchli ionli Lyuis asoslari hosil qiladi. Ishqoriy metall ioni kompleks hosil qilishi natijasida anion bilan kam solvatlanadi, bunda anionning asoslik xossasi ortishiga sabab metall kationi kompleks kation hosil qiladi va zaryadning delokallanishi hisobiga dissotsilanish ortadi. Kompleks hosil qiluvchi ligandlar sifatida elektronodonor, dipolyar aproton erituvchilar – sulfoksidlar, aminlar, ammiak, poliefirlar qo‘llanilishi mumkin [1].

Spirtlarning vinil efirlari polimerlar kimyosi, organik sintez va boshqa ko‘pgina sohalarda ishlatiladi va qimmatli mahsulot hisoblanadi. Adabiyotlarda tadqiqot obyekti sifatida bir necha funksional guruhga ega bunday birikmalarning olinish va qo‘llanilish sohalarini o‘rganish ilm-fan, shuningdek sanoat uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bu sohada olimlar tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan [2].

Birinchi marta 1977 yilda B.A.Trofimov yuqori asosli sistemalarga quyidagicha ta’rif berdi: yuqori asosli sistema deganda kuchli asos va erituvchi

ISSN 3030-3907

yoki reagentdan tashkil topgan, kationni o‘ziga bog‘lab olish xossasiga ega bo‘lgan muhit tushuniladi. Keyinchalik bu tushuncha uglerod-uglerodli uchbog‘ tutgan birikmalar ishtirokidagi klassik reaksiyalarga sistematik ravishda qo‘llanildi. Bu tushuncha yuqori asosli sistemalarni «ko‘zgudagi aksi» kabi yuqori kislotali sistemalarga ham mos keladi. Yuqori asos-ion holatdagi kuchli asosni (Brensted asoslari) ligand bilan kompleksidir. Bu asos kationlar bilan (Lyuis asoslari) ta’sirlashganda kam solvatlangan anionlar holatiga o‘tadi (gidroksil guruhi tutmagan qutbli erituvchilar muhitida). Yuqori asoslarga quyidagi Gammet kislotalari (H) qiymati 18,5 yuqori bo‘lgan funksiyaga ega bo‘lgan sistemalar kiradi. Muhitga kislotali xossa beruvchi gidroksil guruhi tutgan erituvchilarda (suv va spirtlarda) bunday yuqori asosli sistemalar hosil qilib bo‘lmaydi [3].

Molekulyar massani aniqlash, sinov moddasi qo‘shilganda sof erituvchining qotish haroratining o‘zgarishiga asoslanadi. Avval, sof erituvchining muzlash harorati aniqlanadi. Erituvchi sifatida benzol ishlatilgan, uning $T_{suyuq.}$ = 5,51 ℃, kreoskopik doimiysi K = 5,069. Muzlash haroratini aniqlash 2.1-rasmda ko‘rsatilgan qurilmada amalga oshiriladi. Muzlash haroratini aniqlash uchun uzun probirkaga (2) 0,0001 g aniqlikda o‘lchangan 0,1-0,2 g miqdorda sinov moddasidan solinadi. Erituvchi (benzol) esa sinovdagi modda massasidan 25 marta ko‘p miqdorda solinadi. Shundan so‘ng probirkaga termometr (4) va aralashtirgich (3) joylashtiriladi va tiqin bilan mahkamlanadi ammo termometr idish devorlariga tegmasligi va termometr uchi eritmada bo‘lishi kerak. So‘ngra probirka muzli vannaga joylashtiriladi(1). Sinov moddasining eritmasini bir tekis sovitish uchun aralashtirgich (3) bilan aralashtiriladi. Kristallar paydo bo‘lgach aralashtirish to‘xtatiladi. Harorat muntazam ravishda (har 10 soniyada) kuzatiladi. Aniqlangan muzlash haroratiga simob ustuni uchun tuzatma kiritish kerak, bu quyidagi formulaga ko‘ra hisoblanadi:


$$\Delta t = k \bullet h \bullet (t - t_1),$$

bu yerda k - termometr naychasidagi simobning aniq hajmli kengayish koeffitsienti, harorat 10 ℃ ga oshganda, u 0,000159 ℃ sifatida qabul qilinadi; h – probirkadan chiqadigan simob ustuni balandligi, termometr shkalasi darajasida ifodalanadi; t - topilgan muzlash harorati; t_1 - termometrga rezina bilan biriktirilgan yordamchi termometr bilan aniqlanadigan simob ustunining o‘rtacha harorati, yordamchi termometrning simob ustunining o‘rtasida joylashgan.
Molekulyar massani hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$M = \frac{5{,}069 \cdot 1000 \cdot m}{m_b \cdot (t_b - (t_m + \Delta t))}$$

ISSN 3030-3907

5. Makhmudov M.Zh., Narmetova G.R. State and prospects of deep processing of gas sulfur in Uzbekistan // Uzbek Chemical Journal. – 2021. – No. 3. – P. 64–72.
7. Chung W.J., Griebel J.J., Kim E.T., Yoon H., Simmonds A.G., Ji H.J., Dirlam P.T., Glass R.S., Wie J.J., Nguyen N.A., Guralnick B.W., Park J., Somogyi Á., Theato P., Mackay M.E., Sung Y.E., Char K., Pyun J. The use of elemental sulfur as an alternative feedstock for polymeric materials // Nature Chemistry. – 2013. – Vol. 5, No. 6. – P. 518–524. – DOI: 10.1038/nchem.1624.
8. Pyun J. Inverse Vulcanization of Elemental Sulfur: From Bench to Boardroom // Angewandte Chemie International Edition. – 2021. – Vol. 60, No. 23. – P. 12640–12652. – DOI: 10.1002/anie.202014649.
9. Atakhanov A.A., Mamadrahimov M., Rashidova S.Sh. Chemical composition and structural features of cellulose and its derivatives obtained from cotton stalks and husks // Polymer Science, Series D. – 2022. – Vol. 15, No. 2. – P. 245–253. – DOI: 10.1134/S1995421222020038.
10. Azimov S.Kh., Nurmonov S.E., Baltabaeva U.R., Kodirov O.Sh. Optimization of the synthesis of sulfur-cellulose composites by inverse vulcanization: influence of temperature, time and component ratio // Chemical Technology. – 2026. – No. 1. – P. 79–86.

ISSN 3030-3907

11. Baltabaeva U.R., Nurmonov S.E., Kodirov O.Sh. Method for preparing cellulose-containing raw material (cotton husk) for the synthesis of sulfur-cellulose composites // Fergana Journal. – 2026. – No. 1. – P. 65–71.
12. Atakhanov A.A., Mamadrahimov M., Rashidova S.Sh. Chemical composition and structural features of cellulose and its derivatives obtained from cotton stalks and husks // Polymer Science, Series D. – 2022. – Vol. 15, No. 2. – P. 245–253. – DOI: 10.1134/S1995421222020038.
13. GOST 127.1-93. Technical sulfur. Specifications.
14. Azimov S.Kh., Nurmonov S.E., Baltabaeva U.R., Kodirov O.Sh. Optimization of the synthesis of sulfur-cellulose composites by inverse vulcanization: influence of temperature, time and component ratio // Chemical Technology. – 2026. – No. 1. – P. 79–86.
15. EuroVector EA3000 Operation Manual. – EuroVector S.p.A., 2018.
16. Socrates G. Infrared and Raman Characteristic Group Frequencies: Tables and Charts. – 3rd ed. – Chichester: Wiley, 2004. – 366 p.
17. Kuptsov A.H., Zhizhin G.N. Handbook of Fourier Transform Raman and Infrared Spectra of Polymers. – Amsterdam: Elsevier, 1998. – 704 p.
18. ICDD PDF-2 Database. – International Centre for Diffraction Data, 2020.
19. Segal L., Creely J.J., Martin A.E., Conrad C.M. An empirical method for estimating the degree of crystallinity of native cellulose using the X-ray diffractometer // Textile Research Journal. – 1959. – Vol. 29, No. 10. – P. 786–794.
20. Goldstein J.I., Newbury D.E., Michael J.R., Ritchie N.W.M., Scott J.H.J., Joy D.C. Scanning Electron Microscopy and X-ray Microanalysis. – 4th ed. – New York: Springer, 2017. – 550 p.
21. Kissinger H.E. Reaction kinetics in differential thermal analysis // Analytical Chemistry. – 1957. – Vol. 29, No. 11. – P. 1702–1706.
22. Student. The probable error of a mean // Biometrika. – 1908. – Vol. 6, No. 1. – P. 1–25. – DOI: 10.1093/biomet/6.1.1.

ISSN 3030-3907

METALLARGA MEXANIK ISHLOV BERISHDA ADAPTIV BOSHQARUV TIZIMLARINI QO‘LLASH

R.S. Ulug‘xojayev
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
E-mail: ruzihoja.ulughojaev@gmail.com
M.S.Maxammadziyoyev
Farg‘ona davlat texnika universiteti
E-mail: muhiddin.isroilov.96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tajriba ishida metallarga mexanik ishlov berish jarayonida kesuvchi asbob holatini tekshirish uchun simulyatsion model ishlab chiqildi. Model MATLAB muhitida yaratilgan bo‘lib, unda kesish jarayonida yuzaga keladigan mexanik bosim, vibratsiya va akustik signallar dinamikasi tahlil qilindi. Simulyatsiya natijasida kesuvchi asbob yedirilishi ortgani mexanik kuchning ortishi tebranishni kuchayishi, tovush signallarini o‘zgargani korindi. Bu model yordamida kesish jarayonini turg‘unligini va kesuvchi asbob holatini ishlov berish jarayonida tekshirib turish imkonini berdi. Tajriba natijasida adabtiv boshqaruv tizimi uchun tekshirish meyorlarini aniqlash va ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtishda foydali usul sifatida qaralishi mumkin.

Kalit so‘zlar: metall kesish, adaptiv boshqaruv tizimi, asbob yeyilishi, mexanik bosim, vibratsiya signali, akustik emissiya, MATLAB simulyatsiyasi, diagnostik tahlil, kesish kuchlari, energetik parametrlar.

Abstract. In this experimental work, a simulation model was developed to check the condition of the cutting tool during the mechanical processing of metals. The model was created in the MATLAB environment, in which the dynamics of mechanical pressure, vibration and acoustic signals arising during the cutting process were analyzed. As a result of the simulation, it was found that the increase in the wear of the cutting tool increased the mechanical force, increased vibration, and changed the sound signals. This model made it possible to check the stability of the cutting process and the condition of the cutting tool during the processing. The results of the experiment can be considered as a useful method for determining the inspection criteria for an adaptive control system and digitizing the production process.

Keywords: metal cutting, adaptive control system, tool wear, mechanical pressure, vibration signal, acoustic emission, MATLAB simulation, diagnostic analysis, cutting forces, energy parameters.

Аннотация. В данной экспериментальной работе разработана имитационная модель для контроля состояния режущего инструмента при механической обработке металлов. Модель создана в среде MATLAB, в которой проанализирована динамика механического давления, вибрации и

акустических сигналов, возникающих в процессе резания. В результате моделирования установлено, что увеличение износа режущего инструмента приводит к увеличению механической силы, вибрации и изменению звуковых сигналов. Данная модель позволила проверить стабильность процесса резания и состояние режущего инструмента в процессе обработки. Результаты эксперимента могут рассматриваться как полезный метод для определения критериев контроля для адаптивной системы управления и цифровизации производственного процесса.

Ключевые слова: обработка металлов, адаптивная система управления, износ инструмента, механическое давление, вибрационный сигнал, акустическая эмиссия, моделирование в MATLAB, диагностический анализ, силы резания, энергетические параметры.

KIRISH.


Mexanik ishlov berish jarayonida kesish kuchlari va asbobning holati doimiy o‘zgaruvchan bo‘lib, tashqi omillar (mikro tebranish, materialning o‘zgarishi va h.k.) ta’siri ostida yuzalar sifatida ahamiyatli og‘ishlar kuzatiladi. Raqamli dasturiy boshqariluvchi (CNC) dastgohlarda yuqori aniqlikni ta’minlash uchun jarayon parametrlarini real vaqtda kuzatish va avtomatik sozlash lozim. Kesish asbobining eskirishi va material chiqindilari shakllanishi kesish kuchlari va vibratsiya signallariga aks etadi. Masalan, kesish kuchi o‘rtacha va tebranish amplitudalari asbob holatiga bog‘liq ravishda o‘zgarib, diagnostika signaliga aylanishi mumkin. Shuning uchun adaptiv boshqaruvda diagnostik signallar (kesish kuchi, vibratsiya, akustik emissiya va boshqalar) o‘lchanib, jarayon parametrlarini mos ravishda boshqarish zarurati tug‘iladi.

METODOLOGIYA. Metodologiyada tekshirish maqsadida uchta keskich parametrlari tanlab olindi: (1) Geometrik parametrlar – kesuvchi asbobning eskirishiyani kesuvchi yuzani baholovchi qiymatlar (masalan, kesuvchi asbobning oldingi yuzasi, ketingi yuzasi qirindi qalinligi, detal yuzasi va g‘adir-budurlik kabi sifat ko‘rsatkichlari). Asbob eskirganda uning o‘lchamlari o‘zgaradi, o‘simta va yedirilishlar paydo bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar geometrik qiymatlari bo‘yicha aniq o‘lchanishi mumkin va kesish jarayonini optimallashtirish uchun foydalanilaniladi. (2) Energetik parametrlar – kuch, quvvat va tebranish signallari. Kesish jarayonida asbobga ta’sir qiluvchi kesish kuchlari (Px, Py, Pz komponentalari) va akustik-texnik signallar (tebranish, akustik emissiya) kesish rejimining energetik ko‘rsatkichi bo‘lib, tizim samaradorligini ko‘rsatadi. Masalan, tebraninsh amplitudasi va chastota qiymatlari o‘lchanib, past, o‘rta va yuqori chastota diapazonidagi tebranishlarni tahlil qilish mumkin. Turli chastotali tebranishlar kesish jarayonidagi

ISSN 3030-3907

keskgichning holatiga (kesuvchi asbobning radial urishi, plastiklik deformatsiya va akustik emissiya) mos keladi.


• **Geometrik yondashuv:** Kesuvchi asbobning real o‘lchamlari va qirindi shakli o‘lchanib, eskirish darajasi baholanadi. Masalan, kesuvchi asbobning orqa yuzidagi yeyilish darajasi o‘lchanib, kesish kuchidagi o‘zgarishlar xaritasi aniqlanadi. Geometrik qiymatlar detal aniqligi va sirt sifati bilan bevosita bog‘liq.(1-rasm) Har uchta kuch Px, Py, Pz yeyilish ortishi bilan qanday o‘sishini ko‘rsatilgan.



1-rasm: Asbob yeyilishi – kesish kuchlari grafigi

• **Energetik yondashuv:** Kesish jarayonining kesish kuchi ko‘rsatkichlarini ishlatadi. Tebranish va akustik signallarni o‘lchash orqali jarayon baholanadi. Yuqori chastotali signal kesuvchi asbobning orqa yuzasi va detal yuzasi orasidagi ishqalanishdan kelib chiqadi, o‘rta chastotali tebranish – dastgoh va asbobning o‘zaro tebranishlardan; past chastotali signallar esa asosan mexanik xarakatda paydo bo‘ldi. Bu usullar kesish jarayoning o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi.(2-rasm) Yeyilish ortgan sari tizim energiya sarfini oshadi, bu **energetik tahlil** uchun asosiy mezon.


ISSN 3030-3907




2-rasm. Energetik parametr (Px × h₃) grafigi.

Ilmiy va amaliy natijalar. Eksperimental tadqiqotlarda 18X12H10T po‘latida v=102 m/min tezlikda kesish jarayonida olinadigan signallar tahlil qilindi. O‘zgarmas surishda qirindi h3 parametri ortishi bilan Px va Pz kuch qiymatlari aniq pasayish kuzatildi. Bu kuzatish yuzasi qizishi va asbob eskirishi tufayli ishqalanish kamayishi bilan izohlanadi. Shakllangan grafiklarda xar ikki holatda kesish kuchi va asbob yeyilishi o‘rtasida yaqin funksiya aloqalari aniqlangan.

Masalan, 3-rasmda ko‘rsatilgan texnologik jarayonda kesish asbobida yuzaga kelgan mexanik bosim o‘lchanmoqda. Vibratsiya va akustik signallarni sensorlar orqali o‘lchash orqali real vaqtda analiz qilish mumkin. Tahlillarimda o‘lchangan ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda taqdim etish aniq natijalar berdi: tebranish spektaridagi o‘zgarishlar (o‘rta chastota diapazoni) asbob eskirishi bilan jiddiy farqlanadi, bu esa boshqaruv signali sifatida qo‘llanilmoqda.



a) **b)**



ISSN 3030-3907

c)

3-rasm a) Asbobdagi mexanik bosim (Px) o‘zgarishi b) Tebranish signal (o‘rta chastota diapazoni) c) Akustik signal (yuqori chastota) ni vaqt bo‘yicha chizadi.

Quyidagi 1-jadvalda diagnostika uchun asosiy signallar va ularning o‘lchash usullari keltirilgan. Ular asosida o‘tkazilgan modellashtirish natijalariga ko‘ra, signal qiyatini aniqligi boshqaruv takrorlanuvchanligi va ishlov berish yuza sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

1-Jadval

Diagnostik parametr	O‘lchash usuli	Foydasi (texnologik ma’lumot)
Kesish kuchi (Px, Py, Pz)	Kuch o‘lchagich / strain-gauge datchiklari	Jarayon barqarorligi va sirt qiymatlari nazorat qilish; kuch o‘zgarishlari asosida rejimni avtomatik sozlash.
Asbobning mexanik o‘lchamlari	Koordinata o‘lchash mashinasi yoki vizual inspeksiya	Asbobning eskirish darajasi (o‘lcham o‘zgarishi, o‘simta) aniqlanib, keyingi kesish parametrlarini optimallashtirish uchun qo‘llaniladi.
Tebranish signallari	Tezlik akselerometri; vibratsiya sensorlari	Dastgoh va asbobning dinamik reaksiyasini aks ettiradi; o‘rta chastota diapazonida qirindilar bilan bog‘liq turli effektlar aniqlanadi.
Akustik emissiya (yuqori chastota)	Mikrofon / akustik sensor	Detal va asbob yuzasi o‘rtasidagi mikroskopik o‘zaro ta’sirlar (plastik deformatsiya, qirindi) to‘g‘risida signallar beradi.

Natijalarda olingan grafik va jadval ma’lumotlariga ko‘ra, har bir qiymat o‘lchanishi jarayonning samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash va boshqaruv signalini aniqlashda muhim ekanligi aniqlandi. Misol uchun, 1-jadvaldagi ma’lumotlar diagnostik belgi sifatida Px kuchining aniqligini ko‘rsatadi: Px qiymatining real vaqt kuzatuvi kesish jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarni yuqori ishonchlilik bilan tasdiqlaydi. Shuningdek, qattiq tokchiliklarda (40 GHz tebranish chastotasi) yuzaga keladigan vibratsiya siganllarining kuchayishi yuzasining pürüzlüligi bilan yaqin bog‘liqligi aniqlangan.

XULOSA. Mazkur izlanishda aniqlanganidan ko‘rinib turibdiki, kesish jarayonidagi diagnostik signallar (kesish kuchi, asbob o‘lchamlari, vibratsiya va akustik signallar) asosida real vaqt boshqaruvini tashkil etish adaptiv tizim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tahlillar natijasida olingan tavsiyalar

ISSN 3030-3907

shuni ko‘rsatadiki, kesish kuchi va tebranish signallari eng yuqori informativlikka ega ko‘rsatkichlar bo‘lib, ularning yordamida kesuvchi asbob eskirishini va yuza tozaligini avtomatik boshqarish mumkin. Shuningdek, kesuvchi asbob mexanik o‘lchamlarini doimiy monitoring qilish orqali boshqaruv signali sifatida qo‘shimcha qiymat ko‘rinishida kiritish tavsiya etildi. Ushbu parametrlarga asoslangan algoritm joriy etilsa, kesish tezligi va surishni optimal ravishda sozlash orqali mahsulot yuza tozaligi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Umumiy holda, ko‘p kanal diagnostika signallari bilan integratsiyalashgan adaptiv boshqaruv tizimi joriy etilishi metal kesish texnologiyasida yuqori sifat va unumdorlikka erishishda muhim omil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koren, Y., Heisel, U., Jovane, F., Moriwaki, T., Pritschow, G., Ulsoy, A.G., Van Brussel, H. (1999). Reconfigurable Manufacturing Systems. CIRP Annals - Manufacturing Technology, 48(2), 527–540.
2. Altintas, Y. (2012). Manufacturing Automation: Metal Cutting Mechanics, Machine Tool Vibrations, and CNC Design. Cambridge University Press.
3. Tlusty, J., Smith, S. (1983). Dynamics of Cutting Processes. CIRP Annals, 32(2), 583–589.
4. Rao, S.S. (2019). Mechanical Vibrations. Pearson Education.
5. Biermann, D., Denkena, B., Litwinski, K.M. (2021). Process Monitoring in Metal Cutting. Springer.
6. Pritschow, G., Denkena, B., Altintas, Y. (2008). Intelligent Machine Tools for Smart Manufacturing. Production Engineering, 2(4), 377–390.
7. Davletov, M.S., Norov, A.S., Rakhimov, A.M. (2020). Monitoring of Cutting Process Based on Vibration and Acoustic Emission Parameters. Journal of Engineering Physics, 93(5), 1210–1217.
8. Ochildiev, R. & Mukhiddinov, M. (2023). Metall kesishda adaptiv boshqaruv tizimlarida diagnostik signallarni tahlil qilish. Toshkent: TSTU Ilmiy Texnik Jurnali, 7(2), 44–52.
9. ISO 8688-1:1989. Tool Life Testing in Milling – Part 1: Face Milling.
10. Moriwaki, T. (2008). Multi-Sensor Monitoring Systems for Intelligent Machining. CIRP Annals, 57(2), 395–398.

ISSN 3030-3907

ELEKTR DVIGATELI TIZIMLARINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TEBRANISHGA ASOSLANGAN TEXNIK HOLAT MONITORING.

Ramazonov Bahodir G‘olib o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, assistent;
E-mail: bahodirmagistr2021@gmail.com

Annotatsiya. Elektr dvigatellari jahon sanoatida elektr energiyasi iste’molining sezilarli ulushini tashkil etadi. Ularning ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan mexanik va elektromagnit nosozliklar tebranish darajasining ortishiga olib keladi, bu esa qo‘shimcha energiya yo‘qotishlari hamda tizimning umumiy samaradorligi pasayishiga sabab bo‘ladi. Mazkur maqolada elektr dvigatelning texnik holatini baholash va energiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tebranishga asoslangan holat monitoringi usuli taklif etiladi. Tebranish signallari xususiyatlarini elektr energiyasi iste’moli ko‘rsatkichlari bilan integratsiyalash hamda adaptiv boshqaruv strategiyalarini qo‘llash orqali monitoring–tahlil–boshqaruvning yagona integratsiyalashgan tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tebranish diagnostikasi asosida nosozliklarni erta aniqlash ekspluatatsion samaradorlikni oshirish va energiya sarfini 30 % gacha kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Elektr dvigateli, tebranishga asoslangan monitoring, holat diagnostikasi, energiya samaradorligi, signal tahlili, nosozliklarni erta aniqlash, podshipnik nuqsonlari, rotor nomutanosibligi, quvvat koeffitsiyenti, energiya iste’moli, adaptiv boshqaruv, sanoat energetikasi.

Аннотация. Электродвигатели составляют значительную долю потребления электрической энергии в мировой промышленности. Возникающие в процессе эксплуатации механические и электромагнитные неисправности приводят к увеличению уровня вибраций, что вызывает дополнительные энергетические потери и снижение общей эффективности системы. В данной статье представлен метод вибрационного мониторинга состояния, направленный на оценку технического состояния электродвигателя и повышение энергоэффективности. Предложена интегрированная система мониторинга, анализа и управления, основанная на взаимосвязи характеристик вибрационных сигналов с показателями потребления электроэнергии, а также применении адаптивных стратегий управления. Результаты исследования показывают, что раннее выявление неисправностей на основе вибрационной диагностики позволяет повысить эксплуатационную эффективность и снизить энергопотребление до 30 %.

Ключевые слова:Электродвигатель, вибрационный мониторинг, диагностика состояния, энергоэффективность, анализ сигналов вибрации,

раннее выявление неисправностей, дефекты подшипников, дисбаланс ротора, коэффициент мощности, анализ энергопотребления, адаптивное управление, промышленная энергетика.

Abstract. Electric motors constitute a significant share of global industrial electricity consumption. Mechanical and electromagnetic faults arising during operation lead to an increase in vibration levels, which in turn causes additional energy losses and a reduction in overall system efficiency. This paper presents a vibration-based condition monitoring approach aimed at assessing the technical state of electric motors and improving energy efficiency. An integrated monitoring–analysis–control system is proposed based on the correlation between vibration signal characteristics and electrical energy consumption indicators, as well as the application of adaptive control strategies. The results of the study demonstrate that early fault detection based on vibration diagnostics enables improved operational efficiency and reduces energy consumption by up to 30%.

Keywords: Electric motor, vibration-based monitoring, condition diagnostics, energy efficiency, vibration signal analysis, early fault detection, bearing defects, rotor imbalance, power factor, energy consumption analysis, adaptive control, industrial energy systems.

KIRISH.

Nasoslar, ventilyatorlar, kompressorlar va konveyer lentalari kabi elektr dvigateli yordamida harakatlantiriladigan tizimlar sanoatda umumiy elektr energiyasi iste’molining 60 % dan ortig‘ini tashkil etadi. Shu bois, ushbu tizimlarning samaradorligini oshirish sanoat energetik boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Podshipniklarning yeyilishi, rotorning nomutanosibligi, valning noto‘g‘ri markazlashuvi hamda stator chulg‘amlarining degradatsiyasi kabi dvigatel nosozliklari mexanik ishqalanishning ortishi va elektromagnit yo‘qotishlarning ko‘payishiga olib keladi. Ushbu nuqsonlar g‘ayritabiiy tebranish signallari ko‘rinishida namoyon bo‘lib, elektr energiyasi sarfining ortishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt bo‘yicha rejalashtirilgan an’anaviy texnik xizmat ko‘rsatish strategiyalari ko‘pincha nosozliklarning dastlabki bosqichlarini aniqlashda yetarli darajada samarali emas, bu esa uskunaning uzoq vaqt davomida samarasiz ish rejimida ishlashiga sabab bo‘ladi.

Tebranishga asoslangan holat monitoringi aylanuvchi mexanizmlardagi nosozliklarni diagnostika qilishda keng qo‘llanib kelinmoqda. Biroq, uning energiya samaradorligini optimallashtirishdagi o‘rni yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi tebranish xususiyatlari bilan energiya iste’moli o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni aniqlash hamda elektr

ISSN 3030-3907

dvigatellarining energiya tejamkor ishlashini ta’minlovchi integratsiyalashgan tizimni taklif etishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Akselerometrlar elektr dvigatelining muhim nuqtalariga, jumladan podshipnik korpuslari, stator karkasi va dvigatel qobig‘i kabi qismlarga o‘rnatiladi. Piezoelektrik tebranish datchiklari yordamida tebranishning tezlanishi, tezligi va siljishi real vaqt rejimida o‘lchanadi.

Olingan tebranish signallari raqamli filtrlash hamda chastota sohasidagi tahlil orqali qayta ishlanadi. Elektr dvigatellarida keng uchraydigan nosozliklarga xos bo‘lgan xarakterli chastota komponentlarini ajratib olish uchun tezkor Furye almashtirishi (FFT) usuli qo‘llaniladi. Tebranish intensivligi ISO 10816 kabi xalqaro standartlar talablariga muvofiq ravishda baholanadi.

Turli xil nosozlik turlariga o‘ziga xos tebranish xarakteristikalari mos keladi. Xususan, podshipnik nuqsonlari yuqori chastotali komponentlarni hosil qiladi, rotorning nomutanosibligi va valning noto‘g‘ri markazlashuvi esa aylanish chastotasiga mos ravishda tebranish amplitudasining ortishiga olib keladi. O‘lchangan tebranish darajalarini oldindan belgilangan chegaraviy qiymatlar bilan taqqoslash orqali g‘ayritabiiy ish holatlari dastlabki bosqichdayoq aniqlanadi.

Eksperimental kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, nosoz holatda ishlayotgan elektr dvigatellarida tebranish darajasi standart me’yorlardan yuqori bo‘ladi. Mazkur holat mexanik yo‘qotishlarning ortishi hamda elektr energiyasi iste’molining ko‘payishi bilan bevosita bog‘liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Dvigatel tarkibiy qismlaridagi mexanik degradatsiya (eskirish va shikastlanishlar) ichki qarshilikning ortishi hamda aylantiruvchi momentga bo‘lgan talabning ko‘payishiga olib keladi. Natijada dvigatel toki ortadi, quvvat koeffitsiyenti esa kamayadi. Ushbu bog‘liqlikni baholash maqsadida tebranish ma’lumotlari kuchlanish, tok, aktiv quvvat va quvvat koeffitsiyenti kabi elektr parametrlar bilan birgalikda tahlil qilinadi.


O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatadiki, g‘ayritabiiy tebranish holatlari nosozlik darajasiga qarab energiya iste’molining 10 % dan 30 % gacha ortishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, quvvati ortiqcha tanlangan elektr dvigatellari yengil yuklama sharoitida ishlaganda quvvat koeffitsiyentining pasayishi va foydali ish koeffitsiyentining kamayishi kuzatiladi. Bunday holatlarni ham tebranish–energiya tahlili orqali aniqlash mumkin.

Tajriba uchun 7,5 kVt quvvatga ega uch fazali asinxron elektr dvigateli tanlandi va uning podshipnik korpuslari hamda stator karkasiga piezoelektrik akselerometrlar o‘rnatildi. Tebranish ma’lumotlari ma’lumotlarni yig‘ish tizimi

ISSN 3030-3907

yordamida 5 kGs diskretlash chastotasida qayd etildi. Shu bilan bir vaqtda kuchlanish, tok, quvvat koeffitsiyenti va aktiv quvvat kabi elektr parametrlar quvvat analizatorlari yordamida o‘lchandi.

Nosozliklarni modellashtirish maqsadida podshipnik tashqi halqasidagi nuqsonlar sun’iy ravishda hosil qilindi hamda rotorga nomutanosib qo‘shimcha massalar biriktirish orqali rotorning nomutanosibligi vujudga keltirildi. Tajribalar o‘zgaruvchan chastotali yuritma (VFD — Variable Frequency Drive) yordamida turli yuklama sharoitlarida, ya’ni 25 %, 50 %, 75 % va 100 % nominal yuklama ostida amalga oshirildi.



1-rasm. Tajriba qurilmasining sxematik ko‘rinishi

1-jadval.

Turli nosozlik holatlarida tebranish va energiya sarfi ko‘rsatkichlari

Nosozlik turi	Maksimal tebranish tezlanishi (mm/s²)	Asosiy chastota (Hz)	Energiya iste’molining ortishi (%)
Normal holat	1.5	Aniqlanmagan	0
Podshipnik tashqi halqasi nuqsoni	4.8	300 *(nosozlik chastotasi)*	18
Rotor nomutanosibligi	3.6	50 *(aylanish chastotasi)*	12

ISSN 3030-3907

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, podshipnik nuqsonlari va rotor nomutanosibligi yuzaga kelganda tebranish tezlanishi amplitudasi sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, podshipnik tashqi halqasi nuqsoni holatida tebranish tezlanishining 4,8 mm/s² gacha oshishi va 300 Hz atrofidagi xarakterli nosozlik chastotasining paydo bo‘lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, energiya iste’moli 18 % ga ortadi.

Rotor nomutanosibligi holatida esa tebranish tezlanishi 3,6 mm/s² ni tashkil etib, 50 Hz aylanish chastotasida dominant spektral komponent kuzatiladi hamda energiya sarfi 12 % ga oshadi. Bu holatlar tebranish parametrlarining o‘zgarishi bilan energiya samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

2-jadval.

Turli holatlarda energiya iste’moli ko‘rsatkichlari


Holat	O‘rtacha quvvat (kVt)	Quvvat koeffitsiyenti	Sarflangan energiya (kVt·soat)	Sog‘lom holatga nisbatan ortish (%)
Normal holat	5.2	0.92	5.2	0
Podshipnik nosozligi	6.1	0.85	6.1	17.3
Rotor nomutanosibligi	5.8	0.87	5.8	11.5

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom holatda elektr dvigatelining o‘rtacha quvvati 5,2 kVt, quvvat koeffitsiyenti esa 0,92 ni tashkil etadi. Podshipnik nosozligi yuzaga kelganda o‘rtacha quvvat 6,1 kVt gacha ortadi, quvvat koeffitsiyenti esa 0,85 gacha kamayadi. Natijada energiya iste’moli 17,3 % ga oshadi. Rotor nomutanosibligi holatida esa o‘rtacha quvvat 5,8 kVt, quvvat koeffitsiyenti 0,87 bo‘lib, energiya sarfi 11,5 % ga ortishi kuzatiladi.

Mazkur natijalar shuni tasdiqlaydiki, mexanik nosozliklar elektr dvigatelining energetik samaradorligini pasaytiradi, ya’ni quvvat sarfini oshiradi va quvvat koeffitsiyentini kamaytiradi. Shu sababli, tebranish signallari asosida nosozliklarni erta aniqlash nafaqat texnik holat monitoringi, balki energiya sarfini optimallashtirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zgaruvchan chastotali yuritma (VFD) yordamida elektr dvigatelining aylanish tezligi yuklama talabiga mos ravishda boshqarildi. Tezlikni o‘zgartirish jarayonida tebranish signallari uzluksiz monitoring qilinib, tebranish darajasining xavfsiz me’yorlar doirasida qolishi nazorat qilindi.

ISSN 3030-3907



3-rasm. 50 % yuklama sharoitida dvigatel tezligiga bog‘liq holda tebranish amplitudasi va quvvat sarfi (Grafikda 30 Hz dan past tezliklarda tebranish amplitudasining keskin ortishi va unga mos ravishda quvvat iste’molining o‘zgarishi tasvirlanadi.)

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, 50 % yuklama sharoitida dvigatel tezligini 50 Hz dan 40 Hz gacha kamaytirish energiya iste’molining 25 % ga qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, tebranish darajasi belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshmadi, ya’ni tizimning mexanik barqarorligi saqlanib qoldi.

Tadqiqot doirasida tebranishning chegaraviy qiymatlari va yuklama talabi asosida elektr dvigatelining aylanish tezligini avtomatik ravishda moslashtiruvchi boshqaruv algoritmi ishlab chiqildi. Mazkur algoritmning asosiy vazifasi energiya tejamkorligi va mexanik xavfsizlik o‘rtasida optimal muvozanatni ta’minlashdan iborat.

Taklif etilgan monitoring–tahlil–boshqaruv integratsiyalashgan tizimi quyidagi bosqichlarda ishlaydi:

1.Monitoring – tebranish va elektr parametrlarini real vaqt rejimida uzluksiz kuzatish;

2.Tahlil – olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, nosozlik alomatlari va energetik yo‘qotishlarni aniqlash;

3.Boshqaruv – yuklama va tebranish holatidan kelib chiqib dvigatel tezligini optimal qiymatga moslashtirish.

Ushbu yondashuv natijasida elektr dvigatelining ishonchliligi oshadi, nosozliklarning oldi olinadi va energiya iste’moli sezilarli darajada kamayadi, bu esa sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish uchun samarali texnologik yechim hisoblanadi.

XULOSA.

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, tebranishga asoslangan holat monitoringi elektr dvigatellaridagi nosozliklarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi hamda tebranish ko‘rsatkichlari bilan energiya iste’molining ortishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tebranish ma’lumotlarini elektr parametrlar bilan integratsiyalash orqali moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini qo‘llash imkoniyati yaratiladi, bu esa elektr dvigatelining texnik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda energiya iste’molini 30 % gacha kamaytirish imkonini beradi.

Taklif etilgan monitoring–tahlil–boshqaruv integratsiyalashgan tizimi elektr dvigatellarining ishlash samaradorligini oshirish, nosozliklarni oldindan aniqlash va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirishda samarali yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar prediktiv texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarini yaratish maqsadida mashinali o‘qitish modellarini joriy etish, shuningdek ushbu yondashuvni boshqa turdagi elektr dvigatellari va sanoat uskunalariga tatbiq etish yo‘nalishlarida olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ramazonov B. G. (2026). ELEKTR MOTORLARIDA VUJUDGA KELADIGAN VIBRATSIYA HOLATINI TAHLIL QILISH. Development Of Science, 2(1), pp. 153-160. https://devos.uz/article.php?id=3780
2. Ramazonov B. G. UCH FAZALI ASINXRON DVIGATELDAGI NOSOZLIKLARNI DIAGNOSTIKA QILISH METODLARINING TAHLILI. Development Of Science 2026 / 4 Issue 4. Volume 6. p. 287-296. https://devos.uz/article.php?id=4729

THERMO-MECHANICAL RELIABILITY ENHANCEMENT OF TUBE–HEADER JOINTS IN AIR-COOLED HEAT EXCHANGERS VIA CONTROLLED DEFORMATION MANAGEMENT

Rakhimov Ganisher Bakhtiyorovich
Associate Professor, Doctor of Technical Sciences (PhD), Karshi State Technical University Kashkadarya Region, Republic of Uzbekistan
Address: 225 Mustaqillik Street, Karshi 180100, Uzbekistan
E-mail: ganisher.raximov1@inbox.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-1970-1541
Tel: +998 94 297-75-63
Ulug‘bek Shomurodov
Assistant Lecturer, Karshi State Technical University, 225 Mustaqillik Street, Karshi 180100, Uzbekistan
Abdulla Nasriddinov
MSc Student, Karshi State Technical University, 225 Mustaqillik Street, Karshi 180100, Uzbekistan

Abstract. Tube–header welded joints in air-cooled heat exchangers (ACHE) represent one of the most failure-prone structural zones under industrial operating conditions, where combined thermal, mechanical, and vibrational loads lead to fatigue crack initiation. This study proposes a fundamentally different approach based on controlled redistribution of thermal deformation rather than conventional suppression strategies. A modified support–compensation system integrating sliding supports, guide constraints, limit rods, and internal flow-distribution elements was experimentally evaluated under real operating conditions. The results demonstrate a substantial reduction in local stress levels from 135–140 MPa to 75–90 MPa, accompanied by a ~50% decrease in vibration amplitude and a twofold improvement in flow uniformity. The combined effect leads to a predicted 5–10-fold increase in fatigue life. The proposed solution provides a scalable pathway for reliability enhancement in industrial ACHE systems.

Keywords: air-cooled heat exchangers (ACHE); Tube–header weld integrity; Thermo-mechanical stress; Finite element analysis (FEA); Stress redistribution mechanism; Structural optimization; Fatigue crack initiation; Reliability enhancement.

Annotatsiya. Havoli sovutish apparatlarida (HSA) quvur–kollektor payvand birikmalari sanoat sharoitida eng ko‘p nosozlikka uchraydigan konstruktiv zonalardan biri hisoblanadi, bunda termik, mexanik va vibratsion yuklanishlarning birgalikdagi ta’siri charchash darzlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotda deformatsiyani an’anaviy bostirish usullaridan farqli ravishda uning boshqariladigan qayta taqsimlanishiga asoslangan mutlaqo yangi

yondashuv taklif etilgan. Sirpanma tayanchlar, yo‘naltiruvchi elementlar, cheklovchi shtangalar hamda ichki oqim taqsimlovchi qurilmalarni o‘z ichiga olgan takomillashtirilgan tayanch–kompensatsiya tizimi real ish sharoitida eksperimental jihatdan o‘rganildi. Olingan natijalar mahalliy kuchlanish darajasining 135–140 MPa dan 75–90 MPa gacha kamayishini, vibratsiya amplitudasining taxminan 50% ga pasayishini va oqimning bir tekis taqsimlanishining ikki baravar yaxshilanishini ko‘rsatdi. Ushbu kompleks ta’sir natijasida xizmat muddati 5–10 barobarga oshishi ilmiy asoslandi. Taklif etilgan yechim sanoat HSA apparatlarining ishonchliligini oshirish uchun keng qo‘llash imkoniyatiga ega.

Kalit so‘zlar: havoli sovutish apparatlari (HSA); Quvur–kollektor payvand birikmasi; Termo-mexanik kuchlanish; Cheklangan elementlar usuli (FEA); Kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi; Strukturaviy optimallashtirish; Charchash darzlari; Ishonchlilikni oshirish.

Аннотация. Сварные соединения типа «труба–коллектор» в аппаратах воздушного охлаждения (АВО) являются одними из наиболее уязвимых конструктивных зон в условиях промышленной эксплуатации, где совокупное воздействие термических, механических и вибрационных нагрузок приводит к зарождению усталостных трещин. В данной работе предложен принципиально новый подход, основанный на управляемом перераспределении термических деформаций, в отличие от традиционных методов их подавления. Модифицированная система опор и компенсации, включающая скользящие опоры, направляющие элементы, ограничительные тяги и внутренние устройства распределения потока, была экспериментально исследована в реальных условиях эксплуатации. Полученные результаты показывают значительное снижение локальных напряжений с 135–140 МПа до 75–90 МПа, уменьшение амплитуды вибрации примерно на 50% и двукратное улучшение равномерности распределения потока. Совокупный эффект приводит к прогнозируемому увеличению срока службы в 5–10 раз. Предложенное решение обладает высокой практической значимостью и может быть масштабировано для повышения надежности промышленных АВО.

Ключевые слова: аппараты воздушного охлаждения (АВО); Сварное соединение труба–коллектор; Термомеханические напряжения; Метод конечных элементов (FEA); Перераспределение напряжений; Структурная оптимизация; Усталостные трещины; Повышение надежности.

1. INTRODUCTION.

Air-cooled heat exchangers are widely used in gas processing and petrochemical industries due to their operational flexibility and independence

ISSN 3030-3907

from water resources. However, the structural integrity of tube–header welded joints remains a critical reliability issue. These zones are subjected to cyclic thermal expansion, internal pressure loading, flow-induced vibration, and non-uniform heat transfer conditions, resulting in localized stress concentrations and fatigue damage accumulation.

Previous studies have primarily focused on reducing deformation through **rigid structural solutions** or material strengthening. However, such approaches often fail to address the underlying cause of failure—non-uniform deformation distribution and constraint-induced stress amplification. In practice, restricted axial movement of the header leads to the accumulation of thermal strain energy in the weld zone, accelerating crack initiation.

In contrast, this work introduces a controlled deformation management concept, where thermal expansion is intentionally redistributed toward **compliant structural elements**, thereby reducing stress concentration in critical regions.

2. MATERIALS AND METHODS.

The experimental investigation was carried out on an industrial air-cooled heat exchanger (ACHE) operating under steam–condensate conditions, with an inlet temperature of 119 °C and an outlet temperature ranging between 60 and 70 °C. To systematically evaluate the influence of structural modifications on the thermo-mechanical behavior of the tube–header joint, three distinct structural configurations were considered: (I) the baseline configuration corresponding to the existing floating header system, (II) an improved support system incorporating reduced friction interfaces and guided axial motion, and (III) a fully optimized configuration integrating deformation compensation mechanisms and enhanced flow redistribution.

A comprehensive instrumentation strategy was employed to capture both mechanical and thermal responses of the system under operating conditions. Axial displacement was measured using linear variable differential transformers (LVDTs), enabling precise quantification of thermal expansion and header movement. Vibration characteristics were monitored using accelerometers to assess flow-induced dynamic effects and structural stability. Local stress distribution in the vicinity of the weld zone was evaluated using strain gauges, providing direct insight into stress concentration behavior. In addition, non-destructive testing (NDT) techniques, including visual testing (VT), penetrant testing (PT), and ultrasonic testing (UT), were applied to detect surface and subsurface defects, as well as to monitor crack initiation and propagation.

To further correlate mechanical loading conditions with material response, metallographic analysis was conducted on representative welded specimens. Both macrostructural and microstructural examinations were performed to identify

ISSN 3030-3907

crack initiation sites, characterize heat-affected zones (HAZ), and evaluate microstructural heterogeneity associated with thermo-mechanical cycling. This multi-scale experimental approach enabled a comprehensive assessment of the interaction between structural design, stress redistribution, and fatigue damage evolution in the tube–header joint.

3. RESULTS.

The experimental results demonstrate a systematic improvement across all performance indicators with structural optimization. The quantitative comparison of the investigated configurations is presented in Table 1.

Table 1.

Comparison of performance indicators for different structural configurations

Parameter	Baseline configuration	Improved system	Optimized system
Weld zone stress (MPa)	135–140	105–115	75–90
Vibration amplitude (mm)	0.9–1.1	0.6–0.7	0.4–0.5
Flow uniformity (v_{max}/v_{min})	2.6–3.0	2.0–2.2	1.2–1.4
Crack initiation probability	High	Medium	Low

The data presented in Table 1 clearly indicate that the transition from the baseline configuration to the optimized system leads to a substantial reduction in weld zone stress, decreasing from 135–140 MPa to 75–90 MPa, corresponding to an overall reduction of approximately 40–45%. This reduction is accompanied by a significant decrease in vibration amplitude, which is nearly halved in the optimized configuration, indicating improved structural stability and reduced dynamic loading.

In addition, the flow distribution within the tube bundle becomes more uniform, as evidenced by the reduction in the velocity ratio (v_{max}/v_{min}) from 2.6–3.0 to 1.2–1.4. This improvement contributes to a more homogeneous thermal field and reduces localized thermal gradients, which are known to intensify stress concentration effects. Consequently, the probability of crack initiation is significantly reduced, transitioning from a high likelihood in the baseline system to a low probability in the optimized configuration.

The stress reduction trend is further illustrated in Figure 1, which shows a nonlinear decrease in weld zone stress with increasing structural flexibility. This

ISSN 3030-3907

nonlinear behavior indicates that the introduction of compliant structural elements progressively enhances the system's ability to accommodate thermal deformation.




Figure 1. Influence of structural configuration on weld zone stress with statistical variability (error bars).

From a theoretical perspective, the thermo-mechanical behavior of the system can be described by the relation:

$$\sigma = E \cdot \alpha \cdot \Delta T$$

where σ is the thermal stress, E is the elastic modulus, α is the coefficient of thermal expansion, and ΔT is the temperature difference. In the optimized configuration, the effective thermal load transmitted to the weld zone is reduced due to deformation redistribution into compliant structural elements, leading to a decrease in the effective ΔT and, consequently, in σ.

This mechanism is further supported by the stress distribution analysis shown in Figure 2. In the baseline configuration, peak von Mises stress is concentrated at the weld root region, indicating severe stress localization. In contrast, the optimized system exhibits a redistribution of stress toward compliant structural elements, resulting in a more uniform stress field and a reduction in peak stress intensity. This redistribution effectively mitigates stress concentration and significantly reduces the likelihood of fatigue crack initiation.

ISSN 3030-3907




Figure 2. Finite element analysis of von Mises stress distribution in the tube–header joint: (a) baseline configuration with pronounced stress concentration in the weld region, (b) optimized configuration showing effective stress redistribution away from the weld zone.

4. DISCUSSION.

The results clearly indicate that the primary cause of failure is not the magnitude of thermal expansion itself, but rather its constrained nature. In the baseline configuration, high structural stiffness combined with frictional resistance restricts axial movement of the header, thereby forcing thermal strain to accumulate within the weld zone. This constraint-induced localization of deformation leads to elevated stress concentrations and accelerates fatigue crack initiation.

In contrast, the introduction of low-stiffness compliant structural elements provides alternative deformation pathways, enabling the redistribution of thermal strain energy toward non-critical regions. This behavior is consistent with the principle of minimum strain energy in elastic systems, according to which deformation preferentially occurs in regions of lower stiffness. As a result, the weld zone is effectively relieved from excessive stress concentration.

The improvement in fatigue performance can be interpreted through the classical fatigue relation:

$$N \sim \sigma^{-m}$$

where N is the number of cycles to failure, σ is the stress amplitude, and m is a material-dependent exponent. Even a moderate reduction in stress can therefore result in a substantial increase in fatigue life. Based on the experimentally observed stress reduction of approximately 40–45%, the corresponding increase in service life is estimated to reach up to an order of magnitude, which is in good agreement with fatigue theory.

ISSN 3030-3907

In addition to mechanical improvements, the incorporation of flow distribution elements contributes to a more uniform temperature field across the tube bundle. This reduces local thermal gradients, which are known to intensify stress concentration and promote crack initiation. Furthermore, the use of compliant supports enables effective vibration damping through energy dissipation, thereby reducing dynamic amplification effects and preventing resonance conditions under flow-induced excitation.

From an industrial perspective, the proposed structural solution does not require fundamental redesign of existing systems, which significantly enhances its practical applicability. The proposed structural solution can be implemented through targeted modifications of support and compensation elements, allowing integration into existing installations with minimal disruption.

The economic impact of the proposed approach can be expressed as:

$$E = \Delta C_{rem} + \Delta C_{stop} + \Delta C_{energy}$$

where ΔC_{rem} represents the reduction in maintenance costs, ΔC_{stop} orresponds to savings associated with decreased downtime, and ΔC_{energy} reflects improvements in energy efficiency. Among these, the dominant contribution arises from the reduction in unplanned shutdowns. In large-scale gas processing facilities, even a single avoided shutdown event can lead to substantial economic savings.

The experimentally observed reduction in maintenance frequency by a factor of 2–3, combined with a 5–10-fold increase in service life, provides strong evidence for the technical feasibility and economic viability of the proposed approach.

These findings confirm that stress concentration in tube–header joints is primarily governed by deformation constraints rather than absolute thermal expansion, highlighting the effectiveness of controlled deformation management as a design strategy.

6. CONCLUSION.

This study demonstrates that controlled deformation management represents a paradigm shift in the design of ACHE systems. By actively redistributing thermal strain rather than resisting it, the proposed solution effectively eliminates stress concentration in tube–header weld zones. The approach significantly improves structural reliability, reduces failure probability, and enhances overall system performance. Its compatibility with existing industrial infrastructure makes it a viable candidate for large-scale implementation.

ISSN 3030-3907

The proposed approach provides a scalable and transferable framework for improving the reliability of air-cooled heat exchangers across a wide range of industrial applications.

REFERENCES

1. Williams, P. T. (2013). Pyrolysis of waste tyres: A review. *Waste Management*, *33*(8), 1714–1728. https://doi.org/10.1016/j.wasman.2013.05.003
2. Zerin, N. H., et al. (2023). End-of-life tyre conversion to energy: A review on pyrolysis. *Science of the Total Environment*.
3. Quek, A., & Balasubramanian, R. (2013). Liquefaction of waste tires by pyrolysis for oil and chemicals—A review. *Journal of Analytical and Applied Pyrolysis*, *101*, 1–16. https://doi.org/10.1016/j.jaap.2013.02.016
4. Islam, M. R., Tushar, M. S. H. K., & Haniu, H. (2008). Production of liquid fuels and chemicals from pyrolysis of tire wastes. *Journal of Analytical and Applied Pyrolysis*, *82*(1), 96–109. https://doi.org/10.1016/j.jaap.2008.02.005
5. Rakhimov, G. B., & Ochilov, B. M. (2025). Research on the appropriate design of a filter device used in liquid-solid phase separation. *Экономика и социум*, (11-2 (138)), 437-440.
6. Rakhimov, G. B., Buronov, F. E., & Zamonov, O. N. (2025). Investigation of abrasive wear and erosion processes and enhancement of operational performance in pumps used for the transfer of heavy hydrocarbons (Wax with solids). *Экономика и социум*, (11-2 (138)), 433-436.
7. Буронов, Ф., & Рахимов, Г. (2025). Research of the process of ethylene production from methane.
8. Buronov, F. E., Rakhimov, G. B., & Narzyev, S. S. (2025). Research of the process of ethylene production from methane. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 166-171.
9. Khurmamatov, A. M., Ismailov, O., Auesbaev, A. U., Rakhimov, G. B., Muminov, J. A., & Khametov, Z. M. (2025). Increasing the efficiency of heat exchange by improving the design of heat exchangers. *Nafta-Gaz*, *81*.
10. Rakhimov, G., & Yuldashev, T. (2024, November). Study of the degree of foaming of absorbent compositions used when purifying gases from acidic components. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1, p. 050008). AIP Publishing LLC.
11. Rakhimov, G. B., & Sayfiyev, E. K. (2024). Research of the process of producing alcohols based on by-products obtained in the fischer-tropsch synthesis. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, *2*(03).
12. Raximov, G. A., & Poyonov, L. (2024). Absorber konstruksiyasini takomillashtirish orqali gazlarni tozalash samaradorligini oshirish. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, *1*(1), 27-35.

13. Raximov, G. A. B. (2024). Qobiq-quvurlardan foydalangan holda issiqlik almashinish uskunasining samaradorligini oshirish uchun konstruksiyani takomillashtirish. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, *2*(03).
14. Rakhimov, G. B. (2023). Development of anti-detonation additive. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 604-607.
15. Normurod, F., Sadokat, N., Davron, H., & Ganisher, R. (2024). Catalytic aromanication of propane mixture. *Universum: технические науки*, *12*(11 (128)), 5-8.
16. Bakhtiyorovich, R. G., & Khalmakhmatogli, S. E. (2024). Research of the process of producing alcohols based on by-products obtained in the fischer-tropsch synthesis. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности*, *2*(3), 139-143.
17. Rakhimov, G. B., Buronov, F. E., & Saidov, S. L. (2024). To study the operation of the fractionating apparatus in increasing the efficiency of separation of hydrocarbon fractions.
18. Рахимов, Г. Б. (2024). Изучение влияния эффективности теплообмена в кожухотрубчатого теплообменник на гидродинамические параметры. *Экономика и социум*, (12-1 (127)), 998-1007.
19. Yuldashev, T. R., Rakhimov, G. B., Bekmurodov, A. A., & Jabborov, N. X. (2024). Increasing the efficiency of cleaning natural gases from sour components. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 626-631.
20. Rakhimov, G., Kuybokarov, O., & Karshiyev, M. (2024). Research of the catalytic properties of a catalyst selected for the production of high-molecular weight liquid synthetic hydrocarbons from synthesis gas. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 01008). EDP Sciences.
21. Rakhimov, G. (2023). Qobiq quvurli issiqlik almashinish qurilmalaridagi issiqlik almashinish samaradorligini gidrodinamik parametlariga ta'sirini o'rganish. *Innovatsion texnologiyalar*, *51*(03), 77-86.

ISSN 3030-3907

THE EFFECT OF GRAIN SPROUTS ON FERMENTATION PROCESSES AND FOOD QUALITY

Askarova Khurshida Ekram kizi

Tashkent Institute of Chemical Technology Faculty of Food and Winemaking Technologies 1st year master's student in the field of Food Technology (in the field of technology of oil and fat products)

Annotation. This article examines fermentation processes of grain germ and their impact on food quality, biological value, and digestibility. Fermentation enhances bioactive compounds, improving nutritional and functional properties. The study highlights technological aspects and practical significance of these processes in developing high-quality and health-promoting food products.

Keywords: grain germ, fermentation, food quality, bioactive compounds, nutritional value, technology.

$$\Delta P=\xi p \frac{v^2}{2}$$

Energiya sarfi absorbsion kolonnaga nisbatan 15-25% ga kam.

Samaradorlikni baholash

1-Jadval

v, m/sek	d, mm	a, m^2/m^3	Quritish darajasi,%
20	0,55	1100	72
35	0,28	2100	81
50	0,14	4200	88

Ishning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Ushbu qurilmani quduq oldi separatsiya tizimida qo‘llash mumkin;
2. Metall sarfi 30 % ga kamayadi;
3. Ishlatish xarajatlari 15-20 % ga kamayadi.

Gidrotsiklonda hosil qilinadigan katta markazdan qochma kuch mayin dispers absorbent tomchilarini hosil qiladi va intensiv modda almashinuv muhiti

ISSN 3030-3907

yaratiladi. Taklif etilayotgan texnologiya mavjud absorbsion qurilmalarda to‘ldiruvchi yoki birinchi bosqich quritish uskunasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gidrotsiklonni purkagich sifatida qo‘llash, gazni dastlabki quritish va mexanik tozalash bosqichlarida samarali echim hisoblanadi. Ushbu qurilmaning hajmi mavjud absorbsiya qurilmalariga nisbatan 30-40 foizga kamayaib, metall sarfining kamayishiga olib keladi va energiya tejamkorlini ta’minlaydi. Markazdan qochma kuch maydonida purkash natijasida hosil bo‘lgan mayin dispers tomchilar modda almashinuv jarayonining jadallashuviga imkon yaratadi. Taklif etilayotgan texnologiya mavjud ananaviy absorbsion quritish tizimlarida yoki alohida ko‘p bosqichli absorbsiya uskunasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lmas Niyoz, O. G. L., Jumayev, Q. K., & G‘Aybullayev, S. A. (2022). GAZLARNI QURITISH USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARI. *Scientific progress*, *3*(3), 602-611.
2. Zhumaev, K. K., & Shomurodov, A. Y. (2020). Research and development of an integrated technology for the separation of oil sludge in the field of centrifugal forces. *Science and Education*, *1*(3).
3. Jumaev, K. K., Iskandarov, J. R. O., & Tuxtaev, B. B. O. (2017). Razrabotka i ispolzovanie malogabaritnыx absorbsionnыx ustanovok. *Voprosы nauki i obrazovaniya*, (2 (3)), 34-35.
4. Jumaev, K. K., & Saidov, M. (2016). Vliyanie gidratoobrazovaniya na propusknuyu sposobnost gazoprovoda. *Molodoy uchenыy*, (2), 150-151.
5. Jumaev, K. K., Maxmudova, N. S., SHomurodov, A. YU., & YAxyaev, N. SH. (2020). Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force. *Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force*, *10*(11), 539-544.
6. Jumaev, K. K., & Kalandarov, N. O. (2014). Vosstanovlenie ekspluatatsionnoy nadejnosti gazoprovodov. *Molodoy uchenыy*, (9), 153-154.
7. Jumaev, K., & Kh, D. (2022). Development of a highly saving technology for purifying natural gas from sulfur-containing compounds. *Sciences of Europe*, (107), 132-136.
8. Karimovich, J. Q., & Yuldashovich, S. A. (2021). NOAN’ANAVIY USULLARNI NEFT SHLAMLARINI AJRATISHDA QO‘LLASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1112-1118.
9. Jumaev, K. K., Makhmudova, N. S., & Shomurodov, A. (2020). Yu. Yahyayev N. Sh. Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under

ISSN 3030-3907

the influence of centrifugal force. Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force, 10(11), 539-544.
10. Zhumaev, K. K., Sh, A. S., & Tukhtaev, B. O. (2017). Application of regular nozzles in contact heat and mass transfer apparatuses. Problems of science and education, (2), 28-29.

TABIIY GAZNI QURITISH VA TOZALASH JARAYONINI MARKAZDAN QOCHMA KUCH MAYDONIDA JADALLASHTIRUSH

Q.K. Jumayev
Buxoro davlat texnika universiteti, t.f.d., prof
G‘.B. Zaripov
Buxoro davlat texnika universiteti
G‘. G‘ Habibullayev
Buxoro davlat texnika universiteti, 214-22 NQT guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy gazni quritish va tozalash jarayonida gidrotsiklondan purkagich sifatida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Gaz-suyuqlik tizimida markazdan qochma kuch ta’sirida absorbentning mayin dispers tomchilari hosil bo‘lishi va modda almashinuv jarayonining jadallashuvi nazariy jihatdan asoslangan. Taklif etilayotgan ushbu usul ishlab chiqarishda hozirda qo‘llanilayotgan absorbsion kolonnalarga nisbatan konstruktiv ixchamligi va soddaligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari gidrotsiklonni tabiiy gazni dastlabki quritish va mexanik tozalash bosqichlarida qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tabiiy gaz, absorbsiya, gidrotsiklon, glikol eritmasi, modda almashinuv, dispersiya.

Аннотация. В статье анализируются возможности использования гидроциклона в качестве распылителя в процессе осушки и очистки природного газа. Теоретически обосновано образование мелких дисперсных капель абсорбента под действием центробежной силы в газожидкостной системе и ускорение процесса массообмена. Предлагаемый метод отличается конструктивной компактностью и простотой по сравнению с абсорбционными колоннами, применяемыми в настоящее время в промышленности. Результаты исследований показывают целесообразность применения гидроциклона на этапах предварительной осушки и механической очистки природного газа.

Ключевые слова: природный газ, абсорбция, гидроциклон, раствор гликоля, обмен веществ, дисперсия.

Abstract. This article analyzes the possibilities of using a hydrocyclone as a sprayer in the process of natural gas drying and purification. The formation of fine dispersed droplets of absorbent under the influence of centrifugal force in a gas-liquid system and the acceleration of the substance exchange process are theoretically substantiated. The proposed method is distinguished by its structural compactness and simplicity compared to absorption columns currently used in production. The results of the study show that it is advisable to use a hydrocyclone in the stages of primary drying and mechanical cleaning of natural gas.

ISSN 3030-3907

Keywords: natural gas, absorption, hydrocyclone, glycol solution, mass transfer, dispersion.

KIRISH.

Tabiiy gaz tarkibida namlik, mexanik zarrachalar (qum, zang zarrachalari), og‘ir uglevodorodlar va nordon komponentlar (CO_2, H_2S) mavjud bo‘ladi. Namlik quvurlarda gidrat hosil bo‘lishiga, korroziyaga va kompressor uskunasida nosozliklarga olib keladi. SHu sababli gazni sanoat talablariga muvofiq holga keltirish uchun, uni quritish va tozalash jarayonlari amalga oshiriladi.

Amaliyotda gazni quritishning glikollar yordamida absorbsion usuli keng tarqalgan. Biroq ananaviy kolonnalar katta hajmli, gabarit o‘lchamlari katta bo‘lgan uchun, ko‘p joyni egallaydi. Ularni tayyorlash, o‘rnatish, ishlatish va ta’mirlashni o‘z ichiga oluvchi kapital xarajatlari ham yuqori. SHu nuqtai nazardan, ixcham va energiya tejamkor uskunalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi.

NAZARIY QISM.

Gaz-suyuqlik tizimida modda almashinuv intensivligi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$N=K_aF\ \Delta C$$

Bu erda:

N-modda almashinuv tezligi;

K_a- modda berish koeffitsienti;

F- fazalarning kontakt yuzasi;

ΔS - konsentratsiyalar farqi.

Gidrotsiklon qurilmasida absorbentni mayin dispers holda purkash natijasida tomchilar diametri kamayib, kontakt yuzasining ortishi modda almashinuv tezligini ortishiga olib keladi.

Markazdan qochma kuch tezlanishi:

$$\alpha=\frac{v^2}{r}$$

Bu erda:

v- tangensial tezlik;

r- aylanish radiusi.

Kontakt yuzasi:

$$F=\frac{6V}{d}$$

Bu erda:

V-suyuq faza hajmi;

d- absorbent tomchisi o‘rtacha diametri.

ISSN 3030-3907

Formuladan ko‘rinib turibdiki, tomchi diametrining kichrayishi kontakt yuzasining keskin ortishiga olib keladi.

Purkash jarayonini diametri 10 sm.ga teng bo‘lgan gidrotsiklonda amalga oshirsak, tangensial tezlik 40 m/sek bo‘lganda tezlanish 32000 m/s ga teng bo‘ladi va bu qiymat er tortishishi kuchidan 3200 marta katta bo‘ladi.

Tomchi diametrini taxminiy baholash uchun Veber mezonidan foydalaniladi.

$$We=p\frac{v^2 d}{\sigma}$$

Bu erda:

ƿ-suyuqlik zichligi;

σ-sirt tarangligi;

d- tomchi diametri.

Turbulent rejimda tomchi diametri quyidagi bog‘liqlik bilan kamayadi.

$$d \sim \frac{\sigma}{pv^2}$$

Formuladan ko‘rinib turibdiki, tezlikning ortishi bilan tomchi diametri keskin kamayadi.

TADQIQOT OB’EKTI VA USULI.

Tadqiqot ob’ekti sifatida gaz-suyuqlik tizimida ishlayligan gidrotsiklon konstruksiyasi olindi. Gidrotsiklonga gaz va absorbent oqimlari tangensial kiritiladi. Kirish patrubkalari o‘zaro ustma-ust joylashtiriladi. YUqorida joylashgan patrubka orqali absorbent o‘z oqimi bilan berilada va pastki patrubka orqali bosim ostida 20-50 m/s tezlik bilan beriladigan gaz oqimi yordamida burama harakat olib, gidrotsiklon ichki devorida gaz va suyuqlikning yupqa plenkali kontakti hosil qilinib, yuqori tezlikda modda almashinuvi ro‘y beradi. So‘ngra gidrotsiklon pastki patrubkasi orqali aralashma mayin dispers holda purkaladi.

Tabiiy gazni quritish va tozalash jarayonida gidrotsiklonlardan foydalanish an’anaviy separatorlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Ayniqsa, gidrotsiklonni **purkagich (forsunka)** sifatida yoki gaz va suyuqlikni kontaktga keltirish qurilmasi sifatida qo‘llash jarayon tezligini oshiradi.

Quyida ushbu jarayonning mohiyati va afzalliklari haqida to‘xtalamiz.

Jarayonning ishlash prinsipi

Odatda gidrotsiklonlar markazdan qochma kuch yordamida suyuqlik va qattiq zarralarni ajratish uchun ishlatiladi. Biroq, gaz tozalashda gidrotsiklon ichiga **absorbent** (masalan, dietilenglikol - DEG) purkalganda, u quyidagi vazifani bajaradi:

ISSN 3030-3907

Kontakt yuzasini kengaytirish: Gaz va suyuqlik gidrotsiklon ichida juda katta tezlikda aylanadi. Bunda suyuqlik mayda tomchilarga bo‘linib, gaz bilan ta’sirlashish yuzasi keskin ortadi.

Issiqlik va modda almashinuvi: Gaz tarkibidagi namlik va zaharli qo‘shimchalar (N_2O, CO_2 H_2S) absorbent tomonidan tezroq yutiladi.

Separatsiya: YUtilgan namlik va iflosliklar markazdan qochma kuch ta’sirida devorlarga urilib, pastga qarab oqib tushadi, tozalangan gaz esa tepadan chiqib ketadi.

1-Jadval

Gidrotsiklon-purkagich tizimining afzalliklari

Ko‘rsatkich	An’anaviy kolonnalar	Gidrotsiklonli qurilmalar
O‘lchamlari	Juda katta va og‘ir	Ixcham va engil
Jarayon tezligi	Past (gravitatsiya hisobiga)	Juda yuqori (inersiya hisobiga)
Metall sarfi	YUqori	Past
Tozalash darajasi	Standart	YUqori (mikro-tomchilarni ham tutadi)

Hisobiy tahlillarga qaraganda, tangensial tezlik 20-50 m/sek.ga oshganda, markazdan qochma tezlanish 6 martaga oshib, tomchi diametri 3-4 marta kamayadi, modda almashinuv koeffitsienti 20-30 % ga ortadi. Quritish darajasi dastlabki bosqichda 15-25 % ga yaxshilanishi mumkin.

Texnologik tadbiq etish bosqichlari

Tabiiy gazni quritishda gidrotsiklon-purkagich tizimi quyidagicha ishlaydi:

Xom gaz kirishi: Gaz gidrotsiklonga tangensial (yon tomondan) yo‘nalishda kiradi va quyun hosil qiladi.

Absorbent purkash: Gidrotsiklonning yuqori yoki markaziy qismidan purkagich orqali suyuq absorbent yuboriladi.

Tezkor modda almashinuvi: YUqori turbulentlik natijasida gaz soniyaning ulushlarida quriydi.

Fazalarni ajratish: Namlangan absorbent devor bo‘ylab pastga, quritilgan gaz esa markaziy quvur orqali magistralga yo‘naltiriladi.

SHuni ta’kidlash lozimki, gidrotsiklonning geometrik o‘lchamlari va gazning kirish tezligi to‘g‘ri hisoblanishi kerak. Agar tezlik haddan tashqari yuqori bo‘lsa, suyuqlik tomchilari gaz bilan birga chiqib ketishi (unos) mumkin.

Qo‘llanish sohalari

ISSN 3030-3907

Kon boshida tayyorlash: Gazni quvurlarga yuborishdan oldin dastlabki tozalash.

GPZ (Gazni qayta ishlash zavodlari): Kimyoviy tozalash bosqichlarida.

Siquv kompressor stansiyalari: Kompressordan oldin gazni kondensatdan tozalash.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

-gidrotsiklonda turbulentlik darajasi yuqori;

- dispers tomchilar diametri ananaviy forsunkalar darajasigacha kichrayadi;
- quritish samaradorligi dastlabki bosqichdayoq 15-20 foizga oshadi;
- uskuna ixcham, harakatlanadigan qismlari yo‘q.

Ananaviy absorbsion kolonna o‘rnini to‘liq bosishi uchun 2 va 3 bosqichli gidrotsiklon uskunasidan foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gidrotsiklonni purkagich sifatida qo‘llash, gazni dastlabki quritish va mexanik tozalash bosqichlarida samarali echim hisoblanadi. Ushbu qurilmaning hajmi mavjud absorbsiya qurilmalariga nisbatan 30-40 foizga kamayaib, metall sarfining kamayishiga olib keladi va energiya tejamkorlikni ta’minlaydi. Markazdan qochma kuch maydonida purkash natijasida hosil bo‘lgan mayin dispers tomchilar modda almashinuv jarayonining jadallashuviga imkon yaratadi. Taklif etilayotgan texnologiya mavjud ananaviy absorbsion quritish tizimlarida yoki alohida ko‘p bosqichli absorbsiya uskunasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘Lmas Niyoz, O. G. L., Jumayev, Q. K., & G‘Aybullayev, S. A. (2022). GAZLARNI QURITISH USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARI. *Scientific progress*, *3*(3), 602-611.

2. Zhumaev, K. K., & Shomurodov, A. Y. (2020). Research and development of an integrated technology for the separation of oil sludge in the field of centrifugal forces. *Science and Education*, *1*(3).

3. Jumaev, K. K., Iskandarov, J. R. O., & Tuxtaev, B. B. O. (2017). Razrabotka i ispolzovanie malogabaritnых absorbsionnых ustanovok. *Voprosы nauki i obrazovaniya*, (2 (3)), 34-35.

4. Jumaev, K. K., & Saidov, M. (2016). Vliyanie gidratoobrazovaniya na propusknuyu sposobnost gazoprovoda. *Molodoy uchenыy*, (2), 150-151.

5. Jumaev, K. K., Maxmudova, N. S., SHomurodov, A. YU., & YAxyaev, N. SH. (2020). Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force. *Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force*, *10*(11), 539-544.

ISSN 3030-3907

6. Jumaev, K. K., & Kalandarov, N. O. (2014). Vosstanovlenie ekspluatatsionnoy nadejnosti gazoprovodov. *Molodoy uchenыy*, (9), 153-154.
7. Jumaev, K., & Kh, D. (2022). Development of a highly saving technology for purifying natural gas from sulfur-containing compounds. *Sciences of Europe*, (107), 132-136.
8. Karimovich, J. Q., & Yuldashovich, S. A. (2021). NOAN'ANAVIY USULLARNI NEFT SHLAMLARINI AJRATISHDA QO'LLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(4), 1112-1118.
9. Jumaev, K. K., Makhmudova, N. S., & Shomurodov, A. (2020). Yu. Yahyayev N. Sh. *Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force. Mathematical model of the process of phase separation of oil sludge under the influence of centrifugal force*, *10*(11), 539-544.
10. Zhumaev, K. K., Sh, A. S., & Tukhtaev, B. O. (2017). Application of regular nozzles in contact heat and mass transfer apparatuses. *Problems of science and education*, (2), 28-29.

ISSN 3030-3907

РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ РОТАЦИОННОГО ФОРМОВАНИЯ РЕЗЕРВУАРОВ ДЛЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ МАШИН ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ.

Юлдашев Нодирбек Бахрамович
Докторант Государственного учреждения (ГУ) «Фан ва тараккиёт» при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.
E-mail: nodir_4444@mail.ru)
Юлдашев Бекзод Бахрамович
Доктор философии (PhD) по техническим наукам ORCID ID: 0009-0001-7786-593X
E-mail: yuldoshev.b@odti.uz
Негматов Сойибжон Садикович
Академик АН РУз, д-р. техн. наук, профессор, научный руководитель ГУ «Фан ва тараккиёт»

Аннотация. В работе исследованы композиционные полимерные материалы и технология ротационного формования резервуаров для машин химической защиты растений. Изучено влияние температурно-временных режимов и свойств порошковых полимеров на качество изделий. Определены оптимальные параметры технологического процесса, обеспечивающие прочность и химическую стойкость резервуаров. Результаты могут быть использованы при проектировании и производстве емкостей для сельскохозяйственной техники.

Ключевые слова: композиционные полимерные материалы, ротационное формование, резервуар, термопластичные полимеры, порошкообразная композиция, полиэтилен, химическая защита растений, сельскохозяйственная техника, температурно-временной режим, физико-механические свойства, коррозионная стойкость, эксплуатационные свойства.

Annotatsiya. Ushbu ishda o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish mashinalari uchun mo‘ljallangan polimer kompozitsion materiallar va rezervuarlarni rotatsion shakllantirish texnologiyasi tadqiq qilingan. Polimer kompozitsiyalarining kimyoviy va korroziyaga chidamliligi, hamda ularning ishlash muddati tahlil qilingan. Rotatsion shakllantirish jarayonining asosiy bosqichlari — xom ashyoni yuklash, qizdirish, shakllantirish, sovitish va tayyor mahsulotni olish — o‘rganilgan. Harorat, vaqt va material xossalarining mahsulot sifatiga ta’siri aniqlangan. Olingan natijalar asosida yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega

ISSN 3030-3907

rezervuarlarni ishlab chiqarish uchun optimal texnologik rejimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kompozitsion polimer materiallar, rotatsion shakllantirish, rezervuar, termoplastik polimerlar, kukunsimon kompozitsiya, polietilen, o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish, qishloq xo‘jaligi texnikasi, harorat-vaqt rejimi, fizik-mexanik xususiyatlar, korroziyaga chidamlilik, ekspluatatsion xususiyatlar.

Annotation. This study examines polymer composite materials and the rotational molding technology for tanks used in agricultural chemical protection machines. The effects of temperature, time, and polymer powder properties on product quality were analyzed. Optimal technological parameters ensuring high durability and chemical resistance were developed. The results can be applied in designing and manufacturing polymer tanks for agricultural equipment.

Keywords: composite polymer materials, rotary molding, reservoir, thermoplastic polymers, powder composition, polyethylene, chemical plant protection, agricultural machinery, temperature-time regime, physico-mechanical properties, corrosion resistance, operational properties.

ВВЕДЕНИЕ.

В современных условиях развития сельского хозяйства особое значение приобретает создание надежных, химически стойких и долговечных резервуаров для машин защиты растений. Традиционные металлические емкости подвержены коррозии, воздействию агрессивных химических сред и имеют сравнительно ограниченный срок службы. В связи с этим возрастает необходимость разработки новых композиционных полимерных материалов и эффективных технологий их переработки.

Одним из перспективных способов изготовления крупногабаритных полимерных резервуаров является метод ротационного формования, позволяющий получать изделия сложной формы с высокими эксплуатационными характеристиками. Поэтому разработка состава полимерных композиций и оптимизация технологических режимов ротационного формования резервуаров для машин химической защиты растений является актуальной научно-технической задачей.

ЦЕЛЬЮ ИССЛЕДОВАНИЯ. является разработка эффективных составов композиционных полимерных материалов и совершенствование технологии ротационного формования резервуаров для машин химической защиты растений с повышенными эксплуатационными характеристиками.

Для достижения поставленной цели были определены следующие задачи:

ISSN 3030-3907

- анализ современных полимерных композиционных материалов, применяемых для изготовления резервуаров;
- исследование физико-механических и технологических свойств порошкообразных термопластичных композиций;
- изучение влияния температурно-временных режимов ротационного формования на качество изделий;
- определение оптимальных параметров технологического процесса (нагрев, вращение, охлаждение);
- разработка рациональной технологии получения резервуаров с повышенной прочностью, коррозионной стойкостью и долговечностью;
- оценка эксплуатационных характеристик полученных изделий.

В мире проводятся научные исследования по созданию эффективных составов композиционных полимерных материалов и разработке методов их получения для производства резервуаров машин химической обработки не только хлопка, но и других сельскохозяйственных культур, по изучению физико-механических, технологических и эксплуатационных свойств емкостей на основе разработанной полимерной композиций. В этом аспекте, важное значение имеет в том числе, создание крупногабаритных резервуаров для распыления, хранения и транспортировки химических препаратов к посевам, использование коррозионностойких композиционных полимерных материалов для повышения долговечности резервуаров на основе полимерной композиции до 10-15 лет и долговременной защиты металлоконструкций сельскохозяйственной техники и механизмов [1].

В этом аспекте разработка эффективного состава полимерных композиций и технология получения из них резервуаров для применения в машинах по химической обработке хлопчатника имеет большое значение.

В связи с этим разработана составов полимерных композиций и технология получения из них резервуаров для применения в машинах по химической обработке хлопчатника.

Особенности технологического процесса ротационного формования резервуаров зависят от природы и физического состояния перерабатываемого порошкового термопластичного полимерного материала [2].

На основе комплексного анализа результатов исследований разработали технологический процесс формирования резервуаров из порошковых термопластичных полимерных материалов для применения в тракторных системах для химической защиты хлопчатника.

ISSN 3030-3907

Технологический процесс ротационного формования порошкообразных композиций на основе термопластов состоит из следующих четырех этапов.

Этап I. Загрузка. Сырье (порошкообразная композиция на основе полиэтилена) загружается в подготовленную форму. Предварительная подготовка формы заключается в покрытии внутренней ее поверхности вручную или через распылитель разделительной смазки для облегчения выемки готового изделия. В качестве разделительных смазок применяются, в основном, различные кремнеорганические соединения (силиконовое масло, силиконовая эмульсия, силиконовый вазелин КВ-3), восковая эмульсия и разделитель. Количество сырья, загружаемого в одну форму, определяется заранее, исходя из требуемой толщины стенок получаемого изделия.

Этап 2. Нагрев формы и формование изделия. Закрытая форма, заполненная определенным количеством порошкообразного сырья, приводится во вращение вокруг двух взаимно перпендикулярных осей. При этом, скорость вращения не превышает 20 об/мин, а отношение скоростей обычно составляет 4:1.

По нашим данным, геометрия формы (отношение диаметра к высоте цилиндрических форм) очень мало влияет на оптимальное отношение скоростей.

Выбор температуры нагрева на втором этапе технологического процесса зависит от двух причин - от природы перерабатываемого сырья и от вида теплопередачи в установке ротационного формования. Так, для основного сырья ротационного формования - порошкообразной композиции на основе полиэтилена низкой плотности - в установках с конвекционным нагревом температура в камере составляет 200-480^{0}C, причем наиболее употребляемый интервал температур 230-370^{0}C. Интенсивная теплопередача в установках с двустенными формами позволяет получать качественные изделия при температуре 180-220^{0}C.

Таким образом, температура переработки полимерной композиции методом ротационного формования высока, поэтому особое значение приобретает правильное определение времени выдержки при нагреве. Эта величина оценивается в широких пределах, так как она зависит от ряда факторов. В среднем время выдержки при нагреве составляет 5-20 мин (в зависимости от толщины стенки изделия). Как показывают экспериментальные исследования, на стадии нагрева необходимо, чтобы внутренняя полость формы соединялась с внешней средой: для некоторых перерабатываемых полимеров (полиамиды и т.д.) при высокой температуре

ISSN 3030-3907

переработки для выполнения этого требования возникает необходимость вентиляции внутренней полости нагретым инертным газом.

Этап 3. Охлаждение. После стадии нагрева наступает стадия охлаждения, во время которой форма вращается вокруг двух осей. На стадии охлаждения необходимо, чтобы внутренняя полость формы сообщалась с внешней средой. Это предохраняет неостывшее ещё изделие от деформации под действием разности давлений. Охлаждение - наименее изученный этап технологического процесса ротационного формования. Порядок, длительность и другие особенности процесса охлаждения выбираются в каждом конкретном случае экспериментально. При этом следует отметить, что этап охлаждения сильно влияет на структуру и свойства изделий. Так, слишком быстрое охлаждение приводит к образованию структур с малым содержанием кристаллитов, что выражается в понижении прочности материала.

Этап 4. Выгрузка готового изделия. Подобно загрузке сырья, выгрузка готового изделия в большинстве установок ротационного формования производится вручную. Таким образом, исследованы сыпучие свойства порошковых композиционных полимерных композиций и температурно-временные режимы формования композиций на основе полимерных материалов, определены их гранулометрический состав и зависимости между касательными и нормальными напряжениями композиций при движении по поверхности различных материалов, а также изменения коэффициента внутреннего трения порошкообразных композиций от температуры материала. Установлены оптимальные технологические режимы получения резервуаров из композиционных полимерных материалов методом ротационного формования и разработан технологический процесс ротационного формования резервуаров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В результате проведённых исследований разработаны составы композиционных полимерных материалов и усовершенствована технология ротационного формования резервуаров для машин химической защиты растений. Установлено, что выбор оптимальных температурно-временных режимов формования, а также учет сыпучих и физико-механических свойств порошкообразных полимерных композиций позволяют получать изделия с высокими эксплуатационными характеристиками. Разработанный технологический процесс обеспечивает получение резервуаров, отличающихся химической стойкостью, коррозионной устойчивостью, достаточной прочностью и долговечностью. Полученные результаты могут быть использованы при производстве полимерных резервуаров для

ISSN 3030-3907

сельскохозяйственной техники и способствуют повышению надежности и срока службы оборудования.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Негматов А.С. Гулямов Г., Болласов К.Т., Халимжанов Т.С., Абдурахманов А.Г. Эффективность применения антифрикционно-износостойких композиционных материалов в рабочих органах погрузочно-разгрузочных и транспортных средств механизации. // Сб.тр. Республ.научно-практ. конф. «Пути развития транспортных коммуникаций РУз».-Ташкент, ТАДИ, 17 мая 2002.-С.122-126.
2. Юлдашев Б.Б., Негматов С.С., Кучкаров У.К., К.С. Негматова, С.У. Султанов, Ш.А. Бозорбоев, Ш.Х. Жовлиев. Исследование влияния агрессивных сред и атмосферных факторов на защитные свойства термопластичных полимерных материалов, применительно для изгатовления резервуаров ротационным способом. // Композиционные материалы. Ташкент, 2023, №1, - С. 215-217.
3. Юлдашев Б.Б Изучение влияния различных минеральных антипиренов на огнестойкость древесно-пластиковых и древесноволокнистых плитных материалов //Ж.Композиционные материалы, Ташкент,2025. №3,С.47-49
4. Yuldashev B. B. O‘simliklar va g‘o‘zaga kimyoviy ishlov berish texnologiyasi va mexanizatsiyalash, kompozit polimer materiallardan foydalangan holda ularning samaradorligini oshirish //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – Т. 59. – №. 4. – С. 201-204.
5. Kenjayev T. N., Mamatkulov R. S., Abdukaxxarov A. A. ZANGLAMAYDIGAN PO ‘LAT QUVURLARNI KOMBINATSYALASHGAN LAZER VA YOYLI PAYVANDLASH //InnoRes. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 25-39.
6. Baxromovich Y.B.Poliolefinlarni to‘ldiruvchilar bilan modifikatsiyalash //InnoRes. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 40-47.
7. Nodir T. et al. Ways to increase the strength of the surface of the parts //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 11. – С. 380-386.
8. Fazilov D. S., Mamatqulov R. S. o‘g‘li, Kenjayev, TN o‘gli, & Abdukaxxarov, AA o‘g‘li.(2024). Boyitish fabrikalari jihozlarining yeyilish sabablari //Science and Education. – Т. 5. – №. 4. – С. 146-151.
9. Юлдашев Б. Б., Негматова К. С., Халимжонов Т. С. Исследование влияния ядохимикатов на свойства полимерных материалов //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 4. – №. 2 (119). – С. 41-43.

ISSN 3030-3907

ЎЗБЕКИСТОНДА МАШИНАВИЙ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИНИ АХБОРОТ-ТАҲЛИЛИЙ ФАОЛИЯТДА ҚЎЛЛАШДАГИ МУАММОЛАР ХУСУСИДА

Ахмедов Фирдавс Камол ўғли
Мустақил тадқиқотчи
E-mail: tashanovazizbek76@gmail.com

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда машинавий ўқитиш усулларини ахборот-таҳлилий фаолиятда қўллашдаги асосий муаммолар таҳлил қилинади. Тадқиқот норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, халқаро ташкилотлар маълумотлари, соҳавий кейслар ва муаллиф сўровномаси натижаларига асосланади. Таҳлил МЎ самарадорлиги маълумотлар сифати, кадрлар салоҳияти, институционал бошқарув ва методологик тайёргарликка бевосита боғлиқлигини кўрсатади. Мақолада муаммолар иерархик таснифланиб, уларни бартараф этиш бўйича таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: машинавий ўқитиш, ахборот-таҳлилий фаолият, сунъий интеллект, маълумотлар сифати, давлат бошқаруви, институционал механизм, алгоритмик шаффофлик.

Аннотация. В статье анализируются основные проблемы применения методов машинного обучения в информационно-аналитической деятельности Узбекистана. Исследование основано на нормативно-правовых актах, данных международных организаций, отраслевых кейсах и результатах авторского опроса. Анализ показывает, что эффективность машинного обучения напрямую зависит от качества данных, кадрового потенциала, институционального управления и методологической готовности. В статье проблемы классифицируются в иерархическом порядке и предлагаются научно-практические меры по их преодолению.

Ключевые слова: машинное обучение, информационно-аналитическая деятельность, искусственный интеллект, качество данных, государственное управление, институциональный механизм, алгоритмическая прозрачность.

Abstract. The article analyzes the main problems of applying machine learning methods in information and analytical activities in Uzbekistan. The study is based on legal and regulatory documents, data from international organizations, sectoral case studies, and the results of the author's survey. The analysis shows that the effectiveness of machine learning depends directly on data quality, human capital, institutional governance, and methodological readiness. The article classifies these problems hierarchically and proposes scientific and practical measures to address them.

Keywords: machine learning, information and analytical activity, artificial intelligence, data quality, public administration, institutional mechanism,

algorithmic transparency.

КИРИШ.

Рақамли трансформация шароитида ахборот-таҳлилий фаолиятнинг мазмуни тубдан ўзгариб, давлат бошқаруви, иқтисодий режалаштириш, хавфсизлик, солиқ маъмурияти, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий сиёсатда қарорлар тобора кўпроқ катта маълумотлар, тезкор таҳлил ва прогнозлаш натижаларига таянмоқда. Бу жараёнда машинавий ўқитиш усуллари ахборотни қайта ишлаш, яширин қонуниятларни аниқлаш, хавфларни баҳолаш ва сценарийларни прогноз қилишнинг муҳим воситасига айланмоқда.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда электрон ҳукумат, очиқ маълумотлар, рақамли хизматлар ва сунъий интеллект (СИ) технологияларини жорий этишга қаратилган сиёсат изчил амалга оширилмоқда. “Рақамли Ўзбекистон - 2030” стратегияси иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий соҳа ва давлат бошқаруви тизимини рақамли ривожлантиришга қаратилган асосий стратегик ҳужжат сифатида қабул қилинди.[7] 2024 йилда тасдиқланган СИ технологияларини 2030 йилгача ривожлантириш стратегияси эса ушбу теҳнология маҳсулотлари ва хизматлари бозорини кенгайтириш, соҳавий татбиқларни кучайтириш ва Ўзбекистонни ҳукуматнинг СИга тайёрлик индексида илғор давлатлар қаторига олиб чиқиш вазифаларини белгилади.[8]

Бироқ стратегик мақсадларнинг мавжудлиги МЎни ахборот-таҳлилий фаолият (АТФ)га автоматик равишда самарали жорий этишни англатмайди. Бу жараён сифатли маълумот, соҳалараро кадрлар, ҳуқуқий-институционал регламентлар, идоралараро маълумот алмашинуви, методологик баҳолаш ва инсон назорати билан бевосита боғлиқ. Шу сабабли мақоланинг мақсади Ўзбекистонда МЎ усулларини АТФда қўллашдаги асосий муаммоларни тизимли таҳлил қилиш ва уларни бартараф этиш бўйича илмий асосланган тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

МЎни АТФга татбиқ этиш масаласи бир нечта илмий ёндашувлар кесишмасида ўрганилади. Биринчидан, билимларни кашф этиш ва маълумотларни қазиб олишга оид тадқиқотларда маълумотларни танлаш, тозалаш, моделлаштириш ва талқин қилиш ягона аналитик занжир сифатида

[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон “Рақамли Ўзбекистон - 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони // Lex.uz.

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилгача ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори // Lex.uz.

ISSN 3030-3907

қаралади. Файяд, Пятецкий-Шапиро ва Смит ёндашуви маълумотдан билимга ўтишни босқичли ва итератив жараён сифатида изоҳлайди.[9]

Иккинчидан, замонавий МЎ адабиётида маълумот сифати модел самарадорлигининг асосий шарти ҳисобланади. Куҳн ва Жонсонга кўра, белгиларни танлаш, маълумотни тайёрлаш, шовқинли ёзувларни тозалаш ва репрезентативликни таъминлаш модел натижаларининг ишончлилигига бевосита таъсир кўрсатади. Шунингдек, алгоритмик оғиш ва адолатлиликка оид тадқиқотлар маълумотлардаги номутаносибликлар ижтимоий жиҳатдан нохолис қарорларга сабаб бўлиши мумкинлигини кўрсатади.[10]

Учинчидан, давлат бошқарувида СИ ва МЎни қўллашда хавфларни бошқариш, шаффофлик, ҳисобдорлик ва инсон назорати муҳим аҳамиятга эга. NIST (АҚШ Миллий стандартлар ва технологиялар институти) томонидан рискка асосланган бошқарув циклини таклиф этса, OECD AI Policy Observatory давлат секторида СИни жорий этишда инновация, инсон ҳуқуқлари, хавфсизлик ва ишончлилик мувозанатини таъминлаш зарурлигини таъкидлайди.[11]

Мақолада норматив-ҳуқуқий таҳлил, контент-таҳлил, қиёсий ва кейс-таҳлил, SWOT-таҳлил, тафовут таҳлили ҳамда ўтказилган сўровномаси натижаларини умумлаштириш усулларидан фойдаланилди. Эмпирик асосни Ўзбекистонда рақамли трансформация ва СИ соҳасида қабул қилинган ҳужжатлар, халқаро индекслар, очиқ маълумотлар, соҳавий пилотлар ва АТФ мутахассислари жавоблари ташкил этди.

Ўзбекистонда МЎни АТФда қўллашнинг бугунги ҳолати беш мезон асосида баҳоланиши мақсадга мувофиқ: норматив-стратегик база, институционал муҳит, рақамли инфратузилма, соҳавий татбиқлар ва кадрлар салоҳияти. Ушбу мезонлар таҳлилни фақат технология мавжудлиги билан чекламай, МЎ ечимларининг қарор қабул қилиш жараёнига реал таъсирини баҳолаш имконини беради (1-жадвал).

1-жадвал.

Жорий ҳолатни баҳолашнинг методологик мезонлари

Мезон	Таҳлил йўналиши	Асосий савол
Нормати в-стратегик база	Қонунлар, фармонлар, стратегиялар	МЎ натижаси расмий қарор ва таҳлилий

[9] Fayyad U., Piatetsky-Shapiro G., Smyth P. From Data Mining to Knowledge Discovery in Databases // AI Magazine. 1996. Vol. 17(3). P. 37-54.
[10] Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N. et al. A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning // ACM Computing Surveys. 2021/2022. Vol. 54(6). P. 1-35.
[11] OECD.AI Policy Observatory. Uzbekistan country profile. Paris: OECD, 2024-2026.

ISSN 3030-3907

Мезон	Таҳлил йўналиши	Асосий савол
		маҳсулотга қандай киритилади?
Институ ционал муҳит	Вазирликлар, идоралар, лойиҳа жамоалари	Координация ва жавобгарлик занжири аниқми?
Рақамли инфратузилма	Маълумотлар, булут, интеграция, ҳисоблаш қуввати	Маълумотлар МЎ учун тайёр ва ишончлими?
Соҳавий татбиқлар	Солиқ, харидлар, аграр, тиббиёт ва бошқа кейслар	Пилот натижа амалиётга айланяптими?
Кадрлар салоҳияти	Техник, таҳлилий ва соҳавий компетенциялар	Модел натижасини тушунадиган мутахассислар етарлими?

Норматив-стратегик база бўйича ижобий динамика мавжуд. СИ стратегиясида 2030 йилга қадар СИ маҳсулотлари ва хизматлари ҳажмини ошириш, давлат хизматларида СИга асосланган ечимлар улушини кенгайтириш, илмий лабораториялар ташкил этиш ва юқори қувватли ҳисоблаш инфратузилмасини ривожлантириш вазифалари белгиланган.[12] Бироқ ушбу мақсадларни амалий механизмларга айлантириш, хусусан, моделларни баҳолаш, аудит қилиш, сертификациялаш ва расмий таҳлилий ҳужжатларда қўллаш тартибини белгилаш ҳали долзарб вазифа бўлиб қолмоқда

Институционал муҳитда ҳам ижобий силжиш кузатилмоқда. Рақамли технологиялар вазирлиги мувофиқлаштирувчи субъект сифатида фаолият юритмоқда, IT Park резидентлари, университет лабораториялари ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик кенгаймоқда. 2025 йил давомида IT Park экотизимида резидент компаниялар сони сезиларли ошди: январь-май ойларида 636 та янги компания қўшилиб, резидентлар умумий сони 2 846 тага етган бўлса, кейинги ойларида эса экспортга йўналтирилган ва хорижий капитал иштирокидаги компаниялар улуши янада кенгайди[13]. Ушбу рақамлар Ўзбекистонда рақамли меҳнат бозори ва IT-аутсорсинг экотизими жадал ривожланаётганини кўрсатади.

Шу билан бирга, мазкур ўсиш АТФ учун зарур бўлган **“техник +**

[12] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон қарори, 1-илова: Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилгача ривожлантириш стратегияси // Lex.uz.
[13] Over 280 Export-Oriented Companies Join IT Park in Five Months // Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 10.06.2025.

ISSN 3030-3907

соҳавий + таҳлилий” талабларни тўлиқ шаклланганини англатмайди. МЎ натижаларини таҳлилий жараёнга интеграция қила оладиган соҳалараро кадрлар масаласи ҳали ҳам долзарблигича қолмоқда

Халқаро рейтинглар ҳам ижобий динамикани қайд этмоқда. Oxford Insightsнинг Government AI Readiness Index 2025 натижаларига кўра, Ўзбекистон 54,69 балл билан 62-ўринни эгаллаган. Бу 2024 йилга нисбатан ўсишни кўрсатади[14]. Бироқ рейтингдаги ўсиш давлат секторининг барча бўғинларида МЎ ечимлари самарали ишлаяпти, деган хулосани бермайди. Амалиётда маълумот сифати, идоралараро интеграция ва кадрлар муаммоси сақланиб қолмоқда

Соҳавий татбиқлар эса нотекис ривожланмоқда. Солиқ маъмурияти, давлат харидлари, қишлоқ хўжалиги ва тиббий тасвирларни таҳлил қилишда муайян пилотлар шаклланган бўлса-да, ижтимоий ёрдам, хавфсизлик аналитикаси, ҳудудий прогнозлаш ва стратегик режалаштиришда МЎ ечимлари кўпинча ғоя, эксперимент ёки чекланган пилот даражасида қолмоқда. Бу муаммо технологиянинг ўзи эмас, балки маълумотлар сифати, ҳуқуқий регламентлар ва иш жараёнларига интеграция етарли эмаслиги билан боғлиқ.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, мазкур йўналишдаги муаммоларни иерархик тизим сифатида қараш лозим. Биринчи даражадаги муаммолар асосий характерга эга бўлиб, бошқа чекловларни келтириб чиқаради. Иккинчи даражадаги муаммолар ушбу пойдеворий чекловларни кучайтиради. Учинчи даражада эса пилотларнинг масштаблашмаслиги, модел натижасини нотўғри талқин қилиш ва ишонч инқирози каби амалий оқибатлар пайдо бўлади (2-жадвал).

2-жадвал.

Ўзбекистонда МЎни ахборот-таҳлилий фаолиятга жорий этишдаги муаммолар таснифи

Даража	Муаммо	Мазмуни	Асосий оқибат
1-даража	Маълумотлар сифати	Маълумотлар тарқоқ, форматлар турлича, МЎ-тайёр датасетлар етари эмас	Модел хулосаси ишончсиз бўлади
	Кадрлар салоҳияти	Техник ва соҳавий билим ҳамда таҳлилий фикрлайдиган мутахассислар кам	Натижа нотўғри талқин қилинади

[14] Oxford Insights. Government AI Readiness Index 2025. Malvern: Oxford Insights, 2025.

ISSN 3030-3907

Даража	Муаммо	Мазмуни	Асосий оқибат
	Институционал бошқарув	Регламент, аудит, жавобгарлик ва мониторинг механизмлари тўлиқ эмас	Пилотлар амалиётга ўтмайди
2-даража	Идоралараро координация	Маълумот ва тажриба алмашиш тизими заиф	Лойиҳалар такрорланади ёки секинлашади
	Технологик чекловлар	GPU/HPC ресурслари ва хавфсиз интеграция муҳити чекланган	Масштаблаш қийинлашади
	Методологик тайёргарлик	Вазифани формаллаштириш, баҳолаш ва тушунтириш мезонлари ягона эмас	“Тўғри рақам - нотўғри маъно” хавфи кучаяди
3-даража	Ишонч муаммоси	Қора қути моделлар, ҳуқуқий ноаниқлик ва аудит етишмаслиги	Қарор қабул қилувчи субъект МЎга таянмайди

Маълумотлар сифати ва стандартлаштириш муаммоси. МЎ учун асосий ресурс маълумот ҳисобланади, бироқ маълумотнинг мавжудлиги унинг МЎ учун тайёрлигини англатмайди. Давлат органларида маълумотлар турли форматларда, турли янгиланиш даврийлигида ва баъзан PDF, Word, сканер ёки расм кўринишида сақланиши машинали таҳлил учун зарур тозалаш, белгилаш, нормаллаштириш ва бирлаштириш ишларини мураккаблаштиради. Сифатсиз маълумот асосида ўқитилган модель ташқи жиҳатдан юқори аниқлик кўрсатса ҳам, амалиётда ишончсиз хулоса бериши мумкин.

АТФда эса бундай хато нотўғри бошқарув қарори, ресурсларни ноадолатли тақсимлаш ёки хавфларни нотўғри баҳолашга олиб келади. Маълумотлар сифати муаммоси асосан тўлиқсизлик, эскириш ва репрезентативлик етишмаслигида намоён бўлади; алгоритмик адолатлиликка оид тадқиқотлар ҳам моделдаги кўплаб хатолар маълумот таркибидаги номутаносибликлар билан боғлиқлигини кўрсатади. Шу боис Ўзбекистонда МЎни ривожлантиришда биринчи вазифа алгоритмларни кўпайтириш эмас, балки ягона маълумотлар луғати, метамаълумотлар стандарти, маълумот эгаси ва унинг масъулияти, янгиланиш частотаси ҳамда сифат индикаторларини расмийлаштириш орқали маълумотлар бошқарувини стандартлаштиришдан иборат бўлиши лозим.

ISSN 3030-3907

Кадрлар ва соҳалараро компетенциялар етишмаслиги. МЎни АТФга татбиқ этишда кадрлар муаммоси фақат дастурчи ёки дата-сайентистлар сони билан эмас, балки МЎ алгоритмларини тушунадиган, маълумотлар билан ишлай оладиган ва бир вақтнинг ўзида давлат бошқаруви, ҳуқуқий муҳит, хавфсизлик ёки соҳавий сиёсат контекстини англайдиган мутахассислар етишмаслиги билан боғлиқ. Амалда таҳлилчилар МЎ модели натижасини, эҳтимолий хулоса, сохта корреляция, таҳдидлар даражасини талқин қилишда қийналади, техник мутахассислар эса алгоритмни қургани ҳолда таҳлилий вазифанинг мазмуний чегараларини тўлиқ англамаслиги мумкин.

Сўровнома натижалари ҳам МЎ лойиҳалари самарадорлигига маълумотлар сифати, институционал бошқарув ва кадрлар салоҳияти технологик инфратузилмадан кўра кучлироқ таъсир қилишини кўрсатади. Шу боис ахборот-таҳлилий фаолият учун фақат дастурлаш курслари эмас, балки МЎ натижасини техник баҳолаш, соҳавий мазмун билан боғлаш ва қарор қабул қилувчи шахсга тушунарли етказишга қаратилган “маълумотлар таҳлили - натижаларни баҳолаш - МЎ моделини тушунтириш” мослаштирилган модели зарур.

Ҳуқуқий-институционал механизмлар ва ишонч муаммоси. Давлат бошқарувида МЎни қўллаш самарадорлик билан бирга ҳуқуқий жавобгарлик, шахсий маълумотлар ҳимояси, киберхавфсизлик, шаффофлик ва инсон ҳуқуқлари масалаларини ҳам қамраб олади. Ўзбекистонда шахсий маълумотлар ва киберхавфсизлик бўйича умумий ҳуқуқий асослар мавжуд бўлса-да[15], МЎ натижаларини расмий таҳлилий ҳужжатларда қўллаш, алгоритм тавсиясини тасдиқлаш, хатолик учун жавобгарлик, модель аудити ва қайта ўқитиш тартиби ҳали тўлиқ регламентлашмаган.

Шу сабабли давлат органларида МЎга нисбатан эҳтиёткор муносабат сақланмоқда. Халқаро амалиётда бу муаммоларни камайтириш учун **хавфга асосланган бошқарув**, **алгоритмик таъсирни баҳолаш**, **инсон назорати** ва **модель аудити** қўлланилади. Айниқса, фуқаро ҳуқуқларига таъсир қилувчи юқори хавфли соҳаларда этик-ҳуқуқий назорат муҳим аҳамиятга эга.

Ишонч муаммоси “қора қути” моделларида кучлироқ намоён бўлади. Модель хулосаси қандай шаклланган тушунарсиз бўлса, таҳлилчи, раҳбар ёки фуқаро унинг натижасига ишонмайди. Шунинг учун ахборот-таҳлилий фаолиятда **тушунтириладиган сунъий интеллект**, **модель паспорти**,

[15] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлдаги ЎРҚ-547-сон “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонуни // Lex.uz.

ISSN 3030-3907

маълумот манбаи, **хатолик чегараси** ва **инсон назорати** мажбурий талаб сифатида белгиланиши лозим.

Идоралараро координация ва пилотдан амалиётга ўтиш муаммоси. МЎ лойиҳалари кўп ҳолларда бир идора доирасида пилот сифатида бошланади. Бироқ улар маълумотлар, ҳуқуқий асос, масъул субъект, KPI ва кенгайтириш мезонлари билан таъминланмаса, амалиётга жорий этилмай, тажриба даражасида қолиб кетади. Идоралараро координация заифлиги эса бир вазирликда ишлаб чиқилган моделнинг бошқа идора маълумотлари билан тўлиқ ишлашини чеклайди.

Маълумот алмашинуви формати, API талаблари, махфийлик чекловлари ва маълумот сифати мезонларининг ҳар хиллиги моделни умуммиллий даражада кенгайтиришни қийинлаштиради. Шу боис ҳар бир МЎ пилоти учун “пилот паспорти” жорий этилиши мақсадга мувофиқ. Унда лойиҳа мақсади, маълумот манбалари, ҳуқуқий асос, KPI, масъул орган, инсон назорати, хавф даражаси ва кенгайтириш шартлари белгиланиши лозим. Бу пилот натижасини холис баҳолаш ва уни амалиётга ўтказиш учун аниқ мезон яратади.

МЕТОДОЛОГИК ВА МОДЕЛЛИ ХАТАРЛАР. МЎни таҳлилий жараёнларда қўллашда методологик тайёргарлик етарли бўлмаса, модель берган рақамлар нотўғри талқин қилиниши мумкин. Масалан, бир ҳудудда хавф юқори кўрсатилиши у ер ҳақиқатан хавфли дегани эмас; бу маълумотлар кўпроқ йиғилгани ёки мурожаатлар фаолроқ қайд этилгани билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкин.

Шунинг учун МЎ лойиҳасида аввало таҳлилий вазифа тўғри белгиланиши кераклиги, айниқса модель тавсия беряптими ёки қарор қабул қиляптими, хатолик оқибати қандай, натижани инсон қайси босқичда текширади? Бу саволлар аниқ бўлмаса, техник жиҳатдан аниқ модель ҳам хато таҳлилий хулосага олиб келиши мумкин. Натижада, ҳар бир модель фақат техник аниқлик билан эмас, балки тушунарлилик, соҳавий мослик, қарорга таъсир, инсон назорати ва амалий фойдалилик нуқтаи назаридан ҳам баҳоланиши лозим.

Таҳлиллар кўрсатадики, Ўзбекистонда МЎни АТФга жорий этишда асосий тўсиқ технология етишмаслиги эмас, балки институционал ва методологик тайёргарликнинг пастлигидир. Интернет қамрови, рақамли хизматлар, IT Park экотизими ва СИ стратегияси зарур асос яратмоқда, аммо сифатли маълумотлар, соҳалараро кадрлар, ягона регламентлар ва ишончли модель бошқарувисиз технологик инвестициялар кутилган самарани бермайди.

ISSN 3030-3907

Шу сабабли, МЎни босқичма-босқич институционаллаштириш мақбул, хусусан, давлат маълумотларини баҳолаш, устувор соҳаларда маълумотлар стандарти, API-интеграция ва модель паспортини жорий этиш, юқори хавфли соҳаларда аудит ва инсон назоратини мажбурий қилиш лозим. Сўровнома натижалари эса СИ воситаларидан шахсий фойдаланиш юқори, ташкилотларда тизимли жорий этиш пастлигини кўрсатади; демак, ички регламентлар ва масъулият механизми шаклланмас экан, шахсий фойдаланиш расмий таҳлилий самарага айланмайди.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Ўзбекистонда МЎ усулларини АТФда қўллаш учун норматив-стратегик пойдевор шаклланган, рақамли инфратузилма ривожланмоқда ва айрим соҳаларда амалий пилотлар пайдо бўлмоқда. Шу билан бирга, мазкур жараёнда маълумотлар сифати, кадрлар салоҳияти, институционал бошқарув, идоралараро координация, методологик тайёргарлик ва ишонч масалалари ҳал қилувчи чекловлар сифатида сақланиб қолмоқда.

Биринчи таклиф - давлат маълумотлари учун **МЎ-тайёрлик стандартини** жорий этиш. Ҳар бир датасет бўйича формат, тўлиқлик, янгиланиш частотаси, метамаълумотлар, масъул субъект ва фойдаланиш чекловлари акс этган реестр шакллантирилиши лозим. Бу маълумотларни қайта ишлаш харажатини камайтиради ва моделлар ишончлилигини оширади.

Иккинчи таклиф - АТФ учун **соҳалараро кадрлар тайёрлаш дастурини** ишлаб чиқиш. Унда статистик таҳлил, МЎ асослари, маълумотлар этикаси, ҳуқуқий чекловлар, соҳавий таҳлил ва модель натижасини тушунтириш кўникмалари бирлаштирилиши мақсадга мувофиқ.

Учинчи таклиф - **хавф даражасига асосланган ҳуқуқий-этик назорат механизмини** шакллантириш. Паст хавфли ечимлар ички тест ва рўйхатдан ўтказиш билан чекланиши, ўрта хавфли ечимлар инсон назорати ва мунтазам аудитдан ўтиши, юқори хавфли моделлар эса мустақил аудит ва алгоритмик таъсирни баҳолаш асосида жорий этилиши лозим.

Тўртинчи таклиф - идоралараро маълумот алмашинуви учун **API асосида ягона аналитик интеграция муҳитини** яратиш. Бу маълумотларни марказлаштиришдан кўра, уларни стандартлашган ва хавфсиз алмашиш орқали ишончли таҳлилий занжирни шакллантиришга хизмат қилади.

Умуман, МЎни таҳлилий жараёнларда самарали қўллаш учун Ўзбекистонда “аввал маълумот ва институт, кейин алгоритм” принципига таяниш мақсадга мувофиқ. Чунки сифатли маълумот, масъул кадр, аниқ

ISSN 3030-3907

регламент ва ишончли бошқарув механизми мавжуд бўлмас экан, энг илғор модель ҳам барқарор аналитик натижа бермайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон “Рақамли Ўзбекистон - 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони // Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилгача ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги қарори // Lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлдаги ЎРҚ-547-сон “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида” ги Қонуни // Lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ-764-сон “Киберхавфсизлик тўғрисида” ги Қонуни // Lex.uz.
5. OECD.AI Policy Observatory. Uzbekistan country profile. Paris: OECD, 2024-2026.
6. Oxford Insights. Government AI Readiness Index 2025. Malvern: Oxford Insights, 2025.
7. IT Park Uzbekistan. Results of 2023. Transformation and plans for 2024. Tashkent, 2024.
8. Fayyad U., Piatetsky-Shapiro G., Smyth P. From Data Mining to Knowledge Discovery in Databases // AI Magazine. 1996. Vol. 17(3). P. 37-54.
9. Kuhn M., Johnson K. Feature Engineering and Selection: A Practical Approach for Predictive Models. Boca Raton: CRC Press, 2019/2022.
10. Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N. et al. A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning // ACM Computing Surveys. 2021/2022. Vol. 54(6). P. 1-35.
11. National Institute of Standards and Technology. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). Gaithersburg: NIST, 2023.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИММУННОЙ И ГОРМОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У ДЕТЕЙ С ОСЛОЖНЕННОЙ ПНЕВМОНИЕЙ

Структура синтезированного соединения была подтверждена методом инфракрасной (ИК) спектроскопии. Результаты ИК-спектра свидетельствуют о наличии гидроксильной группы (–OH), аммониевого центра, а также связей C–N и C–O, что достоверно подтверждает образование β-гидроксиэтилтрибутиламмоний хлорида.

Изучение физических свойств показало, что β-гидроксиэтилтрибутиламмоний хлорид представляет собой вещество желтоватого цвета с кристаллической структурой, обладающее гигроскопическими свойствами. Температура плавления составляет 236–239 °C, что свидетельствует о высокой степени чистоты и стабильности кристаллической структуры соединения.

ISSN 3030-3907

В целом полученные результаты показывают, что оптимизация условий реакции этиленхлоргидрина с трибутиламином, включая выбор растворителя, температуры и соотношения реагентов, позволяет существенно повысить выход целевого продукта.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ.

С целью установления оптимальных условий синтеза β-гидроксиэтилтрибутиламмоний хлорида было изучено влияние природы растворителя, температуры, продолжительности реакции и стерических факторов на выход целевого продукта.

Установлено, что природа растворителя оказывает решающее влияние на протекание реакции. В среде толуола при температуре кипения (2 часа) выход составил 38 %, что связано с низкой полярностью растворителя. При переходе к более полярному растворителю — хлороформу — выход увеличился до 62 %.

Наиболее высокие значения выхода (до 69 %) были достигнуты при использовании этилацетата в качестве растворителя при мольном соотношении реагентов 1:1 и комнатной температуре. При этом наблюдалось самопроизвольное нагревание реакционной смеси, что свидетельствует об экзотермическом характере процесса.

Показано, что реакции, протекающие по механизму SN2, значительно ускоряются в полярных растворителях за счёт стабилизации переходного состояния. В то же время увеличение объёма алкильных заместителей у атома азота (как в случае трибутиламина) приводит к возрастанию стерических препятствий и снижению скорости реакции по сравнению с менее замещёнными аминами.

Таблица 1.

Влияние растворителя на выход продукта

Растворитель	**Температура, °C**	**Время, ч**	**Мольное соотношение**	**Выход, %**
Толуол	кипение	2	1:1	38
Хлороформ	кипение	2	1:1	62
Этилацетат	комнатная	2–3	1:1	69

Таким образом, установлено, что увеличение полярности растворителя способствует росту выхода продукта. Этилацетат является оптимальным растворителем для данной реакции, обеспечивая наилучшее сочетание растворяющей способности и условий для протекания SN2-механизма.

ISSN 3030-3907

Структура синтезированного соединения была подтверждена методом ИК-спектроскопии. Изучение физических свойств показало, что продукт обладает кристаллической структурой, высокой степенью чистоты и термической стабильностью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В результате проведённых исследований разработан эффективный и воспроизводимый метод синтеза четвертичных аммониевых солей на основе этиленхлоргидрина и третичных аминов. Установлено, что реакции алкилирования протекают преимущественно по механизму нуклеофильного замещения второго порядка (SN2), при этом их скорость и выход в значительной степени зависят от природы растворителя, температурных условий и стерических факторов.

Экспериментально показано, что полярность растворителя оказывает решающее влияние на эффективность процесса. Установлено, что при переходе от малополярных растворителей (толуол) к более полярным (хлороформ, этилацетат) наблюдается значительное увеличение выхода целевого продукта. Максимальный выход β-гидроксиэтилтрибутиламмоний хлорида (до 69 %) достигается в среде этилацетата, что обусловлено благоприятными условиями для реализации SN2-механизма.

Выявлено, что стерические факторы играют существенную роль в протекании реакции. Наличие объёмных алкильных заместителей у атома азота (в частности, в трибутиламине) приводит к снижению реакционной способности по сравнению с менее замещёнными аминами, что обусловлено затруднением подхода нуклеофильного центра к электрофильному атому углерода.

Показано, что реакция носит экзотермический характер, что подтверждается самопроизвольным повышением температуры реакционной смеси в ряде случаев. Установлены оптимальные условия синтеза, включающие выбор растворителя, мольного соотношения реагентов и температурного режима, обеспечивающие получение целевого продукта с максимальным выходом.

Структура синтезированных соединений подтверждена методами инфракрасной спектроскопии. Полученные данные свидетельствуют о наличии характерных функциональных групп (–OH, C–N, C–O), что подтверждает образование четвертичных аммониевых солей. Изучение физических свойств показало, что синтезированные соединения обладают кристаллической структурой, высокой степенью чистоты и термической стабильностью.

ISSN 3030-3907

Таким образом, разработанный метод синтеза четвертичных аммониевых солей на основе этиленхлоргидрина обладает научной новизной и практической значимостью. Полученные результаты могут быть использованы при создании новых биологически активных соединений, а также в химической технологии, медицине и материаловедении.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Smith M.B., March J. *March's Advanced Organic Chemistry: Reactions, Mechanisms, and Structure*. – 7th ed. – New York: Wiley, 2013. – 2083 p.
2. Clayden J., Greeves N., Warren S. *Organic Chemistry*. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 1261 p.
3. Carey F.A., Sundberg R.J. *Advanced Organic Chemistry. Part A: Structure and Mechanisms*. – 5th ed. – New York: Springer, 2007. – 1196 p.
4. Morrison R.T., Boyd R.N. *Organic Chemistry*. – 6th ed. – New York: Prentice Hall, 2011. – 1240 p.
5. Lowry T.H., Richardson K.S. *Mechanism and Theory in Organic Chemistry*. – 3rd ed. – New York: Harper & Row, 1987. – 1090 p.
6. Eliel E.L., Wilen S.H. *Stereochemistry of Organic Compounds*. – New York: Wiley, 1994. – 1267 p.
7. McMurry J. *Organic Chemistry*. – 9th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 1432 p.
8. House J.E. *Principles of Chemical Kinetics*. – 2nd ed. – Academic Press, 2007. – 848 p.
9. Anslyn E.V., Dougherty D.A. *Modern Physical Organic Chemistry*. – Sausalito: University Science Books, 2006. – 1104 p.
10. Patai S. *The Chemistry of Quaternary Ammonium Compounds*. – New York: Wiley, 1971. – 850 p.
11. Lindon J.C., Tranter G.E., Holmes E. *Encyclopedia of Spectroscopy and Spectrometry*. – Elsevier, 2017. – 3500 p.
12. Socrates G. *Infrared and Raman Characteristic Group Frequencies*. – 3rd ed. – Wiley, 2004. – 366 p.

ISSN 3030-3907

PAXTA TARKIBIDAGI MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH USULLARI TAHLILI

Ikromov Shaxobiddin Shamsutdin o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktaranti,
Xashimov Sabitxan,
Namangan davlat texnika universiteti professori
Muradov Rustam Muradovich,
Namangan davlat texnika universiteti professori
Toshpo‘latov Mansurbek Bekpo‘latovich
Namangan davlat texnika universiteti magistranti
Email: ikromov.shaxobiddin1997@gmail.com
Tel:940977066

Abstract. This article analyzes the processes of cleaning raw cotton from small impurities. Cotton cleaning machines are classified into radial and axial systems according to the nature of cotton movement within the working chamber. In radial systems, the cleaning process is carried out under intensive mechanical воздействия, while in axial systems, cotton is cleaned progressively through continuous helical movement and gentle processing. The operating principles, advantages, and disadvantages of both systems are comparatively analyzed, and the main factors affecting cleaning efficiency are identified.

Keywords: cotton cleaning, small impurities, cleaning methods, radial, axial, longitudinal motion, mesh surface.

Аннотация. В статье проанализированы процессы очистки хлопкового сырья от мелких примесей. Очистительные машины классифицированы на радиальные и осевые (аксиальные) системы в зависимости от характера движения хлопка в рабочей камере. В радиальных системах процесс очистки осуществляется за счёт интенсивных механических воздействий, тогда как в аксиальных системах хлопок очищается постепенно за счёт непрерывного винтового перемещения и более мягкой обработки. Проведён сравнительный анализ принципов работы, преимуществ и недостатков обеих систем, а также определены основные факторы, влияющие на эффективность очистки.

Ключевые слова: очистка хлопка, мелкие примеси, методы очистки, радиальный, осевой, аксиальный, сетчатая поверхность.

Annotatsiya. Maqolada paxta xom-ashyosini mayda ifloslikladan tozalash jarayonlari tahlil qilinib, tozalash mashinalari paxta harakatining ishchi kameradagi xarakteriga ko‘ra radial va o‘qviy (aksial) tizimlarga ajratilgan. Radial tizimlarda tozalash jarayoni intensiv mexanik ta’sirlar asosida amalga oshishi, aksial tizimlarda esa, paxtaning uzluksiz vintsimon tamoyilda siljishi va

ISSN 3030-3907


yumshoq ishlov berilishi orqali bosqichma-bosqich tozalanishi yoritilgan. Har ikki tizimning ishlash prinsiplari, afzallik va kamchiliklari qiyosiy tahlil qilinib, tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan.

Kalit sozlar: paxta tozalash, mayda ifloslikiar, tozalash usullari, radial, o‘qbo‘ylab, aksial, to‘rli sirt.


KIRISH.

Paxtani dastlabki ishlash jarayonida uning tarkibidan mayda begona aralashmalarni ajratib olish muhim texnologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki paxta tarkibida uchraydigan chang, qum, mayda barg bo‘laklari, qurigan g‘o‘za qismlari, po‘stloq, poya parchalarining mavjudligi keyingi texnologik jarayonlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bunday aralashmalar paxtani jinlash, tolani ajratish, tola sifatini saqlash hamda tayyor mahsulotning standart ko‘rsatkichlarini ta’minlashda jiddiy muammolar keltirib chiqaradi. Shu sababli paxta xom-ashyosini mayda ifloslikiardan tozalash jarayonida qo‘llaniladigan mashinalarning konstruktiv tuzilishi va ishlash prinsiplarini tasniflash alohida ahamiyatga ega.

Paxtani mayda begona aralashmalardan tozalash usullarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu maqsadga mo‘ljallangan barcha tozalash mashinalarini, eng avvalo, ishchi kamerada xom paxtaning harakat xarakteriga ko‘ra tasniflash maqsadga muvofiqdir. Aynan paxta massasining ishchi zona bo‘ylab qanday harakatlanishi, uning ishchi organlar bilan o‘zaro ta’sir davomiyligi, yo‘nalishi va intensivligi tozalash samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, barcha mayda ifloslik tozalagichlar paxtani mashina ichidagi harakatiga ko‘ra asosan **ikki asosiy tizimga**, ya’ni **radial** va **o‘qbo‘ylab (aksial)** tizimlarga bo‘linadi.



a)



b)

1-rasm. a) Radial usul sxemasi.
b) Radial usul da ishlovchi 1XK paxta tozalash qurilmasi konustruktiv chizmasi. 1 -ta’minlash valiklari; 2-qoziqchali-parrakli barabanlar; 3-to‘rli sirt (yuza); 4-ifloslik bunkeri; 5-chiqish novi.

Radial tizimli tozalagichlarda paxta *ta’minlash valiklari(1) orqali* ishchi kameraga kirgach, u odatda kameraning butun ishchi kengligi(*2-qoziqchali-*

ISSN 3030-3907

parrakli barabanlar) yoki uzunligi bo‘ylab tez taqsimlanadi va tozalash jarayoni asosan ishchi organning aylanish o‘qiga nisbatan **perpendikulyar yo‘nalishda** amalga oshadi. Bunda paxta oqimining harakati markazdan tashqi tomonga yoki tashqi kontur bo‘ylab radial xarakter kasb etadi. Shuning uchun bunday mashinalar radial tizimli tozalagichlar deb yuritiladi(1a)-rasm).

Mazkur tizimda tozalash samaradorligi bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zaro bog‘liq fizik-mexanik ta’sirlar majmuasi natijasida ta’minlanadi. Aylanuvchi ishchi organlar ta’sirida paxta massasi zarbga uchrab, g‘ovaklashadi hamda uning qatlamlari bo‘shashadi, bu esa bo‘lakchalar orasida ushlanib qolgan mayda iflos zarrachalarning erkinlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, paxta bo‘lakchalarining to‘rli yoki kolosnik panjaralariga urilishi va ular bo‘ylab sudralishi jarayonida iflosliklarning ajralib chiqishi jadallashadi. Bundan tashqari, markazdan qochma kuch ta’siri ostida nisbatan zichroq yoki erkin zarrachalar umumiy harakat trayektoriyasidan chiqib, panjara teshiklari orqali tashqariga chiqariladi, natijada tozalash jarayoni yanada samarali kechadi[1,2].


Ushbu turga mansub ko`plab mashinallar mavjud va bugungi kundaham ulardan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Misol sifatida 1XK qurilmasini keltirish mumkin(2-rasm). Bu turdagi qurilmalar ish jarayonida ta’minlash valiklariga(1) bunkerga tushgan chigitli paxta aylanuvchi qoziqli barabanlar(2) yordamida to‘rli sirt usti bo‘ylab sudralib harakatlanadi va keyingi qoziqli barabanga uzatiladi. Bu jarayonda paxta tezligi bir oz kamayadi va baraban qoziqlari yordamida yana to‘rli sirt ustidan sudralib o‘tkaziladi. Chigitli paxta har bir to‘rli sirt bilan ishqalanishi natijasida uning tarkibidagi mayda iflos aralashmalarning bir qismi ajralib chiqadi va to‘rli sirt teshiklari orqali tashqariga(4-ifloslik bunkeri) chiqariladi. Natijada paxta barabanlar orqali o‘tish jarayonida bosqichma-bosqich tozalanadi hamda chiqish quvuri(5) orqali keyingi texnologik jarayonga uzatiladi. Shu bilan birga, mavjud qoziqli paxta tozalash qurilmalarida bir qator konstruktiv va texnologik kamchiliklar ham kuzatiladi. Jumladan, to‘rli sirtning foydali yuzasi kichikligi tozalash jarayonida ishtirok etuvchi aktiv zona hajmini cheklaydi. Barabanlarning joylashuvi va qoziqlarning konfiguratsiyasi hamda to‘rli sirt teshiklarining shakli va o‘lchamlari paxtaning ishchi kamera ichida erkin harakatlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, paxta xom-ashyosining qurilmaga notekis uzatilishi ishchi zonada tiqilish holatlarining yuzaga kelishini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida paxtani tozalash darajasining pasayishiga, ish unumdorligining kamayishiga va tayyor mahsulot sifatining yomonlashishiga olib keladi[3,4].

Boshqa tomondan, radial tizimda mexanik ta’sirning yuqori intensivligi ayrim holatlarda salbiy oqibatlarga ham sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, ishchi organlar tezligining ortiqcha bo‘lishi paxta tolalarining shikastlanishiga,

ISSN 3030-3907

chigitning ezilishiga va texnologik ko‘rsatkichlarning yomonlashishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli bunday qurilmalarni loyihalash va ekspluatatsiya qilishda ishchi organlar aylanish tezligi, to‘rli sirt parametrlari, paxta oqimining qalinligi va namligi kabi omillarni ilmiy asosda optimallashtirish zarur hisoblanadi.

O‘q bo‘ylab yoki aksial tizimli tozalagichlarda esa, paxtaning ishchi kameradagi harakati radial tizimdan farqli ravishda **ishchi organning o‘qi bo‘ylab**, ya’ni kirish zonasidan chiqish zonasiga tomon ketma-ket siljish shaklida amalga oshadi. Bunday mashinalarda paxta massasining asosiy harakati mashinaning bo‘ylama o‘qi bilan mos tushadi. Shu sababli ularning ishlash prinsipi paxtani ishchi kamera bo‘ylab ma’lum masofada uzluksiz olib o‘tish va shu yo‘l davomida bosqichma-bosqich tozalashga asoslanadi(2a-rasm).



2-rasm. a) O‘qboylab tozalash(aksial) tizimida sxemasi; b) Aksial usulda Mayda iflosliklardan tozalovchi 6A-12M mashinasi. Bu yerda: 1 – yuqorigi qoziqli shnek; 2 – pastki qoziqli shnek; 3 – kolosnikli panjara;

Aksial tizimlarda paxta oqimi odatda valiklar, barabanlar, shnekli elementlar yoki boshqa yo‘naltiruvchi ishchi qismlar yordamida oldinga suriladi. Shu jarayonda paxta massasi nafaqat ilgarilanma harakat qiladi, balki g‘ovaklashadi, aylantiriladi, ag‘dariladi va to‘rli yuzalar bilan takroriy kontaktga kirishadi. Bu esa iflosliklarning tolali massadan asta-sekin ajralishiga imkon yaratadi. Aksial tizimlarning muhim belgisi shundaki, paxta ishchi zona bo‘ylab nisbatan uzunroq yo‘l bosib o‘tadi va shu sababli tozalash jarayoni bir marotabalik kuchli zarba emas, balki davomli va nisbatan yumshoq mexanik ta’sirlar asosida kechadi[1,3].

Bunday tozalagichlarda iflosliklar paxta qatlamining g‘ovaklashishi, ishchi organlar ta’sirida bo‘laklanishi hamda panjarali yoki elakli sirtlar ustidan siljishi natijasida ajraladi. Aksial tizimlarda tozalash jarayoni radial tizimlardagidek kuchli va qisqa muddatli zarbalar asosida emas, balki paxta massasining ishchi

ISSN 3030-3907

kamerada nisbatan uzoqroq vaqt davomida bo‘lishi, uning qayta-qayta aralashtirilishi va elakli sirtlar bilan uzluksiz kontaktga kirishishi hisobiga bosqichma-bosqich amalga oshadi. Shu sababli bu tizim paxtaga nisbatan yumshoqroq texnologik ishlov berib, tolalarning shikastlanish ehtimolini kamaytiradi.

Aksial tozalagichlarga misol sifatida 6A-12M shnekli paxta tozalash mashinasini keltirish mumkin (2b-rasm). Ushbu qurilmada paxtaning o‘q bo‘ylab ilgarilanma harakati shneklar yordamida ta’minlanadi, paxta qatlamining titilishi esa shnek uchlariga o‘rnatilgan qoziqchalar orqali amalga oshiriladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bunday mashinalarda tozalash samaradorligi yuqori bo‘lishiga qaramay, shnekli mexanizm ta’sirida paxta massasi aylanish va burilish harakatiga uchraydi, natijada tolalarning eshilishi (chirmashib qolishi) kuzatiladi. Bu esa tolalarning tabiiy tuzilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, keyingi texnologik jarayonlar uchun ma’lum darajada noqulayliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli bunday qurilmalardan foydalanishda tozalash samaradorligi bilan bir qatorda tola sifatini saqlash masalasini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega[1,4].

Radial va aksial tizimli paxta tozalagichlar amaliyotda keng qo‘llanilishiga qaramay, ularning har biri ma’lum kamchiliklarga ega. Radial tizimlarda paxta massasiga kuchli va qisqa muddatli mexanik ta’sir ko‘rsatilishi natijasida iflosliklar samarali ajraladi, biroq bu jarayon ko‘pincha tolalarning shikastlanishiga, chigitning ezilishiga hamda mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun bunday tizimlar yuqori intensivlikka ega bo‘lsada, sifat ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan har doim ham optimal emas. Aksial tizimlar esa paxtaga nisbatan yumshoqroq ishlov berishi bilan ajralib turadi va tolani yaxshi saqlaydi. Biroq mavjud aksial mashinalarda, xususan 6A-12M tipidagi shnekli qurilmalarda, paxtaning ilgarilanma harakati shnek yordamida ta’minlanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aynan shnekli mexanizm paxta tolalarining eshilishiga (chirmashishiga) sabab bo‘lib, keyingi texnologik jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shnek paxta oqimining erkin harakatini cheklab, ayrim hollarda tiqilishlar va notekis uzatishga olib keladi.

XULOSA. Ushbu maqolada biz paxtani mayda iflosliklardan tozalashga mo‘ljallangan ikki xil konstruktiv tuzilishga ega mashinalarning ishlash jarayonini tahlil qildik va ularning asosiy kamchiliklarini aniqladik. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni kuzatdikki, radial tozalash mashinalarida to‘rli sirtning foydali ishchi yuzasi kichik bo‘lgani sababli tozalash samaradorligi pasayadi. Shuningdek, paxtani tozalash jarayoniga uzatishda uning yetarli darajada titilmaganligi mayda iflosliklarning ajralib chiqish jarayonini qiyinlashtirishini aniqladik.

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari, paxtaning qoziqli baraban qoziqlari ta’sirida urilishi natijasida chigitlar shikastlanishini kuzatdik. Ushbu holat tolada turli mexanik nuqsonlar hosil bo‘lishiga olib kelishini va bu nuqsonlar keyingi texnologik bosqichlarda, xususan yigirish jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladik.

Paxtani o‘q bo‘ylab harakatlantirib tozalash mashinalarini tahlil qilganimizda, ularning asosiy kamchiligi tolalarning eshilib qolishida ekanligini aniqladik. Eshilgan tolalarda yuzaga kelgan nuqsonlar yigirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini kuzatdik. Bu mashinalarda tolalarning eshilishiga asosiy sabab sifatida o‘q bo‘ylab harakatni ta’minlash uchun shnek mexanizmidan foydalanilganligini qayd etdik.

Yuqorida aniqlangan kamchiliklardan kelib chiqib, kelgusida ushbu muammolardan holi bo‘lgan, paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalashni ta’minlaydigan hamda tolaga zarar yetkazmaydigan takomillashtirilgan yangi konstruksiyadagi mashinani yaratish zarurligini asosladik va bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib bordik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G. J. Jabborov, T.U. Otametov, A.X. Hamidov. Chigitli paxtani dastlabki ishlash tehnologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987-yil.
2. Muradovich, M. R., Sabitxan, X., & Ogli, I. S. S. (2025). PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASHNING ANALITIK TAHLILI VA O ‘Q BO ‘YLAB HARAKATLANTIRIB TOZALASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH. Механика и технология, 6(Спецвыпуск 1), 469-472.
3. Мардонов, Б. М., & Икромов, Ш. Ш. Ў. (2023). ПАХТАНИ ТАБИИЙ ХУСУСИЯТЛАРГА ТАЪСИР КИЛМАСДАН МАЙДА ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Строительство и образование, 4(5-6), 273-278.
4. Shamsutdin ogli, SI, & Davron Abdug‘affor og, S. (2025). PAXTADAGI IFLOSLIKLARNI ANIQLASHDA RANG FAZOSIGA ASOSLANGAN TASVIR SEGMENTATSIYASI USULLARINING QIYOSIY TAHLILI. TEXNOLOGIYA VA TA'LIM INNOVASYONLARI , 4 (33), 11-20.
5. To‘xtasinov, M., Kodirov, Z., & Ikromov, S. (2024, may). Vektor elementlarining pozitsiyalari va qiymatlari juftliklarini tahlil qilishga asoslangan tasvirlarni taqqoslash algoritmi. AIP konferensiyasi materiallarida (3147-jild, 1-son, 040002-bet). AIP Publishing MChJ.

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA BLENDED LEARNING MODELINI LEARNING ANALYTICS VOSITALARI ORQALI MONITORING QILISH VA SIFATINI OSHIRISH

Shamuratov Alimbay Kamiljanovich
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot zamonaviy axborotlashgan ta’lim muhitida aralash ta’lim (Blended Learning) modelining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish va o‘quv jarayoni sifatini raqamli monitoring qilish masalalariga bag‘ishlangan. Bugungi kunda ta’limga raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) talabalarning o‘quv xulq-atvorini chuqur tahlil qilish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Tadqiqot doirasida Learning Analytics (ta’lim tahlili) vositalarining aralash ta’lim formatidagi o‘rni, ularning talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini bashorat qilishdagi o‘rni va individual o‘qitish trayektoriyalarini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Mavjud ilmiy adabiyotlar va pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Learning Analytics tizimlari nafaqat talabalarning faolligini kuzatish, balki ta’lim mazmunini dinamik ravishda moslashtirish, dars jarayonidagi bo‘shliqlarni erta aniqlash va o‘qitish metodikasining samaradorligini xolis baholash imkonini beradi. Mazkur ishda aralash ta’lim muhitida ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va vizuallashtirish algoritmlarini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini boshqarishning innovatsion mexanizmlari taklif etiladi, bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: aralash ta’lim, Learning Analytics, ta’lim sifati, raqamli monitoring, o‘quv tahlili, pedagogik texnologiyalar, individual trayektoriya, ma’lumotlar vizuallashuvi, LMS (Learning Management System), ta’lim samaradorligi.

Аннотация. Данное исследование посвящено вопросам мониторинга и повышения качества образования в условиях современной цифровой образовательной среды с использованием модели смешанного обучения (Blended Learning) и инструментов учебной аналитики (Learning Analytics). В работе рассматривается теоретико-методологическая база интеграции аналитических инструментов в учебный процесс для сбора и интерпретации данных о взаимодействии студентов с электронными образовательными ресурсами. Научная новизна исследования заключается в обосновании роли Learning Analytics как ключевого механизма объективной оценки учебных достижений и выявления факторов, влияющих на вовлеченность обучающихся. На основе анализа современной научной литературы подчеркивается, что использование интеллектуальных систем анализа

ISSN 3030-3907

данных позволяет не только диагностировать текущее состояние учебного процесса, но и прогнозировать риски академической неуспеваемости, что обеспечивает возможность оперативной корректировки педагогических стратегий. Исследование предлагает комплексный подход к внедрению аналитических панелей мониторинга, которые способствуют трансформации смешанного обучения из статической модели в адаптивную экосистему, ориентированную на результат. Полученные выводы могут быть использованы для совершенствования систем управления обучением (LMS) и повышения общей конкурентоспособности образовательных программ в условиях глобальной цифровизации.

Ключевые слова: смешанное обучение, учебная аналитика, мониторинг качества образования, цифровая образовательная среда, прогнозирование успеваемости, адаптивное обучение, большие данные в образовании, педагогический дизайн, вовлеченность студентов, образовательные технологии.

Abstract. This research explores the integration of Learning Analytics tools within the Blended Learning model to monitor and enhance educational quality in the contemporary learning environment. As educational institutions shift towards hybrid formats, the generation of vast amounts of student data necessitates the application of advanced analytical techniques to interpret learning behaviors and outcomes. This paper examines the scientific foundations of Learning Analytics as a pivotal instrument for data-driven decision-making, emphasizing its capacity to provide real-time insights into student engagement, resource utilization, and academic performance. By synthesizing current academic discourse and empirical studies, the research highlights how pedagogical interventions can be optimized through the visualization of learning trajectories and the early identification of learning gaps. Furthermore, the study proposes a framework for utilizing educational data to personalize the learning experience and refine instructional design in blended settings. The implementation of such analytical systems facilitates a shift from traditional assessment methods to a more dynamic, evidence-based quality assurance mechanism, ultimately contributing to the strategic advancement of digital transformation in higher education and ensuring a high-quality, student-centered learning experience.

Keywords: Blended Learning, Learning Analytics, educational quality, digital monitoring, data-driven instruction, academic performance prediction, student engagement, learning management systems, instructional design, adaptive learning.

KIRISH.

Global raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi o‘zining an’anaviy metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish va innovatsion ta’lim modellarini integratsiya qilish bosqichini bosib o‘tmoqda. Zamonaviy pedagogikada eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilayotgan aralash ta’lim (Blended Learning) modeli yuzma-yuz o‘qitishning ijtimoiy afzalliklari va elektron ta’limning texnologik imkoniyatlarini uyg‘unlashtiruvchi universal platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, ta’lim muhitining bunday murakkablashuvi o‘quv jarayonini boshqarish va uning sifatini nazorat qilishning yangi, obyektiv va dalillarga asoslangan mexanizmlarini joriy etishni talab etadi. Aynan shu nuqtada, ta’lim ma’lumotlarini intellektual tahlil qilishga yo‘naltirilgan Learning Analytics (ta’lim tahlili) sohasi o‘quv jarayonining "shaffofligini" ta’minlovchi asosiy vositaga aylanmoqda.Ilmiy adabiyotlarda aralash ta’lim shunchaki texnologik vositalardan foydalanish emas, balki talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani yangi sifat darajasiga ko‘taruvchi tizimli yondashuv sifatida ta’riflanadi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida talabalar tomonidan qoldirilayotgan "elektron izlar" (digital footprints) o‘quv jarayonining real dinamikasini aks ettiruvchi ulkan axborot manbaidir. Learning Analytics tizimi ushbu ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va interpretatsiya qilish orqali ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi, resurslar bilan ishlash samaradorligi va kognitiv o‘zlashtirish darajasi haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim sifatini baholashda subyektiv yondashuvlardan voz kechib, real vaqt rejimidagi monitoring (real-time monitoring) tizimiga o‘tish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha natijaviy xarakterga ega bo‘lib, o‘quv jarayoni davomidagi inqirozlarni yoki talabaning o‘quv trayektoriyasidan og‘ishini barvaqt aniqlash imkoniga ega emas. Aralash ta’lim muhitida Learning Analytics vositalarining qo‘llanilishi esa o‘qitish metodikasini individualizatsiya qilish va ta’lim kontentini talabaning ehtiyojlariga moslashtirish uchun zamin yaratadi. Mazkur ish doirasida aralash ta’limning tarkibiy qismlari va ularning monitoring tizimi bilan o‘zaro aloqadorligi qisman ko‘rib chiqiladi, bu esa kelajakda ta’lim muassasalarining raqamli ekotizimini barpo etishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahliliy vositalarning joriy etilishi nafaqat akademik o‘zlashtirishni, balki ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun qayta aloqa (feedback) mexanizmini optimallashtirishga qaratilgan fundamental yondashuvdir.Zamonaviy oliy ta’lim paradigmasida aralash ta’lim (Blended Learning) nafaqat an’anaviy va masofaviy o‘qitish shakllarining mexanik birikmasi, balki ta’lim oluvchining kognitiv faolligini oshirishga yo‘naltirilgan murakkab pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimning markazida turuvchi Learning Analytics (ta’lim tahlili)

ISSN 3030-3907

tushunchasi esa o‘quv jarayonini shunchaki kuzatish emas, balki uni ma’lumotlarga tayangan holda (data-driven) boshqarish imkonini beradi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aralash ta’lim muhitida talabalar o‘quv resurslari bilan o‘zaro aloqaga kirishganda, ularning har bir harakati – videoma’ruzalarni ko‘rish davomiyligidan tortib, test topshiriqlaridagi xatoliklar chastotasigacha – raqamli izlar ko‘rinishida saqlanadi. Mazkur ma’lumotlar oqimi Learning Analytics algoritmlari orqali qayta ishlanishi natijasida ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida baholash imkonini beruvchi informatsion bazani shakllantiradi. Bu jarayon talabaning o‘quv trayektoriyasini shaxsiylashtirish va o‘qituvchining metodologik yondashuvini optimallashtirish uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.Aralash ta’lim modelida Learning Analytics vositalarini monitoring qilishning eng muhim jihati bu – prediktiv (bashorat qiluvchi) tahlildir. Ushbu yondashuv yordamida o‘quv semestri yakunlanmasdan turib, talabaning akademik o‘zlashtirishdagi muammolarini oldindan aniqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, tizim talabaning Learning Management System (LMS) platformasidagi faolligini o‘tmishdagi muvaffaqiyatli talabalar klasteri bilan solishtirish orqali "xavf guruhi"ni shakllantiradi. Bu esa pedagogga passiv talabalar bilan individual ishlash strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, sifatni baholashda faqatgina yakuniy baholarga tayanish an’anasi o‘z o‘rnini jarayonli tahlilga (process mining) bo‘shatib bermoqda. Ya’ni, talabaning bilim olish jarayonidagi qiyinchilik nuqtalari, murakkab mavzularni o‘zlashtirishga sarflagan vaqti va jamoaviy muhokamalardagi ishtiroki kabi ko‘rsatkichlar ta’lim sifatining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu kabi chuqur tahlil o‘quv kontentining qanchalik samarali ekanligini ham ko‘rsatib beradi: agar ma’lum bir material bilan ishlashda talabalarning ko‘pchiligi to‘xtab qolsa yoki past natija ko‘rsatsa, bu kontentni qayta ko‘rib chiqish zarurligidan dalolat beruvchi obyektiv signaldir.Ta’lim sifatini oshirishda Learning Analytics vositalarining yana bir o‘ziga xos xususiyati bu – vizualizatsiya va qayta aloqa mexanizmining takomillashuvidir. Dashbordlar (tahliliy panellar) ko‘rinishidagi ma’lumotlar nafaqat ma’muriyat, balki talabalar uchun ham ochiq bo‘lishi ularda o‘z-o‘zini baholash (self-regulated learning) ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talaba o‘z natijalarini guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan solishtirganda, unda ichki motivatsiya va mas’uliyat hissi ortadi. Aralash ta’lim modelining samaradorligi bevosita ushbu tahliliy tizimning pedagogik dizayn bilan qanchalik integratsiya qilinganligiga bog‘liqdir. Binobarin, sifatni oshirishning asosiy mexanizmi sifatida Learning Analytics ta’lim oluvchi, o‘qituvchi va ta’lim kontenti o‘rtasidagi dinamik muvozanatni ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tizimni ishlab chiqish va qo‘llash oliy ta’lim muassasalarining raqamli yetukligini ta’minlash bilan bir qatorda, har bir talabaning salohiyatini maksimal darajada

ISSN 3030-3907

yuzaga chiqarish uchun xizmat qiluvchi moslashuvchan (adaptive) ta’lim muhitini yaratadi.

Zamonaviy oliy ta’lim paradigmasida aralash ta’lim nafaqat an’anaviy yuzma-yuz darslar va masofaviy texnologiyalarning mexanik birikmasi, balki ta’lim oluvchining kognitiv faolligini oshirishga yo‘naltirilgan murakkab, ko‘p qirrali pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimning markazida turuvchi Learning Analytics (ta’lim tahlili) tushunchasi esa o‘quv jarayonini shunchaki kuzatish emas, balki uni raqamli dalillarga tayangan holda boshqarish imkonini beradi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aralash ta’lim muhitida talabalar o‘quv resurslari bilan o‘zaro aloqaga kirishganda, ularning har bir harakati — videoma’ruzalarni ko‘rish davomiyligidan tortib, test topshiriqlaridagi xatoliklar chastotasigacha — raqamli izlar (digital footprints) ko‘rinishida saqlanadi. Mazkur ma’lumotlar oqimi Learning Analytics algoritmlari orqali qayta ishlanishi natijasida ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida baholash imkonini beruvchi informatsion bazani shakllantiradi. Bu jarayon talabaning o‘quv trayektoriyasini shaxsiylashtirish va o‘qituvchining metodologik yondashuvini optimallashtirish uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.Aralash ta’lim modelida Learning Analytics vositalarini monitoring qilishning eng muhim jihati bu — prediktiv (bashorat qiluvchi) tahlildir. Ushbu yondashuv yordamida o‘quv semestri yakunlanmasdan turib, talabaning akademik o‘zlashtirishdagi muammolarini oldindan aniqlash mumkin bo‘ladi. Tizim talabaning Learning Management System (LMS) platformasidagi faolligini o‘tmishdagi muvaffaqiyatli talabalar klasteri bilan solishtirish orqali "xavf guruhi"ni shakllantiradi, bu esa pedagogga passiv talabalar bilan individual ishlash strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, sifatni baholashda faqatgina yakuniy baholarga tayanish an’anasi o‘z o‘rnini jarayonli tahlilga (process mining) bo‘shatib bermoqda. Ya’ni, talabaning bilim olish jarayonidagi qiyinchilik nuqtalari, murakkab mavzularni o‘zlashtirishga sarflagan vaqti va jamoaviy muhokamalardagi ishtiroki kabi ko‘rsatkichlar ta’lim sifatining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu kabi chuqur tahlil o‘quv kontentining samaradorligini ham ko‘rsatib beradi: agar ma’lum bir material bilan ishlashda talabalarning aksariyati qiyinchilikka duch kelsa, bu kontentni pedagogik jihatdan qayta ko‘rib chiqish zarurligidan dalolat beruvchi obyektiv signaldir.Ta’lim sifatini oshirishda Learning Analytics vositalarining yana bir o‘ziga xos xususiyati bu — vizualizatsiya va qayta aloqa mexanizmining takomillashuvidir. Dashbordlar (tahliliy panellar) ko‘rinishidagi ma’lumotlar nafaqat ma’muriyat, balki talabalar uchun ham ochiq bo‘lishi ularda o‘z-o‘zini baholash (self-regulated learning) ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talaba o‘z natijalarini guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan solishtirganda, unda ichki motivatsiya va mas’uliyat hissi

ISSN 3030-3907

ortadi. Aralash ta’lim modelining samaradorligi bevosita ushbu tahliliy tizimning pedagogik dizayn bilan qanchalik sinxron integratsiya qilinganligiga bog‘liqdir. Binobarin, sifatni oshirishning asosiy mexanizmi sifatida Learning Analytics ta’lim oluvchi, o‘qituvchi va ta’lim kontenti o‘rtasidagi dinamik muvozanatni ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tizimni ishlab chiqish va qo‘llash oliy ta’lim muassasalarining raqamli yetukligini ta’minlash bilan bir qatorda, har bir talabaning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarish uchun xizmat qiluvchi moslashuvchan (adaptive) ta’lim muhitini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ta'lim sifatini an'anaviy nazorat qilish usullaridan zamonaviy, ma'lumotlarga asoslangan monitoring tizimiga o‘tish imkonini beradi.Aralash ta’lim muhitida Learning Analytics tizimlarini joriy etish va ulardan ta’lim sifatini oshirishda foydalanish jarayoni bir qator murakkab konseptual va texnik muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Eng birinchi galda, "ma’lumotlarning tarqoqligi" muammosi yuzaga chiqadi, ya’ni talabaning o‘quv faoliyati turli xil platformalar (LMS, ijtimoiy tarmoqlar, oflayn auditoriya mashg‘ulotlari) o‘rtasida bo‘linib ketgan bo‘lib, bu ma’lumotlarni yagona ekotizimga birlashtirish metodologik jihatdan qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘p hollarda tahliliy tizimlar faqatgina talabaning tizimga kirish soni kabi yuzaki ko‘rsatkichlarni hisobga oladi, biroq kognitiv jarayonlarning chuqur qatlamlarini, masalan, tanqidiy fikrlash yoki kollaborativ muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘lchashda oqsoqlanadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida ilmiy adabiyotlarda "Multimodal Learning Analytics" yondashuvi taklif etilmoqda, bu esa nafaqat raqamli izlarni, balki auditoriyadagi sensor ma’lumotlari, video-tahlil va biometrik ko‘rsatkichlarni ham yagona tahliliy modelga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bunday kompleks yondashuv ta’lim sifatini baholashda "qora quti" effektini bartaraf etishga va o‘quv jarayonining to‘liq manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi.Yana bir dolzarb muammo bu – pedagogik kadrlar va talabalarning "ma’lumotlar savodxonligi" (Data Literacy) darajasining pastligidir. Ko‘pincha Learning Analytics tizimlari tomonidan taqdim etilayotgan murakkab grafik va tahliliy hisobotlar o‘qituvchilar tomonidan pedagogik qaror qabul qilish uchun yetarli darajada interpretatsiya qilinmaydi, bu esa qimmatbaho texnologik vositalarning shunchaki statistik ma’lumotlar omboriga aylanib qolishiga sabab bo‘ladi. Ushbu to‘siqni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarida tahliliy ma’lumotlarni "harakatga keltiruvchi tushunchalar" (actionable insights) ko‘rinishiga o‘tkazuvchi vizual interfeyslarni loyihalash talab etiladi. Yechim sifatida, tahliliy natijalarni pedagogik dizaynning ajralmas qismiga aylantirish, ya’ni tizim tomonidan berilgan signallar asosida avtomatik ravishda talabaga moslashtirilgan o‘quv materiallarini tavsiya etuvchi intellektual agentlarni (AI-tutor) joriy etish samarali hisoblanadi. Bu o‘qituvchining yuklamasini kamaytirib,

ISSN 3030-3907

e’tiborni ko‘proq ijodiy va mentorlik faoliyatiga qaratish imkonini beradi.Shuningdek, axloqiy va huquqiy muammolar – talabalarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi va "algoritmik xolislik" masalalari ham markaziy o‘rinni egallaydi. Bashorat qiluvchi algoritmlar ba’zan talabalarni noto‘g‘ri klasterlarga ajratib qo‘yishi va ularga nisbatan "akademik tamg‘a" urilishi xavfini tug‘diradi. Ushbu tizimli muammoni hal qilish uchun ta’lim muassasalari Learning Analytics sohasida axloqiy kodekslarni (Ethical Policies) ishlab chiqishi va shaffoflik tamoyillarini joriy etishi zarur. Ma’lumotlar tahlili jarayonida inson omilini (Human-in-the-loop) saqlab qolish, ya’ni yakuniy qarorni algoritm emas, balki pedagog tomonidan qabul qilinishini ta’minlash ta’lim sifatini baholashda adolatlilik mezonini kafolatlaydi. Binobarin, aralash ta’lim modelini takomillashtirishning yechimi nafaqat texnologik yangilanishda, balki ma’lumotlar tahlili natijalarini pedagogik mahorat bilan sinxronlashtirishda hamdir. Bu kabi kompleks chora-tadbirlar ta’lim sifatini baholashning an’anaviy, statik usullaridan dinamik, individual va natijaga yo‘naltirilgan zamonaviy boshqaruv tizimiga o‘tish imkonini beradi.

Aralash ta’lim va Learning Analytics (LA) sohasidagi ilmiy diskursni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishlar pedagogika va ma’lumotlar muhandisligining kesishmasida fundamental transformatsiyani yuzaga keltirmoqda. Aralash ta’limning nazariy asoslarini tadqiq etgan **Charles R. Graham** o‘zining fundamental ishlarida ushbu modelni shunchaki texnik vosita emas, balki an’anaviy ta’limning sinkron muloqot imkoniyatlari bilan onlayn ta’limning asinkron moslashuvchanligini birlashtiruvchi strategik paradigma sifatida tavsiflaydi. Grahamning fikricha, aralash ta’limning muvaffaqiyati texnologiyaning miqdorida emas, balki pedagogik dizaynning o‘quv ma’lumotlari asosida qanchalik samarali boshqarilishidadir. Shu nuqtai nazardan, **George Siemens** va **Phil Long** tomonidan ilgari surilgan "Learning Analytics" konsepti ta’lim oluvchilar va ularning ta’lim kontekstlari haqidagi ma’lumotlarni tushunish va o‘quv jarayonini optimallashtirish maqsadida o‘lchash, yig‘ish hamda tahlil qilish fani sifatida e’tirof etiladi. Siemensning qarashlariga ko‘ra, raqamli ta’lim muhitidagi "ulanishlar" va "ma’lumotlar oqimi" ta’lim sifatini baholashning yangi obyekti bo‘lib, bu an’anaviy test sinovlaridan ko‘ra aniqroq diagnostik natija beradi.Ilmiy adabiyotlarda Learning Analytics tizimlarining aralash ta’limga ta’siri bo‘yicha **Dragan Gašević** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim tahlili shunchaki algoritmlar yig‘indisi emas, balki pedagogik nazariyalar (masalan, "Self-Regulated Learning") bilan bog‘langan tizim bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Gašević va uning hamkasblari tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlillar shuni isbotlaydiki, talabalarning LMS platformasidagi faolligi va ularning akademik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik faqatgina

ISSN 3030-3907

kontekstual omillar hisobga olingandagina to‘g‘ri interpretatsiya qilinadi. Shu bilan birga, **Ryan S.J.d. Baker** kabi olimlar "Educational Data Mining" va Learning Analytics o‘rtasidagi farqlarni yoritib, asosan talaba xulq-atvorini bashorat qilish modellarini (atrisk prediction) takomillashtirishga e’tibor qaratadilar. Ularning tadqiqotlarida aralash ta’lim muhitida "zerikish" yoki "frustratsiya" kabi affektiv holatlarni klaviaturadan foydalanish ritmi va resurslarga murojaat qilish chastotasi orqali aniqlash metodikasi ilmiy asoslangan.Bundan tashqari, **Rebecca Ferguson** va **Simon Buckingham Shum** kabi tadqiqotchilar "Social Learning Analytics" yo‘nalishini rivojlantirib, aralash ta’limdagi jamoaviy muhokamalar va forumlardagi o‘zaro aloqalarni ijtimoiy tarmoqlar tahlili (SNA) yordamida baholash zarurligini ko‘rsatib berishgan. Ularning xulosalariga ko‘ra, talabaning guruh ichidagi roli va uning bilim almashinishdagi faolligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy indikatorlardan biridir. So‘nggi yillarda **OECD** va **UNESCO** kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida ham ta’limda katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt integratsiyasi oliy ta’lim sifatini kafolatlashning innovatsion mexanizmi sifatida qayd etilmoqda. Xulosa qilib aytganda, jahon ilmiy hamjamiyati aralash ta’lim va Learning Analytics integratsiyasini shunchaki zamonaviy trend emas, balki ta’lim sifatini ob’ektiv baholash va individual o‘quv trayektoriyalarini yaratishning yagona ilmiy-texnologik yechimi deb hisoblaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur sohadagi tadqiqotlar endilikda umumiy statistikadan aniq pedagogik tavsiyalar beruvchi intellektual tizimlar (Actionable Analytics) tomon rivojlanmoqda. Aralash ta’lim (Blended Learning) modelida Learning Analytics tizimlarini ishlab chiqish va ularni ta’lim sifatini baholashda qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv eng samarali strategiya hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, Learning Analytics vositalari shunchaki statistik ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki talabaning kognitiv ehtiyojlarini aniqlash, o‘quv jarayonidagi bo‘shliqlarni barvaqt diagnostika qilish va individual o‘quv trayektoriyalarini yaratishning fundamental mexanizmidir. Aralash ta’lim muhitida onlayn va oflayn komponentlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan "katta ma’lumotlar" (Big Data) o‘quv jarayonining obyektiv manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi.Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi. Birinchidan, Learning Analytics tizimlarining joriy etilishi ta’lim sifatini an’anaviy baholash usullaridan (yakuniy nazoratlar) jarayonli monitoringga o‘tish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida akademik o‘zlashtirish samaradorligini o‘rtacha 15-20% ga oshiradi. Ikkinchidan, Multimodal Learning Analytics yondashuvi orqali talabalarning ham raqamli, ham auditoriya ichidagi faolligini sinxron tahlil qilish, ta’limni

ISSN 3030-3907

boshqarishdagi subyektivizm omilini kamaytiradi. Uchinchidan, prediktiv (bashorat qiluvchi) modellar yordamida o‘quv kursini o‘zlashtirishda qiynalayotgan talabalarni semestr boshidayoq aniqlash va ularga manzilli pedagogik yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan tavsiyalar va tahliliy modellar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilishning innovatsion ekotizimini barpo etishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu tizimlarni sun’iy intellekt algoritmlari bilan yanada chuqurroq integratsiya qilish, nafaqat akademik natijalarni, balki talabalarning emotsional-ruhiy holatini ham hisobga oluvchi adaptiv ta’lim muhitlarini yaratishga zamin hozirlaydi. Bu esa zamonaviy mutaxassislar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Graham, C. R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In Handbook of distance education (pp. 351-367). Routledge.
3. Siemens, G., & Baker, R. S. (2012). Learning analytics and educational data mining: towards communication and collaboration. Proceedings of the 2nd international conference on learning analytics & knowledge.
4. Gašević, D., Dawson, S., & Siemens, G. (2015). Let’s not forget: Learning analytics are about learning. Government Information Quarterly, 32(1), 64-71.
5. Ferguson, R. (2012). Learning analytics: drivers, developments and challenges. International Journal of Technology Enhanced Learning, 4(5/6), 304-317.
6. Viberg, O., Hatakka, M., Bälter, O., & Mavroudi, A. (2018). The current landscape of learning analytics in higher education – a systematic literature review. Computers in Human Behavior, 89, 98-110.
7. Buckingham Shum, S., & Luckin, R. (2019). Learning analytics and AI: Politics, pedagogy and practices. British Journal of Educational Technology, 50(6), 2785-2793.
8. Conijn, R., Snijders, C., Kleingeld, A., & Matzat, U. (2017). Predicting student performance from LMS data: A comparison of 17 blended courses using Moodle. IEEE Transactions on Learning Technologies, 10(1), 17-29.
9. Lang, C., Siemens, G., Wise, A., & Gašević, D. (Eds.). (2017). Handbook of Learning Analytics. Society for Learning Analytics Research (SoLAR).
10. Bichsel, J. (2012). Analytics in Higher Education: Establishing a Common Language. EDUCAUSE Center for Applied Research.

ISSN 3030-3907

SHTM-1300/300 SHNEKLI-TISHLI MAYDALAGICHINING ISHCHI ORGANLARI YEYILISHINI KAMAYTIRISH ORQALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Kamolov Nuriddin Bomurotovich
«NKMK» AJ Markaziy Kon Boshqarmasi «Muruntog‘» koni boshlig‘i
Suleymanova Mukaddas Baxtiyarovna
NDKTU Konchilik fakulteti «Konchilik elektr mexanikasi» katta o‘qituvchi
Raxmonov Izzat Ilxomovich
NDKTU Konchilik fakulteti «Konchilik elektr mexanikasi» kafedrasi assistenti
Kaxxarov Orif Odilovich
NDKTU Konchilik fakulteti «Konchilik elektr mexanikasi» kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada SHTM-1300/300 turidagi shnek-tishli maydalagichlarning ishchi organlari yeyilishini kamaytirish va ularning xizmat muddatini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Konchilik va boyitish korxonalarida tog‘ jinslarini maydalash jarayonida maydalagich shneklari va tishlarining tez yeyilishi uskunaning ishonchliligi hamda ekspluatatsion samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli shnekli maydalagich konstruksiyasini takomillashtirish, yeyilishga chidamli materiallardan foydalanish va ishchi elementlarni mustahkamlash usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida shnek-tishli maydalagichning ishlash prinsipi, konstruksiya elementlari va ularning ishlash sharoitlari tahlil qilindi. Shuningdek, maydalagich tishlari va tishli disklar uchun yuqori marganesli 110G13L hamda legirlangan 12XN3A po‘lat materiallaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tishli disklarning konstruktiv parametrlari, tishlar soni va ularning joylashish burchaklari maydalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Olib borilgan tahlillar natijasida shnek-tishli maydalagich konstruksiyasida tishlarni qo‘shimcha mahkamlash, yeyilishga chidamli qoplamalar qo‘llash va optimal konstruktiv parametrlarni tanlash orqali maydalagichning ishonchliligini oshirish va xizmat muddatini uzaytirish mumkinligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari konchilik sanoatida qo‘llaniladigan maydalash uskunalarining ekspluatatsion samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maydalash, maydalagich, shnek-tishli maydalagich, yeyilish, tog‘ jinsi, SHTM, tishli disk, futerovka.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы снижения износа рабочих органов шнеково-зубчатых дробилок типа ДШЗ-1300/300 и увеличения срока их службы. В горнодобывающих и обогатительных

предприятиях в процессе дробления горных пород быстрый износ шнеков и зубьев дробилки отрицательно влияет на надёжность оборудования и его эксплуатационную эффективность. В связи с этим важное значение имеет совершенствование конструкции шнековой дробилки, применение износостойких материалов и использование методов упрочнения рабочих элементов. В ходе исследования были проанализированы принцип работы шнеково-зубчатой дробилки, её конструктивные элементы и условия их эксплуатации. Также рассмотрены возможности применения высокомарганцовистой стали 110G13L и легированной стали 12XN3A для изготовления зубьев и зубчатых дисков дробилки. Конструктивные параметры зубчатых дисков, количество зубьев и углы их расположения оценены как основные факторы, влияющие на эффективность процесса дробления. По результатам проведённого анализа обосновано, что за счёт дополнительного крепления зубьев в конструкции шнеково-зубчатой дробилки, применения износостойких покрытий и выбора оптимальных конструктивных параметров возможно повысить надёжность дробилки и увеличить срок её службы. Полученные результаты могут способствовать повышению эксплуатационной эффективности дробильного оборудования, применяемого в горнодобывающей промышленности.

Ключевые слова: дробление, дробилка, шнеково-зубчатая дробилка, износ, горная порода, ДШЗ, зубчатый диск, футеровка.

Abstract. This article examines the issues of reducing wear of the working elements of screw-toothed crushers of the screw-toothed crushing machine (STCM)**.**-1300/300 type and increasing their service life. In mining and mineral processing enterprises, rapid wear of crusher screws and teeth during the crushing of rocks negatively affects the reliability of equipment and its operational efficiency. Therefore, improving the design of screw crushers, using wear-resistant materials, and applying strengthening methods for working elements are of great importance. During the study, the operating principle of the screw-toothed crusher, its structural elements, and their operating conditions were analyzed. In addition, the possibility of using high-manganese steel 110G13L and alloy steel 12XN3A for crusher teeth and toothed discs was considered. The structural parameters of toothed discs, the number of teeth, and their arrangement angles were evaluated as the main factors affecting the efficiency of the crushing process. The results of the analysis show that the reliability and service life of the screw-toothed crusher can be increased by additional fastening of the teeth in the crusher design, the use of wear-resistant coatings, and the selection of optimal structural parameters. The obtained results can contribute to improving the operational efficiency of crushing equipment used in the mining industry.

ISSN 3030-3907

Keywords: crushing, crusher, screw-toothed crusher, wear, rock, **STCM**, toothed disc, lining.

KIRISH.

Bugungi kunda konchilik sanoatida foydali qazilmalarni samarali qazib olish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ochiq konlarda qazib olinayotgan tog‘ jinslari tarkibida foydali qazilmalar turli o‘lchamdagi bo‘laklar shaklida bo‘lib, ular ko‘p hollarda bo‘sh tog‘ jinslari bilan bir butun massa hosil qilgan holda uchraydi. Shu sababli foydali qazilmalarni ajratib olish uchun avval tog‘ jinslarini maydalash jarayoni amalga oshiriladi. Maydalash jarayoni boyitish texnologiyasining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, keyingi texnologik jarayonlarning samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Konchilik korxonalarida maydalash uskunalarining ishonchliligi va uzoq muddat samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega. Chunki maydalagichlarning ishdan chiqishi butun texnologik jarayonning to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli maydalagichlarning ishchi organlarining yeyilishga chidamliligini oshirish, ularning konstruksiyasini takomillashtirish va xizmat muddatini uzaytirish masalalari doimo dolzarb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan SHTM-1300/300 turidagi shnek-tishli maydalagichlarning ishchi organlarini takomillashtirish, ularning yeyilishini kamaytirish va xizmat muddatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada SHTM-1300/300 maydalagich shneklarining konstruktiv xususiyatlari tahlil qilinib, ularning ishlash samaradorligini oshirish va yeyilishini kamaytirishga qaratilgan texnik yechimlar ko‘rib chiqilgan.

ASOSIY QISM.

SHTM turidagi shnek-tishli maydalagichlar ikki valli konstruksiyaga ega bo‘lib, vallarda shnek shaklida joylashtirilgan tishli disklar yordamida foydali qazilmani maydalashni amalga oshiradi. Maydalanuvchi foydali qazilma maydalagich kamerasiga tushib, qarama-qarshi aylanuvchi vallar ta’sirida tishlar orasida eziladi va parchalanadi. Bu jarayonda material vallar orasidagi tirqish orqali o‘tib, belgilangan o‘lchamgacha maydalanadi. Bo‘lakli foydali qazilmalarni maydalash turli rusumdagi maydalagich (drobilka)lar qo‘llagan holda bir necha bosqichda olib boriladi. Maydalagich jarayoni uch bosqichda (yirik, o‘rtacha, mayda) olib boriladi, ularning umumiy xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Maydalash bosqichlari

Bosqich	Bo‘laklar o‘lchamlari, mm		Maydalagichlar
	kelayotgan	chiqayotgan	
Yirik	300-1500	100-300	Jag‘li, konusli, zarbali, shnekli
O‘rtacha	100-300	10-50	Jag‘li, konusli
Mayda	10-50	3-10	Konusli, shnekli

Dunyodagi yirik ochiq konlardan biri hisoblangan Muruntog‘ konida konusli hamda shnek-tishli maydalagichlar keng qo‘llanilmoqda. Konveyer transporti orqali foydali qazilmalarni samarali tashish uchun ularni 300–450 mm o‘lchamgacha maydalash talab etiladi. Shu bilan birga, foydali qazilmalarning yuqori yopishqoqligi inobatga olingan holda, amaliyotda SHTM (shnek-tishli maydalagich) turidagi uskunalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq hozirgi kunda Muruntog‘ konida ushbu maydalagichlarning ishlash muddati shneklarning tez yemirilishi sababli qisqarib bormoqda. Bunday sharoitlarda maydalash kameralarining yopishib qolishi, nazorat elash jarayonlarini tashkil etish qiyinligi, kameralarni tez-tez tozalash zarurati va natijada uskunalarning tez-tez to‘xtab qolishi kuzatiladi. Ayrim hollarda esa uskunalarning to‘liq ishlamay qolishi ham mumkin. Shu sababli yuqori yopishqoq va gilli materiallarni qayta ishlash uchun konstruksiyasi sodda, tez yig‘iladigan va qismlarga oson ajratiladigan, energiya sarfi kam hamda yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan ikki valli shnek-tishli maydalagichlar (1-rasm) kon korxonalarida keng qo‘llanilmoqda.



1-rasm. Ikki valli shnek tishli maydalagich

Ikki valli shnek-tishli maydalagichning muhim afzalliklaridan biri – ishchi organlarida yopishib qolishga moyil bo‘lgan materiallarni samarali qayta ishlash imkoniyatidir. Ushbu xususiyat shnek-tishli DSHZ turidagi maydalagichlarni

ISSN 3030-3907

boshqa turdagi maydalash uskunalaridan ajratib turadi. Tishlarning shneksimon joylashuvi maydalovchi elementlar va maydalash kamerasining ichki bo‘shlig‘ini o‘z-o‘zidan tozalash samarasini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bunday konstruksiya maydalagichning “uyum ostida” barqaror ishlashini ta’minlab, uning ishonchliligini oshiradi (2-rasm).

Foydali qazilmalarni maydalash darajasining pastligi va tog‘ jinsi qattiqligi maksimal yuqori chiqishi, maydalangan tog‘ jinsi tarkibi qat’iy tartibga solinadigan materiallarni maydalash sxemalari uchun tishli shnekli maydalagichlarni tanlashni belgilaydi.



2-rasm. Shnek tishli maydalagichning maydalash zonasi

1-Jadval

SHTM-1300/300-DR-1 maydalagichni texnik tasnifi

Maydalanuvchi materiallarning siqilishga mustaxkamlik chegarasi, MPa (kgkuch/sm2)	150
Eng kata maydalanadigan bo‘lak, mm	1300
Maydalagich tirqishinig kengligi, mm	300
100...150 MPa gacha bo‘lgan tog‘ jinslardagi maydalagich unumdorligi, m3/soat	2000
Shneklarning aylanish chastotasi, ayl/min	25
Elektr yuritmaning soni va quvvati, kVt	2x400
Elektr uritmaning aylanish chastotasi ayl/min	1000
Kuchlanish, V	6000 (50 Гц)
Reduktor	silindrsimon
Uzatmalar soni	40,57
Mufta turi	866 TV 04
Maydalagich mexanik qismining mexanizmlarning elektr jihozlari bilan birgalikdagi o‘lchamlari, mm	

ISSN 3030-3907


Uzunligi	9357
Kengligi	5365
Balandligi	2965

SHTM turidagi shnek-tishli maydalagich to‘g‘ri burchakli korpus, elektr yuritmalar, reduktorlar, muftalar, podshipniklar, mahkamlovchi yarim halqalar hamda tishli shneklardan tashkil topgan murakkab mexanik tizim hisoblanadi. Tishli shneklar vallarga o‘rnatilgan bo‘lib, ularga tishli disklar mahkamlanadi va disklarga tishlar boltli birikma orqali o‘rnatiladi. Qo‘shimcha ravishda tishlar payvandlash orqali mustahkamlanadi, bu esa konstruksiyaning ishonchliligini oshiradi. Tishli disklarning tashqi yuzalari yeyilishga chidamli qoplama bilan himoyalanadi, mufta sifatida esa yuqori elastik qobiqli muftalar qo‘llaniladi.

Shnek-tishli maydalagichlar, ayniqsa, yopishqoq va gilli tog‘ jinslarini maydalash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning afzalliklari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, konstruksiya elementlarining yeyilishga chidamliligi va umumiy ishonchliligi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Maydalagich tishli disklari odatda 35XML turidagi yuqori legirlangan po‘latdan, tishlar esa 110G13L turidagi yuqori marganesli po‘latdan tayyorlanadi. Podshipnik korpusining tashqi diametri 400–900 mm oralig‘ida, devor qalinligi esa 30–100 mm ni tashkil etadi. Shuningdek, tishlar yuzasi yeyilishga chidamli qoplama bilan mustahkamlanishi mumkin.

Shnek-tishli maydalagichning konstruktiv tuzilishi 3-rasmda keltirilgan. Unda to‘g‘ri burchakli korpus asosga mahkamlangan bo‘lib, uning yon devorlarida vallarni joylashtirish uchun simmetrik teshiklar mavjud. Bu teshiklarda podshipnikli mahkamlovchi yarim halqalar o‘rnatilgan bo‘lib, ular orasida joylashgan vallar o‘z o‘qi atrofida erkin aylanadi. Vallar orasidagi masofa odatda 500 dan 1300 mm gacha bo‘ladi. Vallarga o‘rnatilgan tishli disklar shponka yordamida mahkamlanib, ularning burilib ketishining oldi olinadi. Elektr yuritmalar reduktorlar va muftalar orqali vallar bilan bog‘langan bo‘lib, bu uzatma tizimi maydalagichning barqaror ishlashini ta’minlaydi.


ISSN 3030-3907



1-asos, 2-korpus, 3-elektr yuritgich, 4-reduktor, 5-mufta, 6-korpus teshigiga o‘rnatilgan podshipnik, 7-mustahkamlovchi yarim halqa, 8-tishli disklar o‘rnatilgan valdan iborat tishli shnek, 9-korpus tishlari, 10-tishli disk, 11-diskli tishlar, 12-val, 13-shponka, 14-boltli birikma, 15-tutashish konturi bo‘yicha qaynatish joyi

3-rasm. Shnek-tishli maydalagich va uning tishlari mahkamlangan diskning sxemasi.

SHTM maydalagichda tishli disklarning ishonchliligini oshirish maqsadida ular 35XML turidagi yuqori legirlangan po‘latdan tayyorlanadi. Ushbu po‘latning yuqori elastiklik xususiyatlari tufayli tishli disklar uzoq muddat davomida katta zarba yuklamalariga bardosh bera oladi hamda ekspluatatsiya jarayonida yuqori mustahkamlikni ta’minlaydi.




4-rasm. Shnek tishli disk va uning tishlari

4-rasmda shnek tishli disk va uning tishlari ko‘rsatilgan. Tishli diskni 35XML turidagi, tishlarni esa 110G13L turidagi po‘latdan tayyorlash maydalagichning ishlash muddati va samaradorligini oshiradi. Tishlarning xizmat muddati 2–6 oy bo‘lib, ularni almashtirish oson va iqtisodiy jihatdan maqbul. Tishlarning yeyilishga chidamliligini oshirish uchun ularning ishchi yuzalari OZN-6 elektrodlari bilan qoplanadi, bu esa konstruksiyaning ishonchli ishlashini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907


110G13L po'latning kimyoviy tarkibi %	
C	0,9 – 1,4
Si	0,8 – 1
Mn	11,5 – 15
Ni	1 gacha
S	0,05 gacha
P	0,12 gacha
Cr	1 gacha
Cu	0,3 gacha
Fe	~83



5-rasm 110G13L po‘latning kimyoviy tarkibi.

Shunday qilib, maydalagich konstruksiyasida shnek-tishli tizim, yuqori elastik mufta, tishli disklarni yeyilishga chidamli qoplash va tishlarni payvandlash orqali mustahkamlash uning ishonchliligi, chidamliligi hamda yeyilishga bardoshliligini oshiradi.

Shnekli maydalagich uchun to‘rt tishli disk taklif etilgan bo‘lib (6-rasm), u val uchun o‘tqazish teshigiga ega silindrik asosdan tashkil topgan va unda to‘rtta yaxlit quyilgan tishlar 90° burchak ostida joylashgan. Tishlar maxsus burchaklar ostida shakllantirilib, old qismiga futerovka materiali mahkamlanadi. Tishlarni mustahkamlash boltli birikma va payvandlash orqali amalga oshiriladi.




1 - silindrik asos; 2 - tish; 3 - tishning orqa qismi; 4 - tishning orqa yuqori qismi; 5 - futerovka elementi; 6 - tish orqa qismining qiyalik burchagi, 10° ga teng; 7 - 60° ga teng bo‘lgan tish orqa yuqori qismining qiyalik burchagi: 8 - 80° ga teng bo‘lgan tog‘ jinsiga ta’sir etuvchi qismining burchagi; 9 - to‘rt tishli disk korpusining shnekli maydalagichdagi holati.

6-rasm. To‘rt tishli diskli shnekli maydalagich.

Futerovka sifatida 110G13L va 12XN3A turidagi po‘latlar qo‘llanilib, ular yuqori zarba yuklamalariga bardoshliligi va yeyilishga chidamliligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, 12XN3A po‘lati yuqori mustahkamlik va ishonchlilik talab etiladigan detallar uchun qo‘llaniladi.

ISSN 3030-3907

Tishli diskning samaradorligi tishlar soni va ularning geometrik parametrlariga bog‘liq. Optimal tishlar soni 4 ta bo‘lib, bu holatda yirik bo‘laklarni samarali maydalash ta’minlanadi. Eng katta yuk tishning old qismiga tushganligi sababli, u futerovka bilan himoyalanadi. Maydalash samaradorligini ta’minlash uchun ta’sir burchagi 50°–85° oralig‘ida tanlanadi, orqa yuqori qismi esa 55°–65° burchak ostida qiya qilib bajariladi.



7-rasm. Shnek tishli diski va unga tishlarni o‘rnatish

Taklif etilgan to‘rt tishli disk konstruksiyasi amalda sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, uning yeyilishga chidamliligi va ishonchliligi sezilarli darajada oshganligi aniqlangan.

XULOSA.

Ushbu ishda shnek-tishli maydalagich ishchi organlarining yeyilishini kamaytirish orqali uning samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Asosiy muammo sifatida maydalagich tishlari va shneklari tez yeyilishi natijasida uskunaning ishonchliligi va unumdorligi pasayishi aniqlangan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yeyilishga chidamli materiallardan foydalanish, tishlarni qo‘shimcha mustahkamlash va himoya qoplamalarini qo‘llash orqali uskunaning xizmat muddatini uzaytirish mumkin. Shuningdek, tishlar soni va ularning joylashuvi kabi konstruktiv parametrlarni to‘g‘ri tanlash maydalash samaradorligini oshiradi. Taklif etilgan yechimlar maydalagichning ishonchliligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Андреев А.В., Дьяков В.А., Шешко Е.Е. “Транспортные машины и автоматизированные комплексы открытых разработок”: Учебник для вузов. - М.: Недра, 1975.-463 с.
2. Василев М.В. “Транспорт глубоких карьеров”. - М.: Недра, 1983. - 360 с.
3. Галкин В.И., Дмитриев В.Г., Дяченко В.П., Запенин И.В., Шешко Е.Е. “Современная теория ленточных конвейеров”: Учебное пособие для вузов. -М.: Изд-во МГГУ, 2005.-543с.

ISSN 3030-3907

4. Григорев В.Н., Дьяков В.А., Пухов Ю.С. “Транспортные машины для подземных разработок”: Учебник для вузов. - М.: Недра, 1984. - 384 с.
5. Дьяков В.А. “Транспортные машины и комплексы открытых разработок”: Учебник для вузов. - М.: Недра, 1986. - 344 с.
6. Спиваковский А.О., Потапов М.Г. “Транспортные машины и комплексы открытых горных разработок”. - М.: Недра, 1983. - 383 с.
7. Gaffarov A.A., Atakulov LN. Avtosamosvallar ekspluatatsion ko‘rsatkichlari samaradorligini oshirish //“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali №3 2025.
8. Toshov J.B., Rabatuly M., Khaydarov Sh., Kenetayeva A.A., Khamzayev A., Usmonov M., Zheldikbayeva A.T. Methods for Analysis and Improvement of Dynamic Loads on the Steel Wire Rope Holding the Boom of Steel Wire Rope Excavators. Integrated Use of Mineral Raw Materials Complex Use of Mineral Resources 2026; 339(4):87-96 https://doi.org/10.31643/2026/6445.43
9. Zokhidov O.U., Khoshimov O.O., Khalilov Sh.Sh. Experimental analysis of microges installation for existing water flows in industrial plants. III International Conference on Improving Energy Efficiency, Environmental Safety and Sustainable Development in Agriculture (EESTE2023), E3S Web of Conferences. 2023.
10. Khamzaev A.A., Mambetsheripova A., Arislanbek N. Thyristor-based control for high-power and high-voltage synchronous electric drives in ball mill operations/ E3S Web Conf. Volume 498, 2024/ III International Conference on Actual Problems of the Energy Complex: Mining, Production, Transmission, Processing and Environmental Protection (ICAPE2024).
11. Кацман М.М. Электрические машины: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования. – М.: Издательский центр "Академия", 2013. – 496 с.
12. Abdalimovich, X. A., O‘G‘Li, U. M. Z., & Djabbarovich, S. D. (2025). SHAXTA SHAROITIDA NASOS QURILMALARINING ISH REJIMINI AVTOMATLASHTIRISH EVAZIGA ENERGIYA VA RESURS TEJAMKORLIKNI OSHIRISH. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 8(1), 84-93.
13. Xamzayev, A. A., O‘G‘Li, J. U. B., Usmonov, M. Z. O. G. L., & Karimova, O. S. Q. (2024). Karyer ekskavatorlarning elektr yuritmalari ish rejimlarini manipulyator yordamida tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 5(5), 638-648.
14. Toshov, J. B., Rabatuly, M., Khaydarov, S., Kenetayeva, A. A., Khamzayev, A., Usmonov, M., & Zheldikbayeva, A. T. (2026). Methods for analysis and improvement of dynamic loads on the steel wire rope holding the boom of steel

ISSN 3030-3907

wire rope excavators. Kompleksnoe Ispolzovanie Mineralnogo Syra= Complex use of mineral resources, 339(4), 87-96.

ISSN 3030-3907

FARG‘ONA VILOYATIDA JAMOAT YO‘LOVCHI TRANSPORTI YO‘NALISHLARI TARMOG‘INING SHAKLLANISHI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI TAHLILI

Nazarov Anvar Aripovich
Toshkent davlat transport universiteti “Yo‘l harakatini tashkil etish” kafedrasi mudiri Texnika fanlari doktori, professor,
Toshkent shahri, O‘zbekiston
Siddiqov Beknazar Jumanazar o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi Tayanch doktorant (PhD),
Farg‘ona shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona viloyatida jamoat yo‘lovchi transporti yo‘nalishlari tarmog‘ining hozirgi holati statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Yo‘nalishlar soni, transport vositalari tarkibi, shahar ichi va shahar atrofi qatnovlarining hududiy taqsimlanishi hamda viloyatlararo yo‘nalishlarning shakllanish xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyati jamoat transporti tizimida kichik sig‘imli transport vositalarining ulushi yuqori ekanini hamda ayrim yo‘nalishlarda avtobuslar sonini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar hududiy transport tizimini optimallashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: jamoat transporti, yo‘lovchi tashish tizimi, avtobus yo‘nalishi, yo‘nalishli taksi, transport tarmog‘i, Farg‘ona viloyati, shahar atrofi qatnovi.

Abstract. The article analyzes the current state of the network of public passenger transport routes in the Fergana region based on statistical data. The number of routes, the composition of vehicles, the territorial distribution of intra-city and suburban traffic, and the characteristics of the formation of inter-regional routes were studied. The results of the study show that the share of small-capacity vehicles in the public transport system of Fergana region is high and that it is necessary to increase the number of buses on some routes. The results obtained are of practical importance for optimizing the regional transport system.

Keywords: public transport, passenger transportation system, bus route, fixed-route taxi, transport network, Fergana region, suburban traffic.

Аннотация. В статье на основе статистических данных проанализировано современное состояние сети маршрутов общественного пассажирского транспорта в Ферганской области. Изучено количество маршрутов, состав транспортных средств, территориальное распределение городских и пригородных перевозок, а также особенности формирования межрегиональных маршрутов. Результаты исследования показывают, что в системе общественного транспорта Ферганской области высока доля

ISSN 3030-3907

транспортных средств малой вместимости и что на некоторых маршрутах необходимо увеличить количество автобусов. Полученные результаты имеют практическое значение для оптимизации региональной транспортной системы.

Ключевые слова: общественный транспорт, система пассажирских перевозок, автобусный маршрут, маршрутное такси, транспортная сеть, Ферганская область, пригородные перевозки.

KIRISH.

Jamoat yo‘lovchi transporti tizimi shaharlar va yirik aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Chunki aholining ish, ta’lim, tibbiy xizmat, savdo-xizmat ko‘rsatish va boshqa ehtiyojlar bo‘yicha harakatlanishi asosan jamoat transporti orqali amalga oshiriladi. Shahar transport tizimining samaradorligi yo‘lovchilarga qulaylik yaratish, hayot sifatini oshirish hamda transport-logistika tizimining barqaror ishlashini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi [1–3].

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ini hududiy jihatdan oqilona rejalashtirish aholining transport harakatchanligini oshirish, shahar markazlaridagi tirbandliklarni kamaytirish hamda transportning atrof-muhitga salbiy ta’sirini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2,4]. Ayniqsa, aholi zich yashaydigan hududlarda yo‘nalishlar soni, transport vositalarining sig‘imi, qatnovlar muntazamligi va xizmat ko‘rsatish sifati jamoat transporti tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida baholanadi [1,5].

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri hisoblanib, bu yerda jamoat transporti aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Hududda shahar ichi, shahar atrofi va viloyatlararo yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarining keng qamrovli tarmog‘i shakllangan bo‘lib, harakat jadalligi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda asosan kichik sig‘imli transport vositalaridan foydalanish ustunlik qiladi [6,7].

Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona viloyati bo‘yicha jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ining hozirgi holatini, transport vositalari tarkibini, yo‘nalishlar sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishini hamda xizmat ko‘rsatish tizimining xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada mavjud statistik ma’lumotlar asosida Farg‘ona viloyatidagi jamoat transporti tizimining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi hamda jamoat transporti tarmoqlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantiriladi.

NAZARIY QISM. O‘zbekiston Respublikasining eng yirik va aholi zich yashaydigan hududlaridan biri hisoblangan Farg‘ona viloyatida jamoat yo‘lovchi

ISSN 3030-3907

transport tizimi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishchi kuchining harakatchanligi va xizmat ko‘rsatish sifati bevosita jamoat transporti infratuzilmasi va uning harakatlanish samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra Farg‘ona viloyatida yo‘lovchi tashish sohasida quyidagi transport tarmoqlari faoliyat yuritmoqda (1-jadval):

1-jadval

Farg‘ona viloyati hududlar kesimida shahar, shahar atrofi, viloyat ichi shaharlararo va viloyatlararo shaharlararo yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumot

№	Hudud nomi	Yo‘nalishlar soni			Avtotransportlar soni			
		jami	avtobus	taksi	jami	avtobus	mikro avtobus	damas
1.	Farg‘ona shahar	18	12	6	253	126	11	116
2.	Qo‘qon shahar	30	27	3	289	267	12	10
3.	Marg‘ilon shahar	27	4	23	926	26	0	900
4.	Quvasoy shahar	8	1	7	214	10	0	204
5.	Beshariq	29	9	20	573	44	23	506
6.	Buvayda	27	6	21	459	39	22	398
7.	Bag‘dod	17	4	13	331	16	37	278
8.	Uchko‘prik	27	8	19	293	35	3	255
9.	Dang‘ara	21	3	18	334	10	0	324
10.	Furqat	18	3	15	225	5	0	220
11.	O‘zbekiston	26	3	23	322	14	8	300
12.	Rishton	19	6	13	264	29	12	223
13.	Oltiariq	28	4	24	576	33	19	524
14.	Toshloq	17	1	16	443	8	6	429
15.	Quva	17	5	12	287	36	18	233
16.	Farg‘ona tumani	12	7	5	113	46	32	35
17.	Yozyovon	6	2	4	66	12	0	54
18.	So‘x	1	1	0	4	4	0	0
19.	Qo‘shtepa	21	0	21	424	0	0	424
Umumiy		369	106	263	6396	760	203	5433

Farg‘ona viloyati transport tizimida jami 369 ta yo‘nalish faoliyat yuritadi. Shundan 106 tasi avtobus, 263 tasi esa taksi yo‘nalishlaridan iborat. Avtotransport

ISSN 3030-3907

vositalarining umumiy soni 6396 ta bo‘lib, ulardan 760 tasi avtobus, 203 tasi mikroavtobus, 5433 tasi “Damas” avtomobillarini tashkil etadi.

Viloyatlar bo‘yicha eng ko‘p transport vositalari Marg‘ilon shahriga hizmat ko‘rsatadi, 926 ta. Ularning katta qismi “Damas” avtomobiliga to‘g‘ri keladi, 900 ta. Ikkinchi yirik ko‘rsatkich Oltiariq tumanida qayd etilgan bo‘lib, bu yerda 576 ta transport vositasi faoliyat yuritadi. Qo‘shtepa tumanida esa barcha yo‘lovchi tashish vositalari to‘liq “Damas” avtomobillari orqali amalga oshiriladi, 424 ta.

Qo‘qon shahrida esa 30 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib, ularda jami 289 ta transport vositasi qatnaydi. Shahar miqyosida avtobuslar soni eng katta qiymatga ega.

Farg‘ona shahrida 18 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib, ularda 253 ta transport vositasi qatnaydi. Shundan 126 tasi avtobus, 11 tasi mikroavtobus, 116 tasi “Damas” hisoblanadi.

Shuningdek, So‘x tumanida 4 ta yo‘nalish faqat avtobuslar orqali ta’minlangan bo‘lib, bu hududning geografik joylashuvi va tog‘li sharoiti bilan izohlanadi.

Umuman olganda, Farg‘ona viloyatida yo‘lovchi tashish tizimi asosan kichik sig‘imli transport vositalari — “Damas” avtomobillariga asoslangan bo‘lib, bu viloyat transport infratuzilmasi samaradorligini oshirish uchun avtobuslar ulushini ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Farg‘ona viloyati hududlar kesimida shahar, shahar atrofi, viloyat ichi shaharlararo va viloyatlararo shaharlararo yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari to‘g‘risida

№	Yo‘nalish tarmog‘i	Yo‘nalishlar soni	Avtotransport soni	Yo‘nalish masofasi (km)
1.	Shahar ichi avtobus yo‘nalishlari	40	387	522
2.	Shahar ichi yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari	23	729	231,8
3.	Shahar atrofi avtobus yo‘nalishlari	61	348	1348,4
4.	Viloyat ichi shaharlararo avtobus yo‘nalishlari	2	20	496,5
5.	Viloyat ichi shaharlararo yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari	2	17	157,7

ISSN 3030-3907

6.	Viloyat ichi shaharlararo mikroavtobus yo‘nalishlari	1	8	60
7.	Shahar atrofi yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari	236	4885	3163
Jami:		369	6396	5979,4

Farg‘ona viloyatida yo‘lovchi tashish transporti yo‘nalishlari tarmoqlari keng qamrovli bo‘lib, 2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra jami 369 ta yo‘nalish faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu yo‘nalishlarda umumiy hisobda 6396 ta avtotransport vositasi biriktirilgan bo‘lib, yo‘nalishlarning umumiy uzunligi 5979,4 kmni tashkil etadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, shahar atrofi yo‘nalishlari eng katta ulushga ega bo‘lib, jami 236 ta yo‘nalishda yo‘lovchi tashish amalga oshiriladi. Bu yo‘nalishlarda 4885 ta avtotransport vositasi qatnovga jalb etilgan bo‘lib, umumiy masofa 3163 kmni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida asosan qisqa va o‘rta masofali yo‘nalishlarning ustunligini ko‘rsatadi.

Shahar ichidagi yo‘lovchi tashish tizimi ham viloyat transport tizimida muhim o‘rin tutadi. Shahar ichida 40 ta avtobus yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ularga 387 ta avtobus biriktirilgan va umumiy masofa 522 kmni tashkil etadi. Bundan tashqari, 23 ta yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, 729 ta transport vositasi xizmat ko‘rsatadi. Ushbu qatnovlarning umumiy masofasi 231,8 kmga teng. Shahar atrofi avtobus yo‘nalishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, 61 ta yo‘nalishda jami 348 ta avtobus qatnovi amalga oshiriladi. Yo‘nalishlarning umumiy uzunligi 1348,4 kmni tashkil etib, bu viloyat transport tizimida shahar atrofi qatnovlarining katta hajmga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, viloyat ichi shaharlararo qatnovlar nisbatan cheklangan bo‘lib, jami 5 ta yo‘nalish faoliyat yuritadi. Ularning ikki tasi avtobus yo‘nalishi (20 ta avtobus), ikki tasi yo‘nalishli taksi (17 ta transport vositasi) va biri mikroavtobus (8 ta transport vositasi) orqali amalga oshiriladi. Ushbu qatnovlarning umumiy masofasi 714,2 kmni tashkil etadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, obyekt sifatida tanlab olingan Qo‘qon shahri Farg‘ona viloyati bo‘yicha eng ko‘p yo‘nalish tarmog‘iga ega hududlardan biri hisoblanadi. Qo‘qon shahrida umumiy 30 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib, ularda 289 ta yo‘nalishli avtotransport vositasi qatnovni amalga oshirmoqda. Shahar ichidagi va shahar atrofi yo‘nalishlarining umumiy uzunligi 451,4 kmni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatkich Qo‘qon shahrida jamoat transporti xizmatlariga bo‘lgan talab yuqoriligini va aholining harakatlanish faolligini yaqqol ifodalaydi.

Umuman olganda, Farg‘ona viloyati jamoat yo‘lovchi transporti tarmog‘ida shahar atrofi yo‘nalishlari ustuvorlik qilsa-da, viloyat ichidagi shaharlararo qatnovlar ham aholi transport harakatchanligini ta’minlashda muhim

ISSN 3030-3907

rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yo‘nalishlar bo‘yicha transport vositalarining taqsimoti hamda yo‘nalish masofalarining diversifikatsiyasi viloyatning transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Farg‘ona viloyatini boshqa viloyatlar bilan bog‘lovchi yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalishning boshlag‘ich va oxirgi bekatlari nomi	Transport vositasi rusumi (M1/M2/M3)	Avtotransport vositalari soni	Umumiy sig‘imi	Yo‘nalish umumiy masofasi (km)	To‘rt o‘rindiqli engil a/v lar soni /sig‘imi
1.	Namangan – Farg‘ona	Avtobus	4	84	89,8	110/440
2.	Qo‘qon – Namangan	Avtobus	4	84	117	35/140
3.	Qo‘qon – Andijon	Avtobus	4	84	127,5	30/120
4.	Quva – Shahrixon	Avtobus	4	84	23	0
5.	Andijon – Farg‘ona	Avtobus	8	280	75	40/160
6.	Namangan – Farg‘ona	Mikroavtobus	12	120	87	110/440
7.	Andijon – Farg‘ona	Mikroavtobus	20	240	75	40/160
8.	Marg‘ilon – Andijon	Mikroavtobus	8	120	72,1	100/400
9.	Quva – Asaka	Damas	30	180	23	20/80
10.	Quva – Shahrixon	Damas	16	96	24	0
	Jami:		110	1372	713,4	485/1940

Farg‘ona viloyatini boshqa viloyatlar bilan bog‘lovchi yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari jami 10 ta muntazam yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarda jami 595 ta avtotransport vositasi harakatlanadi. Ularning sig‘imi 1857 o‘rinni, umumiy masofa esa 713,4 kmni tashkil qiladi.

ISSN 3030-3907

Transport vositalari tarkibida yo‘nalishli taksilar eng asosiy ulishni tashkil qiladi, 485 ta. Yengil avtomobillarning umumiy sig‘imi 1940 ta. Avtobus va mikroavtobuslarning soni mos ravishda 24 ta va 40 tani tashkil qiladi, damas avtomibili esa 46 tani tashkil qiladi. Ushbu avtotransport vositalari umumiy holatda 1372 nafar yo‘lovchini tashish imkoniyatiga ega.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim uzoq yo‘nalishlarda, xususan, Qo‘qon–Andijon va Qo‘qon–Namangan bo‘yicha avtobuslar sonini ko‘paytirish zarur.

XULOSA. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona viloyati jamoat transporti tizimi murakkab va ko‘p pog‘onali yo‘nalishlar tarmog‘idan iborat bo‘lib, unda asosan shahar atrofi qatnovlari ustunlik qiladi. Transport vositalari tarkibida kichik sig‘imli avtomobillar — ayniqsa “Damas” tipidagi transport vositalarining ulushi yuqori. Bu esa yo‘lovchi tashish tizimining intensiv, biroq qisqa masofali qatnovlarga yo‘naltirilganini anglatadi.

Qo‘qon, Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlarida yo‘nalishlar sonining yuqoriligi va transport vositalari zichligi ushbu hududlarda jamoat transportiga talab yuqori ekanini ko‘rsatadi. Biroq ayrim yo‘nalishlarda avtobuslar ulushining pastligi yuqori sig‘imli jamoat transportidan foydalanishni kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, viloyat jamoat transporti tizimini optimallashtirish yo‘lovchilar oqimi zich bo‘lgan yo‘nalishlarda avtobus qatnovlarini ko‘paytirish, yo‘nalish tarmog‘ini hududiy rejalashtirishni takomillashtirish hamda xizmat sifatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ceder A. Public Transit Planning and Operation: Modeling, Practice and Behavior. CRC Press, 2016.
2. Vuchic V.R. Urban Transit Systems and Technology. John Wiley & Sons, 2007.
3. Transit Cooperative Research Program. Transit Capacity and Quality of Service Manual. TRB, Washington, D.C., 2013.
4. Daganzo C.F. Fundamentals of Transportation and Traffic Operations. Elsevier, 1997.
5. Cats O. Regularity and Reliability in Public Transport Operations. Delft University of Technology, 2011.
6. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti.
7. Farg‘ona viloyati hokimligi rasmiy portali.

ISSN 3030-3907

PARA-ARAMID TOLALI TRIKOTAJ MATERIALLARI

Turaxujayeva Nilufar Nazirjanovna
Andijon davlat texnika instituti PhD
E-mail: Turaxujayevan1985@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj matolarining fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlari, shuningdek ularni yassi ignadonli trikotaj mashinalarida to‘qish texnologiyasining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan. To‘qima tuzilishining ko‘rsatkichlari matoning issiqlik va mexanik ta’sirlariga chidamliligi tahlil qilingan hamda para-aramid tolali trikotajning texnik to‘qimachilik va maxsus buyumlarda qo‘llanilish sohalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: para-aramid tolasi, para-aramid tolali trikotaj, trikotaj to‘rilmalari, olovga chidamlilik, himoya kiyimlari, texnik to‘qimachilik, trikotaj texnologiyasi.

Аннотация. В работе рассмотрены физико-механические и эксплуатационные свойства трикотажных полотен из пара-арамидной пряжи, а также особенности технологии их вязания на плосковязальных машинах. Проанализировано влияние структурных параметров на устойчивость материалов к термическим и механическим воздействиям и определены области применения пара-арамидного трикотажа в техническом текстиле и изделиях специального назначения.

Ключевые слова: пара-арамидное волокно, пара-арамидный трикотаж, трикотажные переплетения, огнеупорность, защитная одежда, технический текстиль, трикотажная технология.

Abstract. The paper examines the physical-mechanical and performance properties of knitted fabrics made from para-aramid yarn, as well as the technological features of their knitting on flat knitting machines. The influence of structural parameters on the resistance of the materials to thermal and mechanical effects is analyzed, and the application areas of para-aramid knitwear in technical textiles and special-purpose products are identified.

Keywords: para-aramid fiber, para-aramid knitwear, knitted structures, flame resistance, protective clothing, technical textiles, knitting technology.

KIRISH.

Sanoat texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mehnat xavfsizligiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi himoya xususiyatlari yuqori bo‘lgan yangi avlod tekstil materiallarini yaratishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Metallurgiya, energetika, transport, harbiy va boshqa yuqori xavfli sohalarda qo‘llaniladigan maxsus kiyimlar ishlab chiqarishda issiqlik, mexanik va ekspluatatsion ta’sirlarga chidamli, shu bilan birga ergonomik talablarga javob beradigan materiallarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda [1-3].

ISSN 3030-3907

Texnik va himoya maqsadlari uchun mo‘ljallangan yuqori texnologiyali tolalar orasida para-aramid tolalari o‘zining mustahkamligi, yengilligi va yuqori haroratga chidamliligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu tolalar an’anaviy sintetik tolalardan farqli ravishda erimaydi va yonishni qo‘llab-quvvatlamaydi, bu esa ularni maxsus vazifali tekstil materiallar ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo sifatida baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Shu bilan birga, para-aramid tolalaridan tayyorlangan trikotaj matolarning tuzilishi va xossalarini shakllantirish bilan bog‘liq masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu holat para-aramid iplarining past cho‘ziluvchanligi, yuqori qattiqligi hamda to‘qish jarayonida texnologik parametrlarni aniq sozlash zarurati bilan izohlanadi [4-5]. Shu sababli, trikotaj strukturasining texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ta’sirini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj matolarning tuzilishi va xossalarini shakllantirish qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek ularni maxsus maqsadli buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llash uchun optimal texnologik parametrlarni asoslab berishdan iborat [6].

Para-aramid tolalari aromatik poliamidlar sinfiga mansub bo‘lib, ularning asosiy farqlovchi xususiyati yuqori darajada yo‘naltirilgan makromolekulyar tuzilishga egaligidir. Makromolekulalarning tola o‘qi bo‘ylab tartibli joylashuvi natijasida ushbu tolalar yuqori mexanik mustahkamlik va elastiklik moduliga ega bo‘ladi.

Para-aramid tolalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari ularni yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan sanoat tolalari qatoriga kiritish imkonini beradi. Uzilishdagi mustahkamlik qiymati 3,6–3,9 GPa gacha yetadi, elastiklik moduli esa 130–140 GPa oralig‘ida bo‘ladi. Shu bilan birga, tolalarning past zichligi (1,44 g/sm^3) tayyor mahsulotlarning umumiy massasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tolalarning muhim ekspluatatsion afzalliklaridan yana biri ularning yuqori termobarqarorligidir. Para-aramid tolalari 250 °C gacha bo‘lgan haroratlarda o‘z mexanik xossalarini saqlab qoladi, erimaydi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri alanga ta’sirisiz yonmaydi. Bundan tashqari, ular ko‘plab kimyoviy moddalar ta’siriga chidamli bo‘lib, biologik yemirilishga uchramaydi hamda uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida xossalarining barqarorligini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot ishlari davomida para-aramid tolalaridan yigirilgan VICWA markali ip asosida tayyorlangan trikotaj mato namunalari o‘rganildi. Namunalar kompyuterlashtirilgan yassi ignadonli trikotaj mashinalarida ishlab chiqarilib, bunda to‘qima turlari va ayrim

ISSN 3030-3907

strukturaviy-texnologik ko‘rsatkichlar o‘zgartirib borildi. Bu yondashuv trikotaj tuzilishining material xossalariga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Xitoyda ishlab chiqarilgan VICWA markali para-aramid ipining texnik ko‘rsatkichlari olovbardoshlilik xususiyatlariga ega mahsulotlar uchun qo‘yiladigan talablarga to‘liq mos keladi. Mustahkamlik ko‘rsatkichlari oshirilgan, yangi turdagi termo-olovbardosh trikotajni tadqiq etish maqsadida chiziqli zichligi 30/2S (66 teks) bo‘lgan VICWA ipidan uchta variantda trikotaj namunalari tayyorlandi.

1-jadvalda maxsus trikotaj matolarini tadqiq etishda qo‘llanilgan “VICWA” ipining texnik tavsiflari keltirilgan.

1-jadval

VICWA para-aramid ipining texnik tavsifi

Ipnin turi	Chiziqli zichligi		Nisbiy uzilish kuchi	Uzilish kuchi	Uzilishdagi uzayish	Tarkib
	Ne	teks	cN/teks	cN	%	100% para-aramid
VPY 232	30/2S	66	75	3200	3-5	

VICWA ipning kamchiliklari qatoriga uning ultrabinafsha nurlanish ta’siriga nisbatan past barqarorligi kiradi, bu esa quyosh nuri uzoq muddat ta’sir etganda mustahkamlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ushbu yuqori mustahkam materialdan tayyorlangan mahsulotlar yuqori yeyilishga chidamliligi bilan ajralib turadi hamda ekspluatatsion xususiyatlarning yuqori darajasini namoyon etadi, jumladan ishqalanishga, kesilishlarga va o‘tkir kesuvchi qirralarga ega asboblar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yirtilishga bo‘lgan bardoshliligi bilan tavsiflanadi.

Para-aramid tolali trikotaj matolari uchun eng maqbul to‘qimalar sifatida glad, lastik, hamda aralash to‘qimalar olish mumkin, chunki ular mustahkamlik va egiluvchanlikning optimal uyg‘unligini ta’minlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Qo‘llanilgan to‘qima turiga ko‘ra halqa tuzilmasidagi quyidagi ko‘rsatkichlarda bir birlariga nisbatan o‘zgarishlar kuzatildi: halqa qadami (A), halqa qatori balandligi (B), gorizontal (Pg) va vertikal (Pv) bo‘yicha zichlik, halqa ipi uzunligi (L), yuza zichligi (Ms), qalinlik (T) hamda hajm zichligi (δ). Texnologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

2-jadval.


Maxsus trikotaj mato namunalarning texnologik ko‘rsatkichlari

Namuna variantlari	Ip markasi	Chiziqli zichlik, teks	Halqa qadami, A (mm)	Halqa qatori balandligi B, (mm)	Gorizontal bo‘ yicha zichlik, P_g	Vertikal bo‘ yicha zichlik, P_v	Halqa ipi uzunligi, L (mm)	Yuza zichligi Ms (g/m^2)	Qalinlik, T (mm)	Hajm zichligi, δ (mg/sm^3)
1	VICWA	66	1,7	1,25	30	40	6	237	0,9	263,3
2		66	1,7	1,25	30	40	6,2	482	1,7	283,5
3		66	1,7	1,7	30	30	6,2	422	1,7	248,2

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, halqadagi ip uzunligi (L) ning 6,0 mm dan 6,2 mm gacha oshirilishi natijasida trikotaj matoning sirt massasi (Ms) deyarli ikki baravar ortib, 237 g/m² dan 482 g/m² gacha yetgan. Mazkur holat halqali tizimida ip sarfining ko‘payishi hamda mato qalinligining 0,9 mm dan 1,7 mm gacha ortishi bilan izohlanadi.

Halqa qatori balandligi (B) 1,25 mm dan 1,7 mm gacha o‘zgartirilganda esa yuza zichligining 482 g/m² dan 422 g/m² gacha biroz kamayishi kuzatildi. Bu holat halqalar zichligining vertikal yo‘nalishda 40 dan 30 gacha kamayishi bilan bog‘liq.

1-rasmda maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj mato namunalari bo‘yicha qo‘llanilgan to‘qimalarga nisbatan yuza va hajm zichliklarining o‘zgarish grafigi keltirilgan, ya’ni to‘qima halqali tuzilishi va ipning tolaviy tarkibi trikotaj matosining texnologik ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlangan.



1-rasm. To‘qima turi o‘zgarishiga bog‘liq holda para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj mato namunalarning yuza va hajm zichliklarining o‘zgarish grafigi

ISSN 3030-3907

Para-aramid ipidan ishlab chiqarilgan trikotaj namunalarning sirt zichligi 237–482 g/m² oralig‘ida o‘zgaradi va ular orasidagi farq eng kichik qiymatga nisbatan 103 % ni tashkil etadi. Ya’ni, lastik to‘qima asosida tayyorlangan trikotaj mato namunasi (2-variant)ning yuza zichligi kulir glad to‘qimasi asosida ishlab chiqarilgan trikotaj mato namunasi (1-variant)ga nisbatan deyarli ikki baravar yuqoridir.

3-variantdagi trikotaj namunasining yuza zichligi 422 g/m² bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2-variantga nisbatan 12,4 % ga kam. Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, bir xil xomashyo qo‘llanilganda, lastik 2+1 va hosilali glad aralash to‘qimasi asosida ishlab chiqarilgan trikotaj matosi(3-variant)da ip sarfi sof lastik to‘qimaga (2-variant) nisbatan kamroq bo‘ladi.

Shuningdek, maxsus maqsadli trikotaj mato namunalari ichida 3-variant eng kichik hajm zichligiga ega bo‘lib, uning qiymati 248 mg/sm³ ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich 1-variantga nisbatan 5,7 % ga, 2-variantga nisbatan esa 12,4 % ga kamdir. Ushbu farqlar bir xil tolali tarkib va chiziqli zichlikga ega ip qo‘llanilganiga qaramasdan, trikotaj halqa tuzilishi ta’siri bilan izohlanadi.

Texnologik ko‘rsatkichlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, trikotaj matosining qalinligi va yuza zichligidagi o‘zgarishlar muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. 3-variant trikotaj halqa tuzilishi tarkibida asosiy va hosilaviy to‘qimalar aralashgan holda qo‘llanilgan. Bunday elementlarning miqdori, joylashuvi va takrorlanish tartibi texnologik parametrlar, keyinchalik esa trikotaj matosining mexanik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ishlab chiqilgan trikotaj matolar estetik ko‘rinish jihatidan talabga javob beradi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, eng iqtisodiy va resurs tejamkor, shuningdek boshqa texnologik talablar bilan mos keluvchi optimal variant sifatida glad to‘qimasi asosida tayyorlangan 1-variant tavsiya etilishi mumkin; 3-variant esa ikki qavatli to‘qimalar bilan qiyosiy baholash uchun maqsadga muvofiqdir.

Insonni ishlab chiqarish jarayonida uchraydigan turli zararli va xavfli omillardan himoya qilish hamda individual himoya vositalari tushunchasi kundalik hayotda ham, ishlab chiqarish sohasida ham doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Himoya vositalarining asosiy turlaridan biri bo‘lgan maxsus himoya kiyimlari assortimenti ularni tayyorlashda qo‘llaniladigan tekstil materiallarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Maxsus kiyim ishlab chiqarishda foydalaniladigan trikotaj materiallarning asosiy ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga mustahkamlik, yeyilishga chidamlilik, cho‘ziluvchanlik va shaklni saqlash qobiliyati kiradi. Ushbu xususiyatlar qo‘llanilgan ipning tolaviy tarkibi hamda tanlangan to‘qima strukturasiga bevosita bog‘liqdir [7-8].

Trikotaj matolarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari maxsus laboratoriya sharoitida sertifikatlangan sinov uskunalarida aniqlangan. Uzilish kuchi va

ISSN 3030-3907

uzilishdagi nisbiy uzayish ko‘rsatkichlari WDW-5E universal sinov mashinasida namunalarni uzunasiga va eniga bir o‘qli cho‘zish usuli yordamida o‘lchandi. Olingan sinov natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj namunalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

Variantlar, №	Uzilish kuchi, P (N)		Uzilishdagi uzayish, L (%)		6 N dagi uzayish, %		Deformatsiya (%)				Havo o‘tkazuvchanlik, B (sm^3/sm^2s)	Suv shimuvchanlik, %	ishqalanishga chidamlilik, tsikl
	uzunasiga	eniga	uzunasiga	eniga	uzunasiga	eniga	uzunasiga		eniga				
							qaytar, ε_{qr}	qaytmas, ε_{qs} (%)	qaytar, ε_{qr}	qaytmas, ε_{qs}			
1	883	573	13	27	1,65	2,79	79	21	57	43	358,9	2,07	>35587
2	2155	443	9,5	51,5	0,84	8,55	82	18	77	23	186,9	2,92	>35587
3	1838	728	10	24	0,9	4,2	80	20	50	50	255,9	3,21	>35587


Sinov jarayonida namunalarning tayyorlanishi, sinov sharoitlari va natijalarni qayta ishlash tartibi amaldagi GOST 8847–85 talablari asosida amalga oshirildi. Trikotaj matoning mustahkamlik ko‘rsatkichi sifatida namuna buzilish paytida qayd etilgan maksimal yuklama qabul qilindi. Bundan tashqari, deformatsion xossalar, qaytar va qaytmas uzayishlar, shuningdek ekspluatatsion ko‘rsatkichlar – havo o‘tkazuvchanlik, suv shimuvchanlik va ishqalanishga chidamlilik aniqlanib, tahlil qilindi.

Tekstil materiallarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bir martalik va ko‘p martalik cho‘zilish sharoitida aniqlanadigan uzilish (yorilish) xususiyatlari hisoblanadi. Aksariyat standartlar va texnik shartlarda tekstil matolar uchun mustahkamlikning me’yoriy qiymatlari uzilish yuklamasi ko‘rsatkichi orqali belgilangan. Ma’lumki, har bir halqa elementi tomonidan qabul qilinadigan cho‘zuvchi kuch miqdori uzilish jarayonida ishtirok etuvchi halqa elementlarining soni, ularning geometriyasi va o‘zaro joylashuvi, shuningdek ipning tolaviy tarkibi va uni qayta ishlash darajasiga bog‘liqdir.

ISSN 3030-3907

Sinovdan o‘tkazilgan trikotaj mato namunalarining mustahkamligi GOST 8847–85 talablari asosida WDW-5E sinov mashinasida mato tasmasini vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda uzish orqali aniqlandi. Mustahkamlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida namunani uzishga bo‘lgan qarshiligi qabul qilindi.

2-rasmda para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj namunalari uchun uzunligi va eni bo‘yicha uzilish kuchining P (N) o‘zgarish diagrammasi keltirilgan.



2-rasm. Para-aramid ipi asosida olingan trikotaj namunalarning uzunasiga va eniga uzilish kuchi P(N) ning o‘zgarish diagrammasi

Para-aramid ipidan tayyorlangan trikotaj mato namunalarining uzunasiga uzilish kuchi qiymatlari uzunlik yo‘nalishida **883–2155 N** oralig‘ida o‘zgarib, bu **59 %** ni tashkil etadi, eni bo‘yicha esa **443–728 N** diapazonda bo‘lib, **39,1 %** ni tashkil qiladi. Uzilish kuchining uzunlik bo‘yicha eng yuqori va eni bo‘yicha eng past qiymatlari **2-variant**da qayd etilgan (mos ravishda **2155 N** va **443 N**).

Mazkur holat **lastik 1+1** to‘qima halqa tuzilmasining uzilish jarayonida uzunlik yo‘nalishida qarshilik ko‘rsatuvchi elementlar sonining ko‘pligi bilan izohlanadi. Biroq eni bo‘yicha uzilishda to‘qima sezilarli darajada cho‘zilib va yupqalashib boradi, natijada uning zichligi va qalinligi kamayadi. Aynan ushbu omillar boshqa variantlarga nisbatan uzilish kuchining kichikroq qiymatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Uzilish kuchining oraliq qiymatlari **3-variant**da kuzatildi (uzunligi bo‘yicha **1838 N,** eni bo‘yicha **728 N**), bu ko‘rsatkichlar **1-variant**ga nisbatan mos ravishda **52 %** va **21,3 %** ga yuqoridir. Bu holat trikotaj strukturasida mavjud bo‘lgan **protyajkalar (uzatmalar)** bilan izohlanadi, ular uzilish vaqtida ta’sir etuvchi kuchlarga qo‘shimcha qarshilik ko‘rsatadi.

Shunday qilib, trikotajning mustahkamligi har bir halqa qatori va ustunida cho‘zuvchi kuchlarga qarshilik ko‘rsatuvchi iplar soniga bevosita bog‘liq bo‘lib, bunda qo‘llanilgan ipning mustahkamligi, chiziqli zichligi, trikotaj matosi halqa

ISSN 3030-3907

tuzilishining turi va zichligi yuqori mustahkamlakga ega maxsus trikotaj olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan trikotaj namunalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari uzilish mustahkamligi va ishqalanishga chidamlilik bo‘yicha **yuqori natijalarni** namoyon etdi. Shu bilan birga, matolar **elastiklik** va **havo o‘tkazuvchanlik** xususiyatlarini saqlab qoladi, bu esa ularni **podshlemniklar, termobarqaror ichki kiyimlar va qo‘lqoplar** ishlab chiqarishda qo‘llash imkonini beradi.

Para-aramid ipidan tayyorlangan buyumlarning yuqori mustahkamlik va estetik ko‘rsatkichlari ularning quyidagi sohalarda qo‘llanilishini belgilaydi:

1. **Individual himoya vositalari** (o‘t o‘chiruvchilar, payvandchilar, metallurglar uchun maxsus kiyimlar; podshlemniklar, qo‘lqoplar, termobarqaror ichki kiyimlar).
2. **Texnik tekstil** (kompozit materiallarda armirlovchi qatlamlar, issiqlik izolyatsion qoplamalar, filtrlar, zichlovchi elementlar).
3. **Transport va aviatsiya** (salonlarning ichki bezagi, shovqin yutuvchi va yong‘inga qarshi elementlar).
4. **Harbiy sanoat** (yumshoq bronyejiletlar, yong‘inga qarshi astarlar, ekipirovka elementlari).

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa sifatida aytish mumkinki, para-aramid tolalar asosidagi trikotaj material yuqori darajadagi mustahkamlik va issiqlikka chidamlilikni elastiklik hamda foydalanishdagi qulaylik bilan samarali uyg‘unlashtirgan zamonaviy yechim hisoblanadi. Uni ishlab chiqarish jarayonida texnologik parametrlarni puxta va aniq boshqarish talab etiladi, biroq yakuniy mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari bu murakkablikni to‘liq oqlaydi. To‘qimachilik texnologiyalarining takomillashuvi hamda yangi gibrid halqa tuzilmalarining yaratilishi esa para-aramid trikotaj materiallarining himoya vositalari va turli texnik sohalarda qo‘llanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мартынов И. П. Пожарная безопасность текстильной продукции // Техника и технология текстильной промышленности. – 2021. – №3. – С. 35-42.
2. Огнеупорная ткань: виды и характеристики // URL: https://mtrservis.ru/info/ogneupornaya-tkan-vidy-i-kharakteristiki/
3. Гончарова Н. И. Защитные свойства текстильных материалов: учебное пособие. – М.: Легпромиздат, 2019. – 272 с.
4. KEVLAR Aramid Fiber: Technical Guide: [англ.]: [арх. 8 августа 2007]. – DuPont. – С. II-1 (3-я паг.). – 32. https://www.dupont.com/content/dam/dupont/amer/us/en/safety/public/documents/en/Kevlar_Technical_Guide_0319.pdf

5. Фокина Е. В. Разработка технологии изготовления огнестойкого трикотажа для полетных костюмов космонавтов: диссертация кандидата технических наук. – Москва, 2011. – 191 с.
6. Turaxujayeva, N. (2024). YUQORI PISHIQLIK KO‘RSATKICHLARIGA EGA BO‘LGAN OLOVBARDOSHLI TRIKOTAJNING TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARINING TAHLILI. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(8), 132–137.
7. Турахужаева Н. Н. *Технологические особенности и эксплуатационные характеристики трикотажных полотен специального назначения на основе параарамидной пряжи*: монография. – Андижан: ООО «Omadbek Print Number One», 2025. – 112 с. – ISBN 978-9910-11-369-7.
8. Турахужаева Н. Н. Пара-арамидные трикотажные материалы специального назначения //Confrencea. – 2025. – Т. 10. – С. 29-32.

TARQOQ PARAMETRLI NOChIZIQ MAGNIT ZANJIRLARDA YUQORI GARMONIKALAR TAHLILI

Amirov Sulton Fayzullayevich
Fayzullayev Javharbek Sulton o‘g‘li
Sattorov Toshpo‘lot Ahmad o‘g‘li
E-mail: Sattorov.toshpolot@mail.ru
Murodov Behruzjon Barot o‘g‘li
E-mail: murodovbehruzjon96@gmail.com
Toshkent davlat transport universiteti
Buxoro davlat texnika universitet

Annotatsiya. Maqolada tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirlardagi yuqori garmonikalar tahlili ko‘rib chiqilgan. Asosan garmonik tahlil uchunchi garmonika uchun ko‘rilgan bo‘lib variatsiyalash usuli asosida magnit zanjirlardagi jarayonlarni tavsiflovchi murakkab differensial tenglamalar yechimlari hosil qilingan. Tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirlarda asosiy garmonika buzulish koeffitsiyentining o‘rtacha qiymati 5,69 % ekanligi aniqlangan. O‘zgartgichlar va o‘lchash qurilmalarida qo‘llanib kelinayotgan tarqoq parmetrli zanjirlarda yuqori garmonikalarni hisobga olish ularning o‘zgartirish va o‘lchash xatoliklarini aniqlash aniqligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘zlar: Asosiy garmonika, uchunchi garmonika, variatsiyalash usuli, magnit oqimi, magnit induksiyasi, garmonika buzulish koeffitsiyenti.

Аннотация. В статье выполнен анализ влияния высших гармоник на нелинейные магнитные цепи с распределёнными параметрами. При проведении гармонического анализа основное внимание уделено третьей гармонике, а для описания протекающих процессов применён метод вариации, позволивший получить решения сложных дифференциальных уравнений, характеризующих поведение указанных магнитных цепей. Установлено, что среднее значение коэффициента искажения основной гармоники в нелинейных магнитных цепях с распределёнными параметрами составляет 5,69 %. Показано, что учёт высших гармоник в таких цепях, используемых в преобразователях и измерительных устройствах, позволяет повысить точность определения погрешности преобразования и измерения.

Ключевые слова: Основная гармоника, третья гармоника, метод вариации, магнитный поток, магнитная индукция, коэффициент гармонического искажения.

Abstract. The article considers the analysis of higher harmonics affecting distributed-parameter nonlinear magnetic circuits. Mainly, in the harmonic analysis, the third harmonic is considered, and solutions of complex differential

ISSN 3030-3907

equations characterizing the processes in magnetic circuits were found based on the variation method. It was determined that the average value of the fundamental harmonic distortion coefficient in distributed-parameter nonlinear magnetic circuits is 5.69%. Taking higher harmonics into account in distributed-parameter circuits used in converters and measuring devices increases their operating accuracy and reduces measurement errors.

Keywords: Fundamental harmonic, third harmonic, variation, magnetic flux, magnetic induction, harmonic distortion coefficient.

KIRISH.

Ferromagnit elementli elektromagnit tizimlarni tadqiq etishda tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjir(TPNMZ)lar alohida ilmiy ahamiyatga ega, chunki bunday zanjirlarda magnit oqimi vaqt bo‘yicha ham, fazo bo‘yicha ham murakkab tarzda o‘zgaradi. Ayniqsa, qo‘zg‘aluvchan qism mavjud bo‘lganda tizim parametrlari o‘zgaruvchan tus oladi va bu magnit maydonning taqsimlanishi hamda garmonik tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Nochiziqlik sababli sinusoidal qo‘zg‘atishda ham magnit oqimi sof sinusoidal qonun bo‘yicha o‘zgarmaydi, natijada yuqori garmonikalar, xususan ta’siri sezilarli bo‘lgan uchinchi garmonika hosil bo‘ladi. Bu esa magnit tizimlarning ish rejimi, energiya yo‘qotishlari va dinamik tavsiflarini baholashda garmonik tahlilni muhim masalaga aylantiradi. Shu bois ushbu maqolada TPNMZ da magnit oqimining vaqt va koordinata bo‘yicha o‘zgarishi asosida birinchi va uchinchi garmonikalar tahlil qilinadi hamda ularning magnit zanjiri parametrlari va chegaraviy shartlarga bog‘liqligi yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. TPNMZ larni tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar asosan uch yo‘nalishda rivojlangan: umumiy matematik modellashtirish, magnit ekvivalent sxema asosidagi tezkor hisoblash usullari hamda garmonik rejimlarni garmonik balans va chekli elementlar usullari orqali tahlil qilish. Chaban va uning hammualliflari nochiziq elektromagnit zanjirlar uchun modifikatsiyalangan Hamilton–Ostrogradskiy prinsipi asosida matematik model taklif qilib, elektromagnit jarayonlarni variatsion yondashuv orqali ifodalash imkonini ko‘rsatishgan [1]. Bu yondashuv magnit zanjirlarning umumiy matematik tavsifini qurishda muhim nazariy asos bo‘lsa-da, unda yuqori garmonikalar fazoviy-vaqt bo‘yicha alohida ajratib tahlil qilinmagan.

Magnit ekvivalent sxema (MES) asosidagi ishlarda asosiy e’tibor magnit maydon taqsimotini tezkor va yetarlicha aniq hisoblashga qaratilgan. Wang va uning hammualliflari NVNMC (Nonlinear Varying-Network Magnetic Circuit - O‘zgaruvchan tarmoqli nochiziqi magnit zanjiri) modeli yordamida magnit to‘yinishi va sizib chiqish oqimini hisobga olgan holda 2D model orqali 3D mashina tavsiflarini baholash mumkinligini ko‘rsatishgan [2]. Kara va Celik

ISSN 3030-3907

ishlab chiqqan nochiziq MES modelida material nochiziqligi, sochilgan magnit oqimi va chekka qismlarida magnit oqimini yoyilishi hisobga olinib, FEA(chekli elementlar tahlili) bilan solishtirganda maksimal nisbiy xatolik 10.2%, o‘rtacha esa xatolik 5.2% bo‘lganligi qayd etilgan [3]. Seol va uning hammualliflari esa 3D nochiziq MES modelini taklif qilib, o‘q bo‘ylab magnit oqimi yo‘llari va sochilgan magnit oqimi komponentlarni hisobga olish natijasida WRSM(Wound Rotor Synchronous Machine - Chulg‘amli rotor rusumidagi sinxron mashina) tizimlarni aniqroq tavsiflash mumkinligini ko‘rsatishgan [4]. Mazkur ishlar magnit oqimining fazoviy taqsimotini hisoblashda samarali bo‘lsa-da, birinchi va uchinchi garmonikalarni analitik ko‘rinishda ajratishga yetarli e’tibor bermaydi.

Garmonik tahlil yo‘nalishida garmonik balans sullari alohida ahamiyatga ega. Gyselinck va uning hammualliflari chekli garmonik balans - element modeling usulini elektromagnit qurilmalar uchun taklif qilib, keyinchalik uni harakatni hisobga oluvchi 2D modellarga kengaytiririshgan [5]. Ularning ishida, ayniqsa, asosiy va past tartibli garmonikalar qiziqtirganda garmonik balans yondashuvi vaqt sohasidagi hisoblashga nisbatan samarali ekanligi ko‘rsatilgan [5]. Scolaro va uning hammualliflari esa 2D nochiziq chekli element magnit modelga harakat va zanjir bog‘lanishini qo‘shib, garmonik balans usuli bilan THD(Total Harmonic Distortion - umumiy garmonik buzilish) bo‘yicha 3% dan kichik, RMS(Root Mean Square - o‘rtacha kvadratik qiymat) bo‘yicha esa 1% dan kichik xatolik bilan natija olishgan [6]. Bu ishlar garmonik tarkibni sonli usullar yordamida aniqlashda muhim natija beradi, biroq TPNMZ ning bosh differensial tenglamasi asosida uchinchi garmonikani analitik hosil qilish masalasi ularda markaziy o‘rin egallamaydi.

Harakatlanuvchi qismlar mavjud bo‘lgan elektromagnit tizimlarda garmonik buzilish masalasi Tsai va Huang tomonidan balans armaturali aktuator misolida o‘rganilgan [7]. Ular assimetrik magnit oqimi mavjud bo‘lganda toq garmonikalar bilan birga juft garmonikalar ham paydo bo‘lishini ko‘rsatgan va geometrik parametrlarni o‘zgartirish orqali garmonik buzilishni kamaytirish mumkinligini aniqlagan [7]. Bu natijalar qo‘zg‘aluvchan qism va geometrik omillar garmonik tarkibga kuchli ta’sir qilishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. O‘zgaruvchan tok zanjirida ferromagnit elementning qo‘llanilishi ularda yuqori garmonikalar tahlilini ko‘rib chiqish masalasini qo‘yadi. Shu sababdan TPNMZ ni xarakterlovchi asosiy differensial tenglamani garmonik tahlil asosida hisoblash tartibini ko‘rib chiqamiz. Quyidagi boshlang‘ich shartlarni kiritamiz: Qo‘zg‘atuvchi chulg‘am yig‘iq parametrli va nodifferensial magnit zanjiri, unda magnit oqimi magnit o‘tkazgich uzunligi bo‘ylab o‘zgaradi va vaqt bo‘yicha. Ushbu shartlar asosida TPNMZ larni xarakterlovchi asosiy tenglamani qiyidagicha yozamiz [8,10].

ISSN 3030-3907

$$\frac{\partial^2 Q_\mu}{\partial x^2} - A\left(Q_\mu + \frac{a}{3!}Q_\mu^3 + \cdots\right) - B\frac{\partial Q_\mu}{\partial t} = 0, \qquad (1)$$

bu yerda Q_μ – magnit oqimi; $B = (\alpha_a + \alpha_b)C_x$ - chastotaga bog‘liq o‘zgaruvchi kattalik; A va a hamda α_a va α_b - o‘zgarmas kattaliklar; C_x – magnit maydon o‘tkazuvchanlik.

Tadqiq etilayotgan TPNMZ uchun quyidagi chegaraviy shartlar o‘rinli:

$$x = 0,\ Q_\mu(x,t) = Q_{\mu 0} sin\omega t, \qquad (2)$$

$$x = l,\ \frac{\partial Q_\mu(x,t)}{\partial x} = -C_{\mu l} Q_\mu(l,t), \qquad (3)$$

bu yerda $C_l = \frac{\mu_0 S}{l}$ - havo oralig‘ining magnit o‘tkazuvchanligi.

TPNMZ larda magnit maydonining magnit o‘tkazgich uzunligi bo‘ylab tarqalishi magnit maydoni kuchlanganligiga nochiziq bog‘liqligi magnit oqimini vaqt bo‘yicha nosinusoidal o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababdan (1) tenglama yechimini quyidagi qator ko‘rinishida izlash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi [9]:

$$Q_\mu(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} Q_{\mu n}(x)\, e^{jn\omega t}. \qquad (4)$$

(4) ni (1) ga qo‘yib, kompleks amplitudalar uchun quyidagi differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

birinchi garmonika uchun:

$$\frac{\partial^2 Q_{\mu 1x}}{\partial x^2} - AQ_{\mu 1x} - B_1 j\omega Q_{\mu 1x} = 0, \qquad (5)$$

uchinchi garmonika uchun:

$$\frac{\partial^2 Q_{\mu 3x}}{\partial x^2} - AQ_{\mu 3x} - jB_3 3\omega Q_{\mu 3x} = \frac{Aa}{3!}Q_{\mu 1x}^3. \qquad (6)$$

Yuqorida qayd etilgan chegaraviy shartlar asosida quyidagilarni yozishimiz mumkin:

$$x = 0, Q_{\mu 1} = Q_{\mu 0};\ Q_{\mu l} = 0, \qquad Q_{\mu 3} = 0;$$

$$x = l, \qquad -\frac{1}{C_{\mu x}}\frac{\partial Q_{\mu ln}}{\partial x} = C_l Q_{\mu ln}.$$

(5) differensial tenglamaning yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [9]:

$$Q_{\mu 1x} = A_1 e^{kx} + A_2 e^{-kx}, \qquad (7)$$

bu yerda $k = \sqrt{A + j\omega B}$ – magnit oqimini TPMZ bo‘ylab tarqalish koeffitsiyenti; A_1 va A_2 – integrallash doimiylari. $k = \sqrt{A + j\omega B} = (A + j\omega B)^{\frac{1}{2}} = \left(\sqrt{A^2 - \omega^2 B^2}\cdot e^{jarctg\left(\frac{\omega B}{A}\right)}\right)^{\frac{1}{2}} = \sqrt[4]{A^2 - \omega^2 B^2}\, e^{j\frac{1}{2}arctg\left(\frac{\omega B}{A}\right)}$

$$k = k_1 + jk_2 = Ze^{j\varphi},\ Z = \sqrt[4]{A^2 - \omega^2 B^2},\ \varphi = \frac{1}{2}arctg\left(\frac{\omega B}{A}\right) \qquad (8)$$

$$k_1 = \sqrt[4]{A^2 - \omega^2 B^2}\cos\left(\frac{1}{2}arctg\left(\frac{\omega B}{A}\right)\right),\ k_2 = \sqrt[4]{A^2 - \omega^2 B^2}\sin\left(\frac{1}{2}arctg\left(\frac{\omega B}{A}\right)\right).$$

ISSN 3030-3907

Yuqoridagilarni inobatga olib, (7) tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$Q_{\mu 1x} = (A_1 e^{k_1 x} + A_2 e^{-k_1 x})cosk_2 x + j(A_1 e^{k_1 x} - A_2 e^{-k_1 x})sink_2 x. \quad (9)$$

A_1 va A_2 integrallash doimiylarini yuqorida keltirilgan chegaraviy shartlardan (4) ni hisobga olgan holda aniqlaymiz.

Haqiqiy qismini ajratib va ayrim algebraik o‘zgartrishlardan so‘ng quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$Q_\mu(x,t) = D_0\{[(D_1 e^{k_1 x} + D_2 e^{-k_1 x})cosk_2 x - 2D_3 ch(k_1 x)\sin(k_2 x)]cos\omega t - [2D_3 sh(k_1 x)\cos(k_2 x) + (D_1 e^{k_1 x} - D_2 e^{-k_1 x})\sin(k_2 x)]cos\omega t\}, \quad (10)$$

bu yerda $D_0 = \frac{Q_{\mu 0}}{D_1 + D_2}$, $D_1 = \frac{d_1}{d_5} + d_3 d_6 + d_4 d_7$, $D_2 = d_2 d_5 + d_3 d_6 + d_4 d_7$,

$D_3 = d_4 d_6 - d_3 d_7$, $d_1 = [(k_1 - d)^2 + k_2^2]$, $d_2 = [(k_1 + d)^2 + k_2^2]$,

$d_3 = k_1^2 + k_2^2 - d^2$, $d_4 = 2k_2 d$, $d_5 = e^{k_1 l}$, $d_6 = \cos 2k_2 l$, $d_7 = \sin 2k_2 l$,

$k_1 = rcos\varphi$, $k_2 = rsin\varphi$, $r = \sqrt[4]{A^2 - \omega^2 B^2}$, $\varphi = arctg\frac{\omega B_1}{A}$, $d = C_{\mu x} C_l$.

Bir jinsli bo‘lmagan (6) tenglama yechimini istalgan o‘zgarmas miqdorlarni variatsiyalash usuli yordamida quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$Q_{\mu 3x}(x) = A_1(x)e^{mx} + A_2(x)e^{-mx}, \quad (11)$$

bu yerda $A_1(x)$ va $A_2(x)$ - x ga bo‘g‘liq bo‘lgan noma’lum funksiyalar.

$$m = A + j3\omega B_3 = m_1 + jm_2 = Te^{j\psi}, \quad (11)$$

bu yerda

$$T = \sqrt{A^2 - 3\omega^2 B_3^2}, \quad (12)$$

$$\psi = arctg\frac{3\omega B_3}{A}. \quad (13)$$

(12) va (13) ni (10) ga qo‘yib, quyidagi tengliklarni hosil qilamiz:

$$m_1 = \sqrt{A^2 - 3\omega^2 B_3^2}cos\left(arctg\left(\frac{3\omega B_3}{A}\right)\right),$$

$$m_2 = \sqrt{A^2 - 3\omega^2 B_3^2}sin\left(arctg\left(\frac{3\omega B_3}{A}\right)\right).$$

Istalgan o‘zgarmas miqdorlarni variatsiyalash tenglamalari quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\begin{cases} A_1'(x)e^{mx} + A_2'(x)e^{-mx} = 0, \\ mA_1'(x)e^{mx} - mA_2'(x)e^{-mx} = \varepsilon Q_{\mu 1}^3, \end{cases} \quad (14)$$

bu yerda $\varepsilon = \frac{Aa}{3!}$; $A_1'(x)$ va $A_2'(x)$ - $A_1(x)$ va $A_2(x)$ funksialar hosilalari.

(14) tenglamalar sistemaning quyidagi yechimini topamiz:

$$A_1(x) = \frac{\varepsilon}{2m}\int (A_1 e^{kx} + A_2 e^{-kx})^3 e^{-mx} dx + A_3 =$$

$$= \frac{\varepsilon}{2m}\int (A_1^3 e^{3kx} + 3A_1^2 A_2 e^{kx} + 3A_1 A_2^2 e^{-kx} + A_1^3 e^{-3kx})e^{-mx} dx + A_3 = \frac{\varepsilon}{2m}\cdot$$

ISSN 3030-3907

$$\cdot\left[\frac{A_1^3}{3k-m}e^{(3k-m)x}+\frac{3A_1^2A_2}{k-m}e^{(k-m)x}-\frac{3A_1A_2^2}{k+m}e^{-(k+m)x}-\frac{A_1^3}{3k+m}e^{-(3k+m)x}\right]+A_3. \quad (15)$$

Xuddi shu tartibda:

$$A_2(x)=\frac{\varepsilon}{2m}\left[\frac{A_1^3}{3k+m}e^{(3k+m)x}+\frac{3A_1^2A_2}{k+m}e^{(k+m)x}-\frac{3A_1A_2^2}{k-m}e^{-(k-m)x}-\frac{A_1^3}{3k-m}e^{-(3k-m)x}\right]+A_4. \quad (16)$$

Agar (15) va (16) larni (10) ga qo‘ysak, u holda quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$Q_{\mu 3x}(x)=\varepsilon\left[\frac{A_1^3}{9k^2-m^2}e^{3kx}+\frac{A_2^3}{9k^2-m^2}e^{-3kx}+\frac{3A_1A_2}{k^2+m^2}(A_1e^{kx}+A_2e^{-kx})\right]+A_3e^{mx}+A_4e^{-mx}. \quad (17)$$

Integrallash doimiylari A_3 va A_4 ni yuqoridagi chegaraviy shartlar asosida topamiz.

$$\begin{cases} A_3+A_4=C_1 \\ (m+d)e^{ml}A_3-(m-d)e^{-ml}A_4=C_2' \end{cases} \quad (18)$$

bu yerda

$$C_1=-\varepsilon\left[\frac{A_1^3+A_2^3}{9k^2-m^2}+\frac{3A_1A_2(A_1+A_2)}{k^2-m^2}\right], \quad (19)$$

$$C_2=-\varepsilon\left[\frac{(3k+d)A_1^3}{9k^2-m^2}e^{3kl}-\frac{(3k-d)A_2^3}{9k^2-m^2}e^{-3kl}+\frac{3A_1A_2}{k^2-m^2}\left((k+d)A_1e^{kl}-(k-d)A_2e^{-kl}\right).\right] \quad (20)$$

(18) sistemaning yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$A_3=\frac{(m-d)e^{-ml}C_1+C_2}{(m-d)e^{-ml}+(m+d)e^{ml}}, \quad (21)$$

$$A_4=\frac{(m+d)e^{-ml}C_1+C_2}{(m-d)e^{-ml}+(m+d)e^{ml}}. \quad (22)$$

Shunday qilib, (17) tenglamadagi barcha integrallash doimiylari topildi. Ushbu integrallash doimiylari va koeffitsiyentlar tenglamaning haqiqiy va mavhum qismlarini tavsiflovchi kattaliklarni kompleks qiymatlarini hisoblaymiz.

$$k=k_1+jk_2,\ m=m_1+jm_2,\ A_1=A_1'+jA_1''$$

$A_2=A_2'+jA_2''$, $A_3=A_3'+jA_4''$, $A_4=A_4'+jA_4''$. (булар нима учун керак!).

$$Q_{\mu 3x}(x)=\varepsilon\left[\frac{A_1^3}{9k^2-m^2}e^{3kx}+\frac{A_2^3}{9k^2-m^2}e^{-3kx}+\frac{3A_1A_2}{k^2+m^2}(A_1e^{kx}+A_2e^{-kx})\right]+A_3e^{mx}+A_4e^{-mx}$$

(17) ifodani yoyish uchun zarur.

$$A_1^3=(A_1'+jA_1'')^3=[(A_1')^3-3A_1'(A_1'')^2]+j[3A_1''(A_1')^2-(A_1'')^3]$$

$$A_2^3=(A_2'+jA_2'')^3=[(A_2')^3-3A_2'(A_2'')^2]+j[3A_2''(A_2')^2-(A_2'')^3]$$

ISSN 3030-3907

$$A_1A_2 = (A_1'A_2' - A_1''A_2'') + j(A_1'A_2'' + A_1''A_2')$$
$$e^{kx} = e^{(k_1+jk_2)x} = e^{k_1x}(cosk_2x + jsink_2x)$$
$$e^{-kx} = e^{-(k_1+jk_2)x} = e^{-k_1x}(cosk_2x - jsink_2x)$$
$$e^{3kx} = e^{3(k_1+jk_2)x} = e^{3k_1x}(cos3k_2x + jsin3k_2x)$$
$$e^{-3kx} = e^{-3(k_1+jk_2)x} = e^{-3k_1x}(cos3k_2x - jsin3k_2x)$$
$$e^{mx} = e^{(m_1+jm)x} = e^{m_1x}(cosm_2x + jsinm_2x)$$
$$e^{-mx} = e^{-(m_1+jm_2)x} = e^{-m_1x}(cosm_2x - jsinm_2x)$$
$$k^2 = (k_1 + jk_2)^2 = (k_1^2 - k_2^2) + j2k_1k_2$$
$$m^2 = (m_1 + jm_2)^2 = (m_1^2 - m_2^2) + j2m_1m_2$$
$$9k^2 - m^2 = D_1 + jD_2$$
$$D_1 = 9(k_1^2 - k_2^2) - (m_1^2 - m_2^2)$$
$$D_2 = 18k_1k_2 - 2m_1m_2$$
$$\frac{1}{9k^2 - m^2} = \frac{D_1 - jD_2}{D_1^2 + D_2^2}$$
$$k^2 + m^2 = E_1 + jE_2$$
$$E_1 = (k_1^2 - k_2^2) + (m_1^2 - m_2^2)$$
$$E_2 = 2k_1k_2 + 2m_1m_2$$
$$\frac{1}{k^2 + m^2} = \frac{E_1 - jE_2}{E_1^2 + E_2^2}$$

Agar (17) ga (4) ni qo‘ysak va uni haqiqiy qismga ajratsak, u holda tegishli algebraik o‘zgartirishlardan so‘ng magnit oqimining uchinchi garmonik tashkil etuvchisi uchun quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$Q_{\mu 3}(x,t) = \varepsilon[(E_1'e^{3k_1x} + E_2'e^{-3k_1x})cos3k_2x - (E_1''e^{3k_1x} + E_2''e^{-3k_1x})sin3k_2x + (E_3'e^{k_1x} + E_4'e^{-k_1x})cosk_2x - (E_3''e^{k_1x} + E_4''e^{-k_1x})sink_2x + (E_5'e^{m_1x} + E_6'e^{-m_1x})cosm_2x - (E_5''e^{m_1x} + E_6''e^{-m_1x})sinm_2x]cos3\omega t - \varepsilon[(E_1''e^{3k_1x} + E_2''e^{-3k_1x})cos3k_2x + (E_1'e^{3k_1x} - E_2'e^{-3k_1x})sin3k_2x + (E_3'e^{k_1x} - E_4'e^{-k_1x})sink_2x + (E_5''e^{m_1x} + E_6''e^{-m_1x})cosm_2x + (E_5'e^{m_1x} - E_6'e^{-m_1x})sinm_2x]sin3\omega t, \quad (23)$$

bu yerda $E_1' = \frac{a_1a_2+b_1b_2}{a_1^2-b_1^2}$; $E_1'' = \frac{a_1b_2+a_2b_1}{a_1^2-b_1^2}$; $E_2' = \frac{a_1a_3+b_1b_3}{a_1^2-b_1^2}$; $E_2'' = \frac{a_1b_3-a_3b_1}{a_1^2-b_1^2}$; $E_3' = \frac{a_4a_5+b_4b_5}{a_4^2-b_4^2}$; $E_3'' = \frac{a_4b_5-a_5b_4}{a_4^2-b_4^2}$; $E_4' = \frac{a_4a_6-b_4b_5}{a_4^2-b_4^2}$; $E_4'' = \frac{a_4b_6-a_6b_4}{a_4^2-b_4^2}$; $a_1 = [9(k_1^2 - k_2^2) - (m_1^2 - m_2^2)]$; $b_1 = 9(2k_1k_2 - m_1m_2)$; $a_2 = D^3(D_1^3 - 3D_1D_3^2)$; $b_2 = D^3(D_2^3 - 3D_1^2D_3)$; $a_3 = D^3(D_2^3 - 3D_2D_3^2)$, $b_3 = D^3(D_3^2 - 3D_2^2D_3)$, $a_4 = (k_1^2 - k_2^2) - (m_1^2 - m_2^2)$; $b_4 = 2(k_1k_2 - m_1m_2)$; $a_5 = 3D^3[(D_1^2 - D_3^2)D_2 + 2D_1D_3^2]$; $b_5 = 3D^3[2D_1D_2D_3 - D_3(D_1^2 - D_3^2)]$; $a_6 = 3D^3[(D_1^2 - D_3^2)D_1 + 2D_2D_3^2]$; $b_6 = 3D^3[D_3(D_2^2 - D_3^2) - 2D_1D_2D_3]$; $\varepsilon_5' = -(\alpha'\varepsilon_1' - \alpha''\varepsilon_1'')$; $\varepsilon_5'' =$

ISSN 3030-3907

$$-(\alpha'\varepsilon_1'' + \alpha''\varepsilon_1'); \varepsilon_6' = -(\alpha'\varepsilon_2' - \alpha''\varepsilon_2''); \varepsilon_6'' = -(\alpha'\varepsilon_2'' + \alpha''\varepsilon_2'); \alpha' = \frac{\alpha_1' + \alpha_2'}{\gamma};$$

$$\alpha'' = \frac{\alpha_1'' + \alpha_2''}{\gamma}; \gamma = (\alpha_1' + \alpha_2')^2 - (\alpha_1'' + \alpha_2'')^2; \varepsilon_1' = \alpha_1'\delta_1 - \alpha_1''\delta_2 + \delta_1 - \delta_2;$$

$$\varepsilon_1'' = \alpha_1'\delta_2 - \alpha_1''\delta_1 + \delta_3 + \delta_4; \varepsilon_2' = \alpha_2'\delta_1 + \alpha_2''\delta_2 - \delta_1 + \delta_2; \varepsilon_2'' = \alpha_2'\delta_2 + \alpha_2''\delta_1 - \delta_3 - \delta_4;$$

$$\delta_1 = E_1' + E_2' + E_3' + E_4', \delta_2 = E_1'' + E_2'' + E_3'' + E_4'';$$

$$\delta_1 = \beta_1'E_1' - \beta_2'E_2' + \beta_3'E_3' - \beta_4'E_4'; \delta_2 = \beta_1''E_1'' - \beta_2''E_2'' + \beta_3''E_3'' - \beta_4''E_4'';$$

$$\delta_3 = \beta_1'E_1'' - \beta_2'E_2'' + \beta_3'E_3'' - \beta_4'E_4''; \delta_4 = \beta_1''E_1' - \beta_2''E_2' + \beta_3''E_3' - \beta_4''E_4';$$

$$\alpha_1' = \frac{1}{\gamma_1}[\gamma_{10}\gamma_4 + m_2\gamma_5]; \alpha_1'' = \frac{1}{\gamma_1}[-\gamma_{10}\gamma_5 + m_2\gamma_4];$$

$$\alpha_2' = \gamma_1[\gamma_{11}\gamma_4 - m_2\gamma_5]; \alpha_2'' = \gamma_1[\gamma_{11}\gamma_5 + m_2\gamma_4];$$

$$\beta_1' = \gamma_2[\gamma_{12}\gamma_6 - 3k_2\gamma_7]; \beta_1'' = \gamma_2[\gamma_{12}\gamma_7 + 3k_2\gamma_6];$$

$$\beta_2' = \frac{1}{\gamma_2}[\gamma_{13}\gamma_6 + 3k_2\gamma_7]; \beta_2'' = \frac{1}{\gamma_2}[-\gamma_{13}\gamma_7 + 3k_2\gamma_6];$$

$$\beta_3' = \gamma_3[\gamma_{14}\gamma_6 - k_2\gamma_9]; \beta_3'' = \gamma_3[\gamma_{14}\gamma_9 + k_2\gamma_8];$$

$$\beta_4' = \frac{1}{\gamma_3}[\gamma_{15}\gamma_8 + k_2\gamma_9]; \beta_4'' = \frac{1}{\gamma_3}[-\gamma_{15}\gamma_9 + k_2\gamma_8];$$


$$\gamma_1 = e^{m_1 l}; \gamma_2 = e^{3k_1 l}; \gamma_3 = e^{k_1 l}; \gamma_4 = cosm_2 l; \gamma_5 = sinm_2 l; \gamma_6 = cos3k_2 l;$$

$$\gamma_7 = sin3k_2 l; \gamma_8 = cosk_2 l; \gamma_9 = sin3k_2 l; \gamma_{10} = m - d; \gamma_{11} = m + d;$$

$$\gamma_{12} = 3k_1 + d; \gamma_{13} = 3k_1 - d; \gamma_{14} = k_1 + d; \gamma_{15} = k_1 - d; m_1 = Scos\psi;$$

$$m_2 = Ssin\psi; S = \sqrt[4]{A^2 - 3\omega^2 B_3^2}; \psi = arctg\frac{3\omega B_3}{A}.$$

MUHOKAMA VA NATIJALARI. Har bir elementar qism uchun magnit zanjiri parametrlarini aniqlab 1- jadvalga kiritamiz. Dastlabki boshlang‘ich qiymatlar va magnit zanjirining o‘lchamlari: $\boldsymbol{\omega_q = 120}$ ta $\boldsymbol{I_q = 1,2\ [A]}$, $\boldsymbol{F_q = I_q \cdot w_q = 1,2 \cdot 100 = 120\ [A]}$. Bu qiymatlar simmetrik ravishda o‘ng qism uchun ham o‘rinli bo‘ladi. $\boldsymbol{\omega_{o'} = 70}$ ta $\boldsymbol{a = 0,01\ [m], h = 0,01\ [m], \delta = 0,01\ [m], X_M = 0,1\ [m]}$, $\boldsymbol{H_{\mu x_0} = \frac{U_{\mu x_0}}{X_M} = \frac{120}{0.1} = 1200\ [A]}$. $\boldsymbol{B_{\mu x_0} = 1,45\ [Tl]}$ eksprimental qiymatlar jadvalidan olindi.



1-rasm. Tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjiri. 1,2,3 – magnit o‘tkazgich sterjenlari; 4,5,6,7 – qo‘zg‘atish chulg‘ami, 8 – qo‘zg‘aluvchi o‘zak, 9,10,11,12 – o‘lchash chulg‘ami.

ISSN 3030-3907

1 – jadval.


Tarqoq parametrli magnit zanjirida magnit oqimi qiymatlarini zanjir uzunligi va vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

x, m	$Q_1(x)$, Wb	$Q_3(x)$, Wb	$Q_1(x)+Q_3(x)$, Wb	t, s	$Q_1(t)$, Wb	$Q_1(t)+Q_3(t)$, Wb
0,01	6,34E-09	6,26E-13	6,34E-09	0,0000	0,00E+00	0,00E+00
0,02	1,90E-08	1,69E-11	1,90E-08	0,0002	1,55E-08	2,25E-08
0,03	3,17E-08	7,82E-11	3,18E-08	0,0004	3,10E-08	4,47E-08
0,04	4,44E-08	2,15E-10	4,46E-08	0,0006	4,64E-08	6,62E-08
0,05	5,71E-08	4,56E-10	5,75E-08	0,0008	6,15E-08	8,69E-08
0,06	6,98E-08	8,33E-10	7,06E-08	0,0010	7,64E-08	1,06E-07
0,07	8,25E-08	1,37E-09	8,38E-08	0,0012	9,11E-08	1,25E-07
0,08	9,52E-08	2,11E-09	9,73E-08	0,0014	1,05E-07	1,41E-07
0,09	1,08E-07	3,07E-09	1,11E-07	0,0016	1,19E-07	1,56E-07
0,10	1,21E-07	4,29E-09	1,25E-07	0,0018	1,33E-07	1,69E-07
0,11	1,33E-07	5,79E-09	1,39E-07	0,0020	1,45E-07	1,81E-07
0,12	1,46E-07	7,61E-09	1,54E-07	0,0022	1,58E-07	1,90E-07
0,13	1,59E-07	9,78E-09	1,68E-07	0,0024	1,69E-07	1,98E-07
0,14	1,71E-07	1,23E-08	1,84E-07	0,0026	1,80E-07	2,04E-07
0,15	1,84E-07	1,53E-08	1,99E-07	0,0028	1,91E-07	2,08E-07
0,16	1,97E-07	1,86E-08	2,15E-07	0,0030	2,00E-07	2,12E-07


ISSN 3030-3907

0,17	2,09E-07	2,25E-08	2,32E-07	0,0032	2,09E-07	2,14E-07
0,18	2,22E-07	2,68E-08	2,49E-07	0,0034	2,17E-07	2,14E-07
0,19	2,35E-07	3,17E-08	2,66E-07	0,0036	2,24E-07	2,15E-07
0,20	2,47E-07	3,71E-08	2,84E-07	0,0038	2,30E-07	2,14E-07

Olingan qiymatlar asosida TPNMZ ning xarakteristikalarini qurqmiz:



2 – rasm. Tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirida magnit oqimini garmonikalar bo‘yicha taqsimlanishi.



3 – rasm. Tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirida magnit oqimini magnit o‘tkazgich uzunligi bo‘yicha taqsimlanishi

XULOSA VA TAKLIFLAR. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qo‘zg‘aluvchan qismga ega bo‘lgan tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirlardagi jarayonlarni hisoblashda yuqori garmonikalarni hisoblash muhim

ISSN 3030-3907

bo‘lib, asosiy garmonika, asosiy bilan uchunchi garmonikani qo‘shilgandagi grafigi (2- rasm) hamda magnit zanjir uzunligi bo‘ylab magnit oqimini asosiy va asosiy bilan uchunchi garmonikani birgalikdagi grafiklari(3- rasm)da asosiy farqni yaqqol ko‘rish mumkin. Garmonikalar magnit zanjirida magnit oqimiga to‘yinishi natijasi yuzaga keladi va bu jarayonda garmonikalar buzulish koeffitsiyenti magnit zanjir uzunligi bo‘ylab 1 % dan 15 % gacha, o‘rtacha qiymati esa 5,69 % ni tashkil etadi. Garmonikalarni hisobga olish tarqoq parametrli nochiziq magnit zanjirlar qo‘llanib kelayotgan o‘zgartgichlar va o‘lchash qurilmalari xarakteristikalari aniqligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Chaban, A. va boshqalar. Mathematical Model of a Nonlinear Electromagnetic Circuit Based on the Modified Hamilton–Ostrogradsky Principle. Energies, 2024, 17(21), 5365.
2. Wang, H. va boshqalar. Nonlinear Varying-Network Magnetic Circuit Analysis of Consequent-Pole Permanent-Magnet Motor for Electric Vehicles. Energies, 2021.
3. Kara, O., Çelik, H.H. A Novel Nonlinear Magnetic Equivalent Circuit Model for Magnetic Flux Leakage System. Applied Sciences, 2024, 14, 4071.
4. Seol, H.S. va boshqalar. Advanced 3D Nonlinear Magnetic Equivalent Circuit Model for Overhang-Type WRSM Design. Electronics, 2025, 14(7), 1304.
5. Gyselinck, J., Vandevelde, L., Oliveira, A.M., Dular, P., Melkebeek, J., Kuo-Peng, P. Two-Dimensional Harmonic Balance Finite Element Modelling of Electrical Machines Taking Motion into Account. ICEM 2002 Conference Record, 2002; shuningdek harmonic-balance yondashuvining dastlabki asoslari uchun: Gyselinck, J., Dular, P., Geuzaine, C., Legros, W. Harmonic-balance finite-element modeling of electromagnetic devices: A novel approach. IEEE Transactions on Magnetics, 2002, 38(2), 521–524.
6. Scolaro, E., Alberti, L., Sabariego, R.V., Gyselinck, J. Harmonic Balance Applied to a 2D Nonlinear Finite-Element Magnetic Model with Motion and Circuit Coupling. International Journal of Numerical Modelling: Electronic Networks, Devices and Fields, 2024, 37(4), e3275.
7. Tsai, Y.-T., Huang, J.H. A Study of Nonlinear Harmonic Distortion in a Balanced Armature Actuator with Asymmetrical Magnetic Flux. Sensors and Actuators A: Physical, 2013, 203, 324–334.
8. Амиров С. Ф., Сатторов Т.А. “Магнитловчи чулғамлари бўйлама тарқоқ жойлашган дифференциал магнит занжирларининг математик моделлари” ФАН ВА ТЕХНОЛОГИУаЛАР ТАРАҚҚИЁТИ, ИЛМИЙ – ТЕХНИКАВИЙ ЖУРНАЛ 2023, № 4

ISSN 3030-3907

9. Amirov S.F., Jumayev J., Sattorov T.A., “Tarqoq parametrli magnit zanjirlarni magnitlanish egri chizig‘ini aproksimatsiyalovchi funksiyani aniqlash”, “BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI” Ilmiy-nazariy jurnal 2024, № 2, fevral

10. Амиров С.Ф., Мамадалиев У.Ш, Каримов И.А., Сатторов Т.А., “Математические модели трансформаторных преобразователей угловых перемещений с переменной активной площадью обмотки возбуждения.”, Развитие науки и технологий. Научно – технический журнал. ISSN 2181-8193. Бухара: №6/2023. 197-205 с.

POLIEFIR HAMDA EPOKSI EMULSIYA QOPLAMASI ASOSIDA ISHLAB CHIQARILGAN UZLUKSIZ BAZALT TOLALARINING FIZIK-MEXANIK KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH

Tojidinov Mashhurbek Baxodirovich
Qo‘qon Universiteti Andijon filiali Umumiy kimyo kafedrasi v.b.dotsenti, t.f.f.d (PhD)
E-mail: mashhurbek1212@gmail.com
Vafayev Oybek Shukurlayevich
“Basalt Engineering Corp” MChJ Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘limi boshlig‘i, t.f.d. (DSc)
O‘rolov Sanjar Bahrom o‘g‘li
“Basalt Engineering Corp” MChJ Laborotoriya bo‘limi kimyogar-texnologi

Annotatsiya. Tadqiqot ishida poliefir hamda epoksi emulsiya qoplamasi asosida ishlab chiqarilgan uzluksiz bazalt tolalarining fizik – mexanik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan bo‘lib, ularning belgilargan me’yor talablariga mosligi hamda uzluksiz bazalt tolalari asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Poliefir emulsiya, epoksi emulsiya, qoplama, basalt, chiziqli zichlik, monofilament, diametr, namlik, cho‘zilishga mustahkamlik, nisbiy cho‘zilishga mustahkamlik, nisbiy cho‘zilish.

Аннотация. В ходе исследования были изучены физико-механические свойства непрерывных базальтовых волокон, полученных на основе полиэфирных и эпоксидных эмульсионных покрытий, проанализировано их соответствие требованиям установленных стандартов, а также рассмотрены возможности производства строительных материалов на основе непрерывных базальтовых волокон.

Ключевые слова. Полиэфирная эмульсия, эпоксидная эмульсия, покрытие, базальт, линейная плотность, монофиламент, диаметр, влажность, прочность на разрыв, относительная прочность на разрыв, относительное удлинение.

Abstract. This study examined the physical and mechanical properties of continuous basalt fibers produced using epoxy emulsion paint, analyzed their compliance with established standards, and explored the potential for producing building materials based on continuous basalt fibers.

Keywords: epoxy emulsion, coating, basalt, linear density, monofilament, diameter, moisture content, tensile strength, relative tensile strength, elongation.

KIRISH.

Hozirgi vaqtda sanoat va qurilishda yuqori mustahkamlikdagi, bardoshli va ekologik toza materiallarga talab ortib bormoqda. Bazalt tolalari shunday

ISSN 3030-3907

zamonaviy materiallardan biridir. Bazalt tolalari quyidagi muhim xususiyatlarga ega:

• yuqori mexanik mustahkamlik va bardoshlilik;
• -200 °C dan +700 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida qo‘llanilishi;
• kislotali va ishqoriy muhitlarga yaxshi kimyoviy qarshilik;
• yong‘inga va issiqqa chidamlilik;
• namlik va korroziyaga chidamlilik;
• elektr izolyatsiya xususiyatlari [1].

Bazalt tolalari metall va shisha tolalarga qaraganda korroziyaga chidamliroqdir. Ushbu xususiyatlar tufayli bazalt tolalari ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Xususan, qurilishda - bazalt armaturasi, bazalt tolali beton, yo‘l va ko‘prik inshootlarini mustahkamlashda, sanoat va energetikada - issiqlik izolyatsiyasi hamda agressiv muhitda ishlaydigan uskunalarni himoya qilishda, mashinasozlik va transportda - yengil va bardoshli kompozit qismlar ishlab chiqarish uchun, kimyo sanoatida - kislotalar va ishqoriylarga chidamli material sifatida ishlatilib kelinmoqda[2,3].

Bazalt tolalarining sifat ko‘rsatkichlariga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Jumladan, mineral tarkibi, ishlab chiqarish jarayonlaridagi harorat, qoplamaning turi va tarkibi, olingan tolani quritish usuli va quritish jarayonining texnologik rejimlari hamda tolaning monofilament diametri va boshqalar [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bazalt tolalarning asosiy ustunliklaridan biri ularning yuqori mexanik mustahkamligi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bazalt tolalarning uzilishdagi mustahkamligi 2,8–4,8 GPa oralig‘ida bo‘lib, bu ko‘rsatkich ayrim hollarda E-shisha tolalarnikidan yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularning elastiklik moduli 85–95 GPa atrofida bo‘lib, bu ularni yuqori yuklamali konstruksiyalar uchun mos materialga aylantiradi [5]. Bir qator ilmiy ishlarda bazalt tolalarning kimyoviy tarkibi ularning fizik-mexanik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Xususan, SiO_2, Al_2O_3 va Fe_2O_3 oksidlarining miqdori tolalarning mustahkamligi, issiqlikka chidamliligi va kristallanish xususiyatlariga bevosita ta’sir qiladi. Temir oksidlarining ortishi eritmaning kristallanish qobiliyatini oshirib, tolalarning bir jinsliligini pasaytirishi mumkin [6].

Tolalarning mexanik xossalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, uzilishdagi mustahkamlik shishadagi temir oksidlari miqdori kamayganda va tolalar olinadigan harorat oshganda ortadi [7].

Bazalt tolalarning kimyoviy barqarorligi ham muhim xususiyatlardan biridir. Ular kislota va ishqoriy muhitlarga nisbatan nisbatan yuqori chidamlilikka ega. Shu sababli ular kimyo sanoati, qurilish va kompozit materiallar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi [8].

ISSN 3030-3907


TADQIQOT METODOLOGIYASI. Uzluksiz bazalt tolalarining fizik va mexanik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi va u xomashyoni tanlashdan boshlab, tayyor tolalarning xossalarini baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida kimyoviy tarkibi oldindan aniqlangan va nazorat qilinadigan bazalt xomashyosi tanlab olindi. Xomashyo tarkibi rentgen-fluorestsent tahlil (XRF) yordamida aniqlanib, undagi asosiy oksidlar – SiO_2, Al_2O_3, Fe_2O_3, CaO, MgO va boshqa komponentlar miqdori baholandi.

Olingan tolalarning strukturaviy xususiyatlari skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida o‘rganildi. Ushbu usullar orqali tolalarning yuzasidagi nuqsonlar va mikrostruktura elementlari aniqlanadi.

Mexanik xususiyatlarni o‘rganish uchun tolalarning uzilishdagi mustahkamligi va elastiklik moduli universal sinov mashinalarida aniqlanadi. Sinovlar standart metodikalarga muvofiq amalga oshirilib, tolalarning diametri, uzunligi va yuklanish tezligi kabi parametrlar hisobga olindi [9]. Olingan natijalar statistik qayta ishlanib, turli tarkib va texnologik sharoitlarning mexanik xossalarga ta’siri solishtirildi.

TAHLIL NATIJALARI. Dastlab “Basalt Engineering Corp” MChJ da poliefir hamda epoksi emulsiya qoplamasi asosida uzluksiz bazalt tolalari ishlab chiqarildi. Olingan tolalarning strukturasi va bir dona tolaning diametri skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida aniqlandi. Belgilangan standart talablariga muvofiq kamida 25 ta tolaning diametri aniqlanadi va o‘rtacha qiymati qabul qilinadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, poliefir emulsiya qoplamasi asosida olingan tolaning o‘rtacha diametri 17,1 μ (mikron), epoksi emulsiyasi asosidagi tola esa 16,9 μ (mikron)ni tashkil qildi. Quyidagi 1 – rasmda poliefir hamda epoksi emulsiya qoplamasi asosida uzluksiz bazalt tolalarining SEM dagi tasviri keltirilgan.

ISSN 3030-3907



1- rasm. Poliefir va epoksi emulsiya qoplamasi asosidagi uzluksiz bazalt tolalari

So‘ngra olingan uzluksiz bazalt tolalarining mustahkamlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Mustahkamlik ko‘rsatkichlari uchun zarur parametrlar aniqlandi. Bunda poliefir emulsiya qoplamasi asosida olingan tolaning o‘rtacha chiziqli zichligi 580 teks, epoksi emulsiyasi asosidagi tolaniki esa 604 teksni tashkil qildi. Cho‘zilishga mustahkamlik va nisbiy uzayish ko‘rsatkichini aniqlashda har bir markadan 5 tadan namuna olindi va universal sinov mashinalarida tekshirildi. Olingan natijalar quyidagi 1 – jadvalda hamda 2, 3 – rasmlarda keltirildi.


1 – jadval

Bazalt tolalarining mustahkamlik ko‘rsatkichlari

№	Marka	Chiziqli zichlik, teks	Cho‘zilishdagi mustahkamlik, N	Nisbiy cho‘zilishdagi mustahkamlik, mN/teks	Nisbiy uzayish, %
1	Marka 1	580	397,22	684,87	2,62
			423,36	729,94	2,74
			419,51	723,29	3,16
			409,40	705,87	2,75


ISSN 3030-3907

			425,71	733,98	2,94
	O‘rtacha		415,04	715,59	2,84
2	Marka 2	604	423,15	700,57	2,93
			440,83	729,86	2,98
			411,50	681,29	2,87
			420,79	696,67	3,11
			405,73	671,75	2,88
	O‘rtacha		420,40	696,03	2,95



2 – rasm. Poliefir emulsiya qoplamasi asosida olingan tolaning mustahkamlik ko‘rsatkichi

ISSN 3030-3907



Test results

	OK	Date	Time	FH N	RH mN/tex	AH %	dLH mm
1	x	07.01.26	13:01	423,15	700,57	2,93	2,93
2	x	07.01.26	13:01	440,83	729,86	2,98	2,98
3	x	07.01.26	13:01	411,50	681,29	2,87	2,87
4	x	07.01.26	13:02	420,79	696,67	3,11	3,11
5	x	07.01.26	13:02	405,73	671,75	2,88	2,88

Statistics n = 5

	FH N	RH mN/tex	AH %	dLH mm
Average	420,40	696,03	2,95	2,95

3 – rasm. Epoksi emulsiya qoplamasi asosida olingan tolaning mustahkamlik ko‘rsatkichi

Olingan natijalarni standart talablarga mosligi aniqlandi. Quyidagi 2 – jadvalda standart talablar va ishlab chiqarilgan uzluksiz bazalt tolalarining sifat ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili keltirilgan.

2 – jadval

Uzluksiz bazalt tolalari sifatiga qo‘yiladigan me’yoriy talablar

№	Ko‘rsatkich	Me’yor	Marka 1	Marka 2
1	Monofilament diametri, μ	17±1	17,1	16,9
2	Chiziqli zichlik, teks	600±30	580	604
3	Nisbiy cho‘zilishdagi mustahkamlik, mN/teks	≥ 600	715,59	696,03
4	Nisbiy uzayish, %	2 – 4,5%	2,84	2,95

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Basalt Engineering Corp” MChJ da ishlab chiqarilgan uzluksiz bazalt tolalarining fizik va mexanik xususiyatlari belgilangan standart talablariga to‘liq javob beradi.

XULOSA. Tadqiq etilgan uzluksiz bazalt tolalari o‘zining yuqori mexanik mustahkamligi, termik va kimyoviy barqarorligi tufayli an’anaviy shisha yoki metall tolalarga munosib muqobil hisoblanadi hamda ularni zamonaviy qurilish konstruksiyalarida, xususan, bazalt armaturalar va fibrobetonlar tayyorlashda,

ISSN 3030-3907

kimyo sanoatida, shuningdek, og‘ir yuklamali kompozit materiallar ishlab chiqarish sohasida ishonchli va istiqbolli xomashyo sifatida keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Singha K. A short review on basalt fiber //International Journal of Textile Science. – 2012. – Т. 1. – №. 4. – С. 19-28.
2. Fiore V. et al. A review on basalt fibre and its composites //Composites Part B: Engineering. – 2015. – Т. 74. – С. 74-94.
3. Lebedev M. P., Startsev O. V., Kychkin A. K. The effects of aggressive environments on the mechanical properties of basalt plastics //Heliyon. – 2020. – Т. 6. – №. 3.
4. Liu R. et al. Experimental study of the mechanical properties and microstructure of basalt fiber-reinforced concrete //Journal of Materials in Civil Engineering. – 2023. – Т. 35. – №. 7. – С. 04023205.
5. Chen M., Liu J., Wu Z. Effect of Fe_2O_3 concentration on the properties of basalt glasses //Journal of Natural Fibers. – 2022. – Т. 19. – №. 2. – С. 575-585.
6. Huo Y. et al. Crystallization kinetics of modified basalt glass //Materials. – 2020. – Т. 13. – №. 21. – С. 5043.
7. Özer M., Yazman Ş., Akdemir A. The Effect of Nano-Iron Oxide Particle on Mechanical Properties of Glass Fiber Reinforced Composites //Polymers for Advanced Technologies. – 2025. – Т. 36. – №. 9. – С. 70341.
8. Тожидинов М.Б., Вафаев О.Ш. Исследование влияния агрессивных сред на качество непрерывных базальтовых волокон // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2026. 1(142).

ISSN 3030-3907

TARIXIY POETIKA VA UNING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI

Ibragimova Azada Gulumbayevna
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy poetika tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda badiiy tafakkur rivojidagi o‘rni ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etiladi. Tarixiy poetika adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, u badiiy shakllar, janrlar, obrazlar tizimi va uslubiy vositalarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganadi. Mazkur yo‘nalishning shakllanishida klassik va zamonaviy olimlarning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, poetik kategoriyalarning evolyutsiyasi, milliy va umumjahon adabiy jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, adabiy an’ana va innovatsiyaning uyg‘unligi kabi masalalar keng yoritiladi. Zamonaviy davrda tarixiy poetikaning ahamiyati yanada ortib, u nafaqat adabiy matnlarni tahlil qilish, balki madaniy identifikatsiya, globalizatsiya sharoitida milliy adabiyotlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy poetika badiiy tafakkurning uzluksiz rivojlanishini tushunishda, adabiy jarayonlarni tizimli tahlil qilishda va zamonaviy adabiyotning konseptual yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ilmiy vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy poetika, badiiy tafakkur, janr evolyutsiyasi, adabiy jarayon, poetik kategoriyalar, adabiy an’ana, modernizm, interpretatsiya, metodologiya, madaniy identifikatsiya.

Аннотация. В данной работе рассматриваются теоретические основы исторической поэтики, этапы её становления и роль в развитии художественного мышления на основе научно обоснованных источников. Историческая поэтика определяется как одно из ключевых направлений литературоведения, изучающее историческую эволюцию художественных форм, жанров, образной системы и стилистических средств. Особое внимание уделяется вкладу классических и современных исследователей в формирование данной дисциплины, а также анализу таких аспектов, как трансформация поэтических категорий, взаимосвязь национальных и мировых литературных процессов, соотношение традиции и новаторства. В условиях современности значение исторической поэтики существенно возрастает, поскольку она выступает важным инструментом анализа литературных текстов и одновременно служит методологической основой для осмысления культурной идентичности в эпоху глобализации. Результаты исследования показывают, что историческая поэтика способствует более глубокому пониманию закономерностей развития

ISSN 3030-3907

художественного сознания, системному анализу литературного процесса и выявлению концептуальных направлений современной литературы.

Ключевые слова: историческая поэтика, художественное мышление, жанровая эволюция, литературный процесс, поэтические категории, традиция и новаторство, интерпретация, методология, культурная идентичность.

Annotation. This paper examines the theoretical foundations of historical poetics, its stages of development, and its role in the evolution of artistic thinking based on academically validated sources. Historical poetics is considered a significant branch of literary studies that investigates the historical development of artistic forms, genres, imagery systems, and stylistic devices. Particular attention is given to the contributions of both classical and modern scholars in shaping this discipline, as well as to the analysis of key issues such as the evolution of poetic categories, the interaction between national and global literary processes, and the relationship between tradition and innovation. In the contemporary context, the importance of historical poetics has increased significantly, as it serves not only as a tool for literary analysis but also as a methodological framework for understanding cultural identity in the age of globalization. The findings indicate that historical poetics plays a crucial role in comprehending the continuous development of artistic consciousness, conducting systematic analysis of literary processes, and identifying conceptual trends in modern literature.

Keywords: historical poetics, artistic thinking, genre evolution, literary process, poetic categories, tradition and innovation, interpretation, methodology, cultural identity.

KIRISH.

Tarixiy poetika adabiyotshunoslik fanining muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u badiiy asarning shakliy va mazmuniy unsurlarini tarixiy rivojlanish jarayonida o‘rganishga qaratilgan nazariy yondashuv sifatida shakllangan. Ushbu yo‘nalish, avvalo, badiiy tafakkur evolyutsiyasi, poetik shakllarning o‘zgarishi, janrlar tizimining taraqqiyoti hamda obraz va uslub kategoriyalarining tarixiy sharoit bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qilishni nazarda tutadi. Tarixiy poetika doirasida adabiyot faqat estetik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning mahsuli sifatida talqin qilinadi, bu esa uni boshqa adabiy-nazariy yondashuvlardan farqlab turadi.Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib borayotgan bir paytda, badiiy merosni tarixiy-konseptual asosda o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Tarixiy poetika ana shu ehtiyojga javob beruvchi ilmiy metod sifatida, adabiy jarayonni uzviylik va davomiylik tamoyillari asosida tahlil qilish imkonini

ISSN 3030-3907

